Bu saxovatli faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur yo'nalishda muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, jahon ilmiy markazlari, universitetlar, olimlar hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muhim ishlar yo'lga qo'yiladi.

Ma'lumki, hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini, osori - atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash, ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir.

Bu jahonshumul masalada YUNESKO asosiy o'rinni egallaydi. Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan buyuk Xitoy devori, London Taueri, Klimenjarodagi milliy park va boshqa minglab obyektlar kiradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1993 yildan boshlab O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa joylaridagi ko'plab tarixiy obidalar ana shu ro'yxatga kiritildi.

Har yili bu ro'yxatga yangi - yangi tarixiy obidalar, yodgorliklar nomi qayd etib boriladi.

YUNESKO faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, o'lanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi.

Ayniqsa, YUNESKONing adabiyot bo'yicha roli salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shoh asarlari, adabiy me'ros u tomonidan e'zozlanib, to'planadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan chiqariladi va tarqatiladi. Shuningdek, YUNESKO ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jahon ahlini voqea va hodisalardan voqif qilish masalalariga ham faol qatnashib uning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Bu xalqaro muassasa ko'plab vaqtli matbuot va nashrlarga homiylik qiladi. 1992 yil 2 martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib qabul qilingach, BMTning barcha tashkilotlariga a'zo bo'lish huquqiga ega bo'ladi. Shu bois Respublikamiz 1993 yil 26 oktabridan boshlab YUNESKOga a'zo bo'ldi.

Yuqoridagi sanalardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston YUNESKOga a'zo bo'lganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tdi. Lekin shu qisqa vaqt ichida ko'p ishlar amalga oshirildi.

1992 yilning yuqorida YUNESKONing ko'zga ko'ringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro Xiva shaharlarining tarixiy obidalarini borib ko'rdilar va o'rgandilar. Ularda bu shahardagi betakror tarixiy obidalar katta taassurot qoldirdi. Natijada, xalqimizning o'chmas yodgorliklari qayta tiklanib, ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dasturni amalga oshirish 1995 yilning boshidan boshlandi.

1992 yilning aprel oyida YUNESKONing barcha bo'limlari vakillari Toshkentga kelishdi. Ularning bu tashrifidan maqsad Markaziy Osiyo Respublikalarida YUNESKONing vazifalarini aniqlab olishdan iborat edi.

Shu yilning oktabr oyida Samarqand shahrida Markaziy Osiyo va jahon olimlari uchrashib, bu shaharda YUNESKO tasarrufidagi Markaziy Osiyo respublikalarini o'rganish instituti tashkil etishga qaror qilindi.

Bu institut jahonda mintaqani o'rganish bo'yicha eng yirik markaz bo'lib qoldi. Binobarin, Samarqand o'rta asrlarda bo'lganidek, hozir ham jahonning eng ko'zga ko'ringan ilmiy markazlaridan biri bo'lib qoladi.

YUNESKO tashabbusi bilan Fransiyaning Parij shahrida, Samarqandlik olim, davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining butun jahon tarixiy obidalar ro'yxatiga

kiritish bo'yicha ko'pgina ishlar qilindi.

YUNESKO Markaziy Osiyoda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish ishida ham katta amaliy yordam ko'rsatmoqda. Bu ish shunisi bilan katta ahamiyatga molikki, butun Markaziy Osiyo Respublikalari Orol dengizining qurib borayotganligi munosabati bilan jiddiy ekologik tanglikka, sanoat chiqindilaridan atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolarga duch kelmoqdalar.

YUNESKO ana shu muammolarni, boshqa xalqaro va hududiy hamjamiyat tashkilotlari bilan hamkorlikda bartaraf etish yo'lida ishlashga o'zining tayyor ekanligini izhor etdi.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish o'n yilligini (1988- 1997) o'tkazishga qaror qilgan edi.

YUNESKO ham shu doirada faoliyat ko'rsatib, jahon iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan «Buyuk Ipak Yo'li»ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi, quruqlikdagi va dengizdagi savdo yo'li salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini bir-biriga bog'lovchi muhim ko'priklarni ochib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Endilikda bu ulkan tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Ipak yo'li mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish;
2. Karvonsaroylar o'rnini aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish;
3. Kosmik arxeologiya'ni qayta jonlantirish;
4. Jahon turistik tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni ochish va uni harakatga keltirishdan iborat.

Hozirgi kunda Respublikada YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya tarkibiga davlat arboblari, olimlar, taniqli madaniyat xodimlari bilan bir qatorda ta'lim muassasalarining ham vakilari kiritildi.

YUNISEF, MOT(XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rni

YUNISEF 1946 yilning 11 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasidayoq bir ovozdan YUNISEF — BMTning Favqulodda Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi.

YUNISEF tashkil topgan dastlabki yillarda uning mablag'i urushdan qattiq jabrlangan Yevropa va Xitoy bolalariga oziq-ovqat, dori-darmonlar uchun sarf qila boshladi. 1950 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyasi YUNISEF vakolatini yanada kengaytirdi. Uning mablag'lari rivojlanayotgan davlatlardagi son-sanoqsiz bolalar uchun sarflana boshladi.

1953 yilning oktabridan BMT Bosh Assambleyasi YUNISEFni o'zining doimiy organiga aylantirdi. Endi u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar fondiga aylandi. Lekin uning kafolatlari va vazifalari to'laligicha saqlab qolindi.

1960 yillardan boshlab YUNISEF bolalar manfaatlarini global himoya qiluvchi zabardast organga aylandi.

1965 yilda YUNISEFning Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi, xalqaro bolalar hayotida naqadar xayriya va saxovat manbai bo'lib shakllanganligini to'la e'tirof etilishi bo'ldi.

Hozirgi kunda ham YUNISEF bolalar manfaatlarini himoya qilishga, ularni sog'lom, o'qimishli bo'lib o'sishlariga ko'maklashish, bolalar o'limini oldini olish, ommaviy qirg'in keltiruvchi va boshqa xavfli kasalliklardan muhofaza qilish, onalik va bolalikni himoya qilish, loaqal qizlar hamda o'g'il bolalarga bepul boshlang'ich ma'lumot berish, ular farovonligini ta'minlash ishlariga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu saxovatli tashkilot bizning mamlakatimizda ham insonparvarlik faoliyatini boshlab yubordi.

Respublikamizda YUNISEF faoliyatining asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga kerak tibbiy yordam ko'rsatish, to'laqonli ta'lim berish, turmush sharoitini yaxshilashning ijtimoiy kafolatini himoya qilishdan iborat.

Shuningdek, YUNISEF respublikamizda onalar va bolalar kasalliklarini oldini olish, ularni 100 foiz immunizatsiya qilish, bolalarni chechak, ich terlama, difteriya, poliomilit, ko'k yo'tal, quturish kabi kasalliklardan himoya qilish kabi amaliy ishlarni

bajarmoqda. Xuddi shu maqs adda so'nggi yillarda o'zbekistonlik bolalarga vaksina keltirilmoqda. YUNISEF dasturiga asosan dori-darmonlar, tibbiyot anjomlari va boshqa zarur narsalar olib kelinmoqda, ommaviy tushuntirish ishlari olib borilmoqda, turli plakatlari, yo'riqnomalar, qo'llanmalar nashr qilinmoqda.

YUNISEF ta'limni amalga oshirishga ko'maklashishda ham faol qatnashmoqda. Ayniqsa, bu tashkilot maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limga ko'proq yo'naltirilgan. Albatta, YUNISEFning ta'lim bo'yicha dasturida ko'zda tutilgan bir qator ishlar ham loyiha bosqichida turibdi.

1990 yilda jahonning 71 davlati rahbarlarining oliy darajadagi tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi ko'rib chiqildi. Bolalar sog'lig'ini ta'minlash, ularga bilim berish, ular huquqlarini himoya qilish, to'q va farovon bolalikni ta'minlash bo'yicha 27 aniq maqsadni ko'zlovchi qaror qabul qilingan edi. Bugungi kungacha bu qaror 153 mamlakatda amalga oshirib kelinmoqda. Bizning Respublikamizda ham bu xalqaro hujjatni amalga oshirish bo'yicha - Milliy harakat dasturi" ishlab chiqilgan.

MOT (XMT) Inson huquqlarini hurmat qilish, ularning mehnat turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot - MOT (xalqaro mehnat tashkiloti) birinchi jahon urushidan keyin tashkil qilingan edi.

Uning tashkil etilishiga birinchi jahon urushi oqibati, jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Chunki, jahonda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy iqtisodiy islohotlar jahon miqyosida aks etmog'i ko'zda tutilgan edi.

XMTning eng noyob xususiyati shundaki, unda ish beruvchilar va mehnatkashlar iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorligini shakllantiradi, davlat muassasalari bilan teng huquq, tashkilotning siyosati va faoliyati dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Oradan 25 yil o'tgandan keyin XMTning Filadelfiya Konferensiyasida uning maqsad va vazifalari kengaytirildi, jahonning rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlari o'rtasida aholini mehnat va mehnatga tayyorlash bo'yicha hamkorligini yo'lga qo'yish masalalari eng dolzarb masala sifatida qabul qilindi. 1945

yildan XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi ixtisoslashtirilgan muassasiga aylantirildi. 1969 yilda uning faoliyati Nobel mukofoti bilan taqdirlashga loyiq deb topildi.

XMT hozir quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1. Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;
2. Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uni qo'llanishini nazorat qilish;
3. Keng ko'lamda xalqaro texnik-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu sohada davlatlar o'rtasida faol hamkorlikni va bu siyosatni samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;
4. Professional tayyorgarlik, hunar - texnika ta'limi umumiy tadqiqotlar, nashriyotlar sohasida faoliyat ko'rsatish va hokazolar.

Bundan tashqari XMT o'zining qudratli o'quv markaziga ham ega. Bu o'quv markazi Italiyaning Turin shahrida bo'lib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar mehnatga tayyorlash, ta'limni tashkil etish kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarda o'qitiladi. Shuningdek, XMT tasarrufida Jeneva shahrida ijtimoiy mehnat bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro institut ishlab turibdi.

XMTning oliy organi - har yili o'tkaziladigan xalqaro *Konferensiyadir*. Unda mehnatni tashkil qilish, uning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish, mehnat ta'limini amalga oshirish va boshqa dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi. Konferensiya ishiga ma'muriy kengash rahbarlik qiladi. Bu kengash tarkibida 28 hukumat, 14 mehnatkashlar, 14 ish bilan ta'minlovchi vakillar bor. Unga doimiy rahbarlikni xalqaro mehnat byurosi amalga oshiradi. Byuroga esa Bosh direktor rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi XMTga 1992 yil 13 iyulda a'zo bo'lib, o'zaro munosabatlar yaxshi rivojlanmoqda. Bu hamkorlik: a) O'zbekiston fuqarolarini ish bilan ta'minlash; b) mehnat taqsimoti, ish bilan ta'minlash, kasblarga o'qitish masalalarida chet ellarda malaka oshirish; v) aholini kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish; g) kasb ta'limini yo'lga qo'yish yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Respublika ishchi kuchlarini xalqaro meyorga olib chiqish, kasb ta'limini takomillashtirishga bag'ishlangan bir qator seminar kengashlar XMT, Respublika xalq ta'limi va mehnat vazirliklari bilan hamkorlikda o'tkazilib kelinadi. XMT bilan hamkorlikning yangi bosqich va yo'nalishlarda rivojlantirish choralari ko'rilmogda.

## **1.5. Ta'lim sohasini isloh qilishda xalqaro tajribalarning ahamiyati**

Ta'limni isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri, uning tarkibini qayta qurishdir. Dunyo mamlakatlarida an'anaviy boshlang'ich ta'lim ommaviy bo'lgan bo'lib, u ishlab chiqarishni bilimli (savodli) ishchi kuchi bilan ta'minlar edi. 60-70-yillar oxirida esa, demokratiyalashtirish to'loqinida dunyo mamlakatlarida o'rta ta'limni kengaytirish, shuningdek, oliy ta'limni rivojlantirish yo'lga qo'yila boshladi. Bu holat 70-yillarda umumiy o'rta ta'limni tashkil etish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan o'sha davrga (Sobiq SSSR) ham taalluqlidir.

Iqtisodiy gullab yashnashning asosi bo'lgan ta'limni saqlab qolish va uning sifatini oshirish ehtiyoji ko'plab davlatlarda ta'limni standartlashtirish muammolarini birinchi o'ringa qo'ydi.

Shu o'rinda Sobiq Ittifoq tadqiqotchisi B.S. Gershunskiy va V.M. Berezovskiylarning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz:

- «Standartlashtirish bu istalgan jabhada biron narsani maqsad qilish va natijasini baholash bosqichlari bilan birga o'tkaziladigan muolajadir».

AQSH ta'lim Departamentining ko'rsatmasiga binoan:

«Standartlar bu shunga qaratilganki, ya'ni undagi ishtirokchilar bilishi va qila bilishi lozim».

Standartlashtirish birinchi, asosiy muammo sifatida asosan markazdan boshqarilmaydigan, ya'ni AQSH, Buyuk Britaniya singari davlatlarda, ya'ni ko'proq yagona umum milliy talablarga ehtiyojlar mavjud bo'lgan davlatlarda paydo bo'la boshlagan.

Bu ko'proq Sobiq Ittifoq tasarrufidagi respublikalarga taalluqlidir.

AQSHda esa, islohot maqola, ma'ruzalarda, ya'ni nomining o'zi mavjud ta'lim tizimidan qoniqmaslikdan guvohlik berib turgan: «Millat xavf ostida: maktabni isloh qilish zarur» (1983yil), «XXI asr uchun ta'lim» (1983 yil) kabi ilmiy maqolalarda o'z aksini topgan. Ularda amerika talaba va o'quvchilariga ta'limning yuqori bosqichlaridagi bilim berishning sayozligi tanqid qilindi.

80-yillarning oxirlarida esa, qator, ya'ni maqsadi ta'limni yaxshilashga qaratilgan qonun aktlari qabul qilingan.

«Amerika–2000: ta'lim istiqboli» (1991) deb nomlangan hujjatda ta'kidlanishicha 2000 yil amerikalik o'quvchilar o'zlarining



boshqa mamlakatlardagi tengdoshlaridan matematika va tabiiy fanlarni egallashda yuqori ko'rsatkichlarga erishadi deyilgan.

1991 yilda AQSH ta'lim standartlari va test usulidagi ta'limning davlat standartlarini rivojlanishi bo'yicha Milliy Kengash tuzildi. Komissiya tuzilib, uning ishtirokida matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, tarix, geografiya, fuqarolikka kirish, san'at singari fanlardan ta'lim standartlari yaratildi. 1993 yil ta'lim standartlarini matematika yo'nalishida ishlab chiqish yakunlandi. Qolgan standartlarni ishlab chiqish 1994-95 o'quv yilida tugatilishi lozim edi.

AQSHda shtatlardagi va maktab okruglaridagi avtonomiya'ning yuqori bosqichi umummilliy ta'lim standartlarining yaratilishida asosiy muammo bo'lgan.

Shundan so'ng, ta'lim Departamenti standartlarning majburiy emasligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Angliyada esa ta'lim standartlarini yaratishda boshqa yo'ldan bordi. Markazlashmagan ta'lim, ya'ni bunda maktablar katta mustaqillikdan foydalanishdi va ularning o'zaro o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish, tanqid qilishga keng yo'l (ayniqsa sanoat doiralarida) ochildi.

Ta'lim predmetlari yuqori va to'liqsiz o'rta maktablar uchun 80-yillarning oxirida ingliz tili (adabiyot), matematika, din va jismoniy tarbiyadan yaratildi.

Shuningdek, birinchi marta Angliyada majburiy maktab uchun o'quv rejasi tuzish haqidagi takliflar ta'limning Bosh nazoratchisining «11-16 yoshlar uchun o'quv reja» (1977yil) tuzishidan boshlangan.

Ta'limni isloh qilish to'g'risidagi qonun (1988yil)da belgilanishicha ta'lim masalalari bo'yicha davlat sekretari shaxsi ta'lim mazmuniga davlat talabini va barcha uchun majburiy bo'lgan ingliz maktablari uchun o'quv predmetlarini belgilaydi deyilgan.<sup>1</sup>

Qonun maktabda o'rganish uchun o'n bitta majburiy bo'lgan predmetlarni belgiladi: 3 ta predmet «Yadro» hisoblanadi, ya'ni matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, shuningdek, din, tarix, geografiya, texnologiya, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va chet tili (o'rta maktabda)lar ham mavjud edi.

Angliya Ta'lim va Fan Departamenti tomonidan «Ta'limni isloh qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilingach, asosiy predmetlar uchun komissiya tuzildi. Komissiya tarkibida predmetchilar,

o'qituvchilar, shuningdek, qo'shimcha guruh mutaxassisleri faoliyat yuritishdi.

90-yillarning boshida umummilliy ta'lim standarti va o'quv rejasini zarurligi ma'lum bo'ldi.

To'liqsiz o'rta maktablarning yuqori sinflari uchun majburiy predmetlarni o'qitishga o'quv vaqtining 85% i ajratilgan.<sup>1</sup>

Keyinchalik o'qituvchi pedagoglarning tanqidi va talablari asosida majburiy predmetlar uchun ajratilgan vaqt 70-75% ga qisqartirilgan.

Angliyalik pedagog DJ. Uaytning ta'kidlashicha, Angiyada islohot o'tkazishda «qatnashchi davlat maktablariga asosiy va iqtisodiy maqsadga erishish vositasi sifatida qaragan».<sup>2</sup>

Shuningdek, inson va fuqarolarning qiziqishlarining inobatga olinishi lozimligini ta'kidlaydi. Amerikalik pedagog DJ. Gudled yozishicha:»Ta'lim rejasini oshirish, maktabning javobgarligini kuchaytiradi». Shuningdek, u:-»Maktabda testning yuqori ko'rsatkichlari qo'llash orqada «qoluvchilar» uchun dastur bo'lib, ularning kamayishiga erishish mumkinligini takidlagan.

Yaponiyada esa, zamonaviy ta'lim islohoti 1984 yilda premer-ministr Nakasone asos solgan Maktabni isloh qilishning davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan. 1985 yilda qo'mita dokladi matbuotda e'lon qilingan, unda ta'limni isloh qilishga kirishilganligi bildirilgan.

80-yillarda Yaponiyada o'quv soatlar soni va o'quv rejalar sonini (maktablarda) qisqartirishga qaror qilindi, ya'ni ta'lim standarti qisqartirildi (bu haqda 1-jadvalda ko'rsatilgan).

To'rtinchi sinfda o'quv vaqti 31 dan 29 o'quv soatiga qisqartirildi, V-VI sinfda haftasiga 34 soatdan 30 soatga qisqartirildi.

O'quv vaqtining sezilarli darajada qisqartirilishi o'quvchilarning o'quv soatlarini engillashtirdi va standart rejasini pasaytirdi. Qo'shimcha darslar endi ilgariroq, ya'ni VI sinfda olib boriladigan bo'ldi va 10-12 % o'quv vaqtida amalga oshiriladigan bo'ldi. Yapon islohotchlari dars yuklamalarini kamaytirishga uringanlar, o'quv reja va dasturlarni ko'proq egiluvchan, bolalarning qiziqishiga yo'naltirgan holda ishlab chiqarganlar deydi, yapon pedagogi I.Kazuo.

	<i>Boshlang'ich maktab</i>	<i>Kichik maktab</i>
Sinf	I II III IV V VI	VII VIII
70-yillar	25 26 28 31 33 33	34 34
80-yillar	25 26 28 29 29 29	30 30

1988 yilda Fransiyada maktab dasturlarini ko'rib chiquvchi komissiya tuzilgan, ta'lim mazmunini isloh qilishning asosiy sababi matbuotda e'lon qilingan (1989), unda ta'lim mazmunini majburiy qism, ya'ni bilimlarning asosini o'zida mujassamlashtirgan (har bir inson uchun albatta zarur bo'lgan), qo'shimcha qism dasturi yakka tartibdagi qobiliyatni hisobga olgan holda o'qitish, shuningdek, qo'shimcha, mustaqil ta'lim olish nazarda tutilgan.

Bu tamoyillar 90-yillar reformasida o'z aksini topdi va majburiylik mazmuni qisqartirildi.

Shuningdek, Xitoy ham ta'lim tizimining majburiy standartlarini qisqartirish yo'lidan bordi, hamda 80-yillar o'rtalarida barcha uchun yagona o'quv rejasi, dasturi va darsliklarini ishlab chiqishda markazlashtirish hukmronlik qildi.

Ta'lim jarayoni qatnashchilarning yuklamalarini kamaytirish, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha darslar 10% (kichik o'rta maktablarda) yuqori maktablarda 20-30% ga qisqartirilgan.

60-70 % o'quv dasturi (majburiy fanlar)ni XXR Davlat ta'lim qo'mitasi tasdiqlasa, qolganlarini tegishli provinstitiyalar, mahalliy tegishli organlar tasdiqlaydilar.

Sharqiy va Markaziy Yevropada ta'limni isloh qilish, milliy standartni yaratish masalasi bilan bog'liq bo'lgan ushbu yo'nalishga Vengriya misol bo'la oladi.

Vengriya pedagogi Z.Batori o'quv rejaları va dasturlari, shuningdek, alohida darsliklarni yaratish (80-yillar oxirida) markazlashgan xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi, «ta'lim mazmunining ayrim sohalarida bilim keragidan ko'ra ko'proq edi» deydi u.

1992 yil Vengriya pedagoglar guruhi milliy o'quv rejasining loyihasini tayyorladilar, bu reja 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallab tuzilgan bo'lib, quyidagi fanlar bo'yicha edi: ona tili, chet tili, matematika, tabiiy fanlar, inson va jamiyat, san'at, texnika madaniyati va atrof muhit, hayot, oila, uy iqtisodi, jismoniy tarbiya va sport. Mazkur fanlarga o'quv vaqtining 80 % i ajratilgan edi.

1993 yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning loyihasi ishlab chiqilgan. Qonun loyihasi muhokamasida har xil yondashuvlar yuzaga kelgan: ayrim guruhlar ta'limni markazlashtirish, davlatning muntazam boshqaruvini o'rnatish tarafdorlari bo'lgan bo'lsalar ayrimlari esa maktabga to'la erkinlik berish markazlashtirmaslik tarafdorlari edilar.

Shunday qilib 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshidagi Ta'lim standartini yaratishga bo'lgan har xil qarash va va urinishlar bir tomondan o'quv rejaları va dasturlarini qisqartirish yo'ldan borgan bo'lsa, boshqalari aksincha, ko'paytirish tarafdori edilar.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash joiz, agar savodxonlikning an'anaviy bo'lib kelgan tushunchasi o'qish, xat va hisob o'rganishdan iborat bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshiga kelib esa, bu tushuncha ancha kengaydi. Taylandda o'tkazilgan «Ta'lim barcha uchun» mavzuidagi (1990 y) Butundunyo Konferenstiyasida shunday deyilgan: «Ta'lim yo'nalishi tushunchasining o'zi kengaytirilishga muhtoj», shuningdek, «bilim va yangiliklarning keng qamrovliligi hayot uchun zarurdir».<sup>1</sup>

Har xil mamlakatlarning pedagog va ta'lim sohasi arboblari ta'limni isloh qilishda har xil yo'ldan borishgan.

Birinchiidan, barcha mamlakatlar o'quv rejalariga zamonaviy predmetlar va kurslar kiritishni, shuningdek, o'quv predmetining yangi materiallar bilan boyitishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar.

Ikkinchiidan, ta'lim mazmunini qayta qurishning muhim yo'nalishlari sifatida o'quv dasturlarini fundamentallashtirishni zarur deb hisoblaganlar.

Uchinchiidan, bilimlarning integrastiyasini, o'quv dasturlarini mukammal yaratishni ilgari surdilar.

U yoki bu qarashlarni ko'rib chiqib, ta'limning mazmunini modernizastiyalash xarakterida ekanligining, bunda asosiy o'quv

fanlari majmui – tabiiy-matematik va gumanitar fanlarga alohida e'tibor qaratilganligiga amin bo'ldik.

80- yillarning oxirida tabiiy ilmiy va matematik ta'limni isloh qilish zarur edi. Chunki mazkur fanlar sohasida yangilanishlar mavjud edi.

Shuning uchun mamlakatlarda birinchi o'rinda e'tibor tabiiy-matematik ta'limga qaratilgan.

AQSHning o'rta maktablarida tabiiy fanlarni o'rganishning majburiyligi barcha maktablarga taalluqli emas edi. Ko'plab shtatlarning hukumat komissiyasiga tavsiyasi bilan o'rta maktablarning yuqori sinflarida matematika va tabiiy fanlar uch yil mobaynida, informatika esa yarim yil mobaynida o'qitiladigan bo'ldi.

Buyuk Britaniyada esa «Ta'limni isloh qilish to'g'risida»gi qonun (1988 y)ga muvofiq tabiiy fanlarni o'qitish majburiy bo'lmagan boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktablarda tabiiy fanlarni majburiy maktablarning barcha o'quvchilari uchun majburiy qilib belgilangan.<sup>1</sup>

Shuningdek, 80- yillarda GDRning ayrim erlarida Asosiy maktabning o'rta sinflarida matematika fanlarini o'rganish haftasiga 4-5 soat o'quv soatiga ko'paytirilgan. Tabiiy bilimlarni oshirishga intilish nafaqat rivojlangan mamlakatlar uchun, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham xarakterlidir. Shu o'rinda xind pedagogi U.S.Choudxarining quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joiz:

- «Dunyo tabiiy fanlar inqilobidan qayg'uradi. Uning markazi industrilashgan davlatlar bo'lsa, hayotning barcha jabhalarida uning ta'sirini sinab ko'ruvchi rivojlanayotgan mamlakatlardir».

Tabiiy ilmlarni oshirish avvalambor diqqat e'tiborga muhtoj bo'lgan davlatlarga taalluqli bo'lgan predmetlar Shimoliy va Markaziy Yevropada ta'lim mazmuni egallagan, ya'ni oshirilgan, yoki MDH davlatlarida kamaytirilgan. Afrika mintaqaviy konferensiyasida (1982 yil) shunday deyilgan: «qit'adagi mamlakatlar tabiiy bilimlarni yangilash uchun yangi dastur va darsliklar tayyorlamoqdalar. Shuningdek, asosiy e'tibor (o'qitishda) o'quvchilar kundalik xayot bilan bog'liq bo'lgan hayotiy bilimlarni oshirishlarida deyilgan.

Buyuk Britaniyada matematikani o'qitish komissiyasining dokladida (1988 y) bu fan sohalari quyidagilarga ajratildi: maktabda

o'rganish uchun zarur bo'lgan: hisob, algebra, geometriya, statistika va ehtimollar nazariyasi, algoritm, elementar dasturlash kabilar.

Mualliflar o'z nutqlarida matematikaning hayot-mehnat faoliyati uchun zarur bo'lganlariga asosiy e'tiborni qaratgan.

80-90- yillar dunyo mamlakatlari ta'lim mazmunidagi islohotlarda tabiiy fanlarning integrastiyalashuvi vujudga kelgan.

Integrastiyalash modeli o'quv materiallarining yuqori darajada integrastiyasi, masalan, «energiya» mavzusi fizika fanida o'tiladigan bo'lsa, biologiya va ximiya fanlarida boshqa mavzular orqali bir-biri bilan bog'langan.

Shuningdek, mazkur uchta fanlar ketma-ketlik asosida o'rgatilgan. Ya'ni biologiya, fizika, ximiya alohida o'rgatilgan, lekin bir vaqtda emas.

Tabiiy bilimlar kursidagi bu kabi yondashuvdan Yaponiya'ning kichik o'rta maktablarida foydalanilgan.

Amerika pedagogi R.Fogarti fanlar integrastiyasining o'nta variantini ajratgan.

Integrastiyalashtirishning oliy darajasi sifatida har xil fanlar sohasidagi maktablarning yuqori sinflari, oliy o'quv yurtlari yoki aspiranturalar uchun tayyorlangan o'quv loyihalari, tadqiqotlardagi, yangi axborotlardan foydalanish hisoblangan.

To'liqsiz o'rta maktablar uchun «Tabiiy bilimlar» integrastiyasining yuqori ko'rinishiga Norvegiya misol bo'la oladi.

Norvegiyada tabiiy bilimlarni o'rgatishning asosiy maqsadi quyidagicha, ya'ni o'quvchilarning kuzatish va amaliy ishlarida tasavvur va mustaqillik fazilatlarini rivojlantirish, bolalarni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash, tabiiy resurslar va texnologiyalardan foydalanishda javobgarlik his-tuyg'ularini shakllantirish, sog'liqni saqlash va shu to'g'risidagi bilimlarni olish, shuningdek tabiiy fanlar va texnologiyalar madaniyatning bir qismi sifatida o'quvchilarni elementar izlanishlar olib borishga o'rgatishdan iborat bo'lgan.

Angliyada keng tarqalgan to'liqsiz o'rta maktablar uchun darsliklarda «Tabiiy fanlarni o'rganishda» tahliliy mavzular: «Ixtirochi olim to'g'risida ocherk», «Er», «Rang-barang hayot», «Katak», «Molekula», «Atom», «Energiya», «Biosfera», «Aholi» «Muloqot», «Koinot» kabi mavzularda o'rganilgan.

Bu kurslar tabiiy fanlar haqidagi asosiy tushunalari, amaliy xarakterlari bilan norvegiyaliklarning o'quv kurslariga yaqindir.

Demak, ko'plab mamlakatlarda maktab o'qituvchilari tabiiy fanlarni integrastiyalashgan kurslarda o'rganishadi. Shuningdek, huddi o'sha o'quvchilar mazkur fanlarni qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab alohida o'rganishlari mumkin bo'lgan.

Buning uchun to'liq o'rta maktablarda chuqurlashtirilgan kurslar va dasturlar mavjud. Masalan, Fransiya, sobiq GDRda tabiiy bilimlar alohida kurslarida o'rganiladi. Fransiyada bir vaqtning o'zida (to'liqsiz maktabda) «Fizika, ximiya» kabi predmetlarning integrastiyasi mavjud.

90-yillarda tabiiy va gumanitar fanlardan birlashgan materiallarni yaratish fikrlari birinchi o'rinda jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Bu fanlarning tabiiy yo'nalishlarini insonparvarlashtirishdan guvohlik beradi. Birinchi o'rinda bu yo'nalishdagi ta'limning vazifalari tabiat uchun javobgarlik, tabiiy resurslarni o'rganishda sotsial muammolarni o'rganish va hokazolardan kelib chiqqan (ilgari o'quv hujjatlarida bunday tartib qoida tariqasidagina joylashtirilar edi).

Ikkinchidan, yangi paydo bo'lgan ko'plab o'quv kurslari o'zining yangi vazifasiga ega bo'ldi.

Uchinchidan, yaratilgan maxsus kurslar tabiiy va ijtimoiy fanlar integrastiyasidan kelib chiqdi. Masalan, AQSHning qator olimlari «Fan-texnologiya-jamiyat» kabi konstepstiyalardan kelib chiqib, jamiyatga, fan-texnika taraqqiyotiga yordam beruvchi maxsus bilimlarni tinglovchilarga taqdim etadilar, ya'ni texnika va jamiyatning o'zaro aloqalari muammolari, olimlar haqidagi dalillar, tarix to'g'risidagi fanlarning ochiqligi va hokazo.

Shunday qilib, dunyo malakatlaridagi (ayrim) ta'limni standartlantirish muomosining vujudga kelishi, bu jarayonda har bir davlatda o'ziga xos, ya'ni mamlakat ichidagi ta'lim sohasidagi muammo va extiyojlardan kelib chiqib bu jarayonning amalga oshirilganligiga amin bo'ldik.

Oxirgi yuz yillikda diniy ta'lim berishning muammolari vujudga kelgan edi. Munozaralarning asosiy mavzusi bu o'smir va o'g'il bolalar uchun maktabda diniy ta'lim berish mumkinmi yoki yo'qmi degan savol edi. o'tgan yuz yillikda bu masala g'arb mamlakatlarida dolzarb masalaga aylanishga oz qolgan edi. XX asrda davlatlar ikkita jahon urushini boshidan kechirgandan so'ng bu muammoni echishga urindilar. Bu sohadagi asosiy islohatlar Afrikada 1910-1930 va 1962 yillarda, Angliyada 1944-1988 yil-

larda, Belgiyada 1968 yillarda, Germaniyada 1949 yilda, Turkiyada 1924, 1933, 1949-1982 yillarda amalga oshirildi.

Ma'lumki, Angliya Yevropaning eng taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri sanaladi. Angliya davlati 1988 yilda ta'limni isloh qilish uchun qonun qabul qilgan. Unda ta'lim muassasalarida xristian va boshqa dinlarni o'rganish yo'lga qo'yilgan. Xristianlikni o'rganish Islom, budda va boshqa dinlarni o'rganish bilan qo'shib olib borilgan.

Yuqoridagi dinlarning birgalikda o'rganilishida ularning qaysi biri xaq din, yoki qaysi birisi noto'g'ri degan ma'noda emas, balki bu metod (ya'ni birgalikda o'rganish) har xil dinga itoat qiluvchilar mavjud bo'lgan mamlakatda jamiyat extiyojlarini qondirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng ko'pchilik g'arb marifat-parvarlari ta'limni dinning tasiridan to'la ozod qilish tarafdori bo'lib chiqishgan. Lekin Angliya rasmiy doiralari bu fikrni qo'llab quvvatlamadi. Aksincha, ular ta'limni xristian kadriyatlarini bilan bog'ladi.

Bugungi kunda Angliyada davlat tomonidan qurilgan cherkov mavjud bo'lib, Qirolicha cherkovning boshlig'i hisoblanadi (ya'ni mamlakatdagi ramziy ma'noda bo'lsa ham birinchi siyosiy shaxs bo'lishiga qaramasdan).

Shunday qilib Angliyada cherkov maktabining ikki xil ko'rinishi mavjud:

Birinchi, davlatdan yordam oladigan cherkov maktabi (Loluntary-aided shcool) bu maktablarda ta'limning 3/2 qismi cherkovda olib boriladi, 3/1 qismi esa, davlat maktablarida o'qitish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi, davlat nazorati ostidagi cherkov maktablari ((Loluntary-Controlled shcool): bu maktablarda ta'limning 3/1 qismi cherkovda, 3/2 qismi davlatga qarashli maktablarda olib boriladi. Ular to'liq davlat mablag'i bilan ta'minlanadi.

1988 yilda esa, Din to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi natijasida maktab dasturlari uch qismga ajratildi:

- 1) Maxsus predmetlar (matematika, ingliz tili va hakazo);
- 2) Asosiy predmetlar (tarix, geografiya, texnologiya, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va hakazo);
- 3) Fundamental predmetlar (Ta'lim to'g'risidagi qonun bu guruhga faqat diniy ta'limni kiritdi).



Ta'lim vazirligi qolgan barcha predmetlardan (diniy ta'limdan tashqari), imtihon shakllari va hakazolarni yaratish huquqiga ega bo'lgan. Diniy darslar boshqa asosiy predmetlar qatoriga kirmagan bo'lsa ham, ular bir xil maqomga ega bo'lgan. Diniy ta'limning dasturi, maqsadi, shakli davlat tomonidan yaratilmaydi, lekin boshqa darslar bilan bir xil maqomga egadir.

1988 yildagi ta'lim islohati natijasida Angliya'ning o'rta va boshlang'ich maktablarida islom dini ham o'qitila boshlandi. Ma'lumki, diniy ta'lim bu din to'g'rimi yoki noto'g'rimi degan savolga javob bermasligi kerak, shuningdek, diniy ta'limning dasturi va darsliklari ham odamlarning qaysi dinga ishonishi yoki ishonmasligiga qarab tuzilmasligi lozim.

Germaniya Federastiyasining Konstitutstiyasi (7-moddasida)da rasmiy maktablarda diniy ta'lim majburiydir. Yuqoridagi qonun moddasiga muvofiq ta'limni boshqaruvchi provenstiyalar ushbu ta'lim uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar.

Shuning uchun Federastiya Konstitutstiyasining ta'lim to'g'risidagi moddasi provinstitiyalarning konstitutstiyalarini nazorat qiladi. Konstitutstiya'ning 7-moddasida shunday deyilgan:

a) barcha ta'lim va o'qitish davlat nazoratidadir;

b) diniy darsga bolaning borish yoki bormasligi uning tarbiyasi bilan shug'ulanuvchi (ota-ona)larning xoxishiga bog'liqdir.

Germaniya konstitutstiyasi 7-modda, 1-bandiga asosan ta'lim va bilim olishni nazorat qilish javobgarligi davlatning zimmasidadir deb belgilangan. Ushbu qonun moddasi shuningdek, alohida shaxs yoki tuzilmalarning maxsus maktablar ochish xuquqini himoya qiladi.

Belgiya esa Yevropa Kelishuviga a'zo davlat bo'lib, o'zining konstitutstiyasida dinga munosabatni chegaralagan ya'ni Inson xuquqlari Umumjahon Deklarastiyasi, Inson huquqlari Yevropa Kelishuvi qoidalariga rioya qilgan holda vijdon erkinligi va diniy e'tikod g'oyalariga alohida e'tibor bergan.

Inson xuquqlari Umumjaxon Deklarastiyasining 18,26 moddalari Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Kelishuvining 9-moddasiga va unga qo'shimchaga muvofiq, diniy erkinlik va diniy ta'limni ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur kelishuvlarga muvofiq mamlakatda yashaydigan chet elliklar emigrantlarga diniy e'tiqod erkinligi, o'zlarining diniga taalluqli ta'lim olish xuquqi berilgan.

Belgiya ta'lim tizimida maktablar 4 guruhga bo'linadi:

- a) munistipial maktablar;
- b) davlatga qarashli maktablar;
- v) maxsus maktablar.

Diniy ta'lim bu uchta tipdagi maktabda ham majburiy va dindan Belgiya davlati rasmiy tan olgan (katolik, xristian, protestant, islom, iudizm) dinlar o'qitiladi.

Bundan tashqari, cherkov maktablari katolik cherkovining muassasasi hisoblanardi. Shuningdek, Belgiyada cherkov maktablarida Islom dinidan ta'lim berishga ruxsat berilmaydi.

Barcha maktab o'quvchilari (maktabning barcha tiplarida) diniy ta'limning 5 ta tipidan birini tanlashi shartdir. Diniy ta'lim bolalarga 2,5 yoshdan, bolalar bog'chasidan boshlanadi. 1980 yilning oxirlarida xristian katolik dini 1-2 sinflarda haftasiga 4 soat, 3-4 sinflarda 3 soat, 5-6 sinflarda va litseylarda 2 soat qilib belgilandi. 80-yillarning oxiridan to hozirigi kunga qadar boshlang'ich va o'rta sinflarda, shuningdek, litseylarda diniy darslar haftasiga 2 soat, bir qancha diniy maktablarda 3 soat qilib belgilangan.

Maktab o'quvchilari ibodatni maktab oshxonasida, yoki umumiy zalda qattiq ovozda yoki ichida qilishlari mumkin. Maktab ma'muriyati qandaydir diniy anjumanlarni o'tkaza olmaydi. Ammo qandaydir diniy guruh maktab xududini ijaraga olmoqchi bo'lsa (anjuman o'tkazish maqsadida) maktab raxbariyati ma'lum bir shartlar bilan ijaraga berib turishi mumkin.

Maktab o'quvchilari diniy axborotlarni olishga (tarqatishga) xaqli, lekin maktab o'quvchiga diniy bilim berishga majbur emas. Oliy sudning qabul qilgan qaroriga asosan ta'lim din tarixini o'rgatmasdan, dinning fuqarolar dunyoqarashiga ta'sirini o'rganmasdan tugashi mumkin emas. Diniy fanlarni o'rganmasdan san'at, musiqa, adabiyot va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish mumkin emas. Maktabda din tarixi, diniy ta'limotlarning qaramaqarshiligi to'g'risidagi bilimlar beriladi. Shuningdek, Injil va uning mazmuni kabilar o'rganiladi.

O'rta maktablarning diniy to'garaklari ham shunday xuquqqa ega. Ular diniy yig'inlarni darsdan tashqari lekin maktabning ish vaqtida o'tkazishlari mumkin. o'quvchi bo'lmagan (mazkur maktabda) kishilar o'quvchilar bilan birga yig'inda ishtirok eta olmaydi.

Davlatga qarashli maktablarda o'quvchilar diniy bayram yoki yig'inlar to'g'risidagi axborotlarni tarqatishlari mumkin. Mazkur bayram tadbiri diniy shaklda o'tishi mumkin.

Unda o'quvchilar o'zlarining diniy qarashlariga javob beradigan tarzda kiyinishlari mumkin, maktab esa ularni u yoki bu kiyimni kiyishga majbur qila olmaydi.

Turkiya mamlakati ta'lim sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak mamlakatda respublika o'rnatilgach diniy ta'lim masjid, madrasada, sibyan (o'smir yigitlar maktabi)da o'rgatiladigan bo'ldi. Turkiya respublika deb e'lon qilingach, Tavxidi-Tadrisat Qonuni (№ 430 3 mart 1924yil) bilan ta'lim tuzilishi Maorif Boshqarmasiga qarashli bo'ldi. Mazkur qonuning 4-moddasida shunday deyilgan: maorif boshqarmasi Universitetda yuqori malakali diniy kadrlarni tayyorlash maqsadida bitta fakultet tashkil etsin.

1975-76 o'quv yilidan litseylarning oxirigi sinfida va o'rta maktablarda o'quvchilarning xohishiga binoan diniy darslar o'tiladigan bo'ldi.

Hozirgi kunda ham diniy dars boshlang'ich maktabning 4-5 sinfida, o'rta maktabning 1,2,3 sinflarida haftasiga ikki soatdan, shuningdek, litseylarning 1,2,3 sinflarida esa haftasiga bir soatdan o'tiladi. Litseyda bunday darslar faqat 2 ta chorakda o'tkaziladi. Shuningdek, barcha demokratik davlatlarda diniy ta'lim ikki sababga ko'ra zarur deb hisoblanadi. Birinchi, vijdon erkinligi va ta'lim.

Ikkinchi, «jaholatga qarshi ma'rifat» degan g'oyani keltirib o'tish mumkin.

«Darhaqiqat, dunyoni jaholat egallasa nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlik, inson ozodligi barcha barchasi barham topadi» degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov<sup>1</sup>.

Shotlandiya – Buyuk Britaniya'ning bir qismi sifatida barchamizga ma'lum, huquqiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, mustaqil davlatdir.

Shotlandiya'ning ta'lim tizimini o'rganar ekanmiz bu mamlakatda davlatga qarashli bo'lgan 2313 ta boshlang'ich, 403 ta o'rta maktab, shuningdek, taxminan 73-75 ta xususiy maktablar mavjud. Xususiy maktablarda 5 % bola o'qishadi. Bundan tashkari, 30 ga yaqin maktab-pansionatlari mavjud.

Britaniya'ning xususiy maktablari (shuningdek, Shotlandiya'ning ham) ushbu jihatlari bilan ajralib turadiki, ularda

dasturlar ko'proq yakka tartibda va rang-barangdir, bolaning qobiliyati, qiziqishlarini rivojlantiradigan tarzda tuzilgan. horijliklar va xususiy maktablar uchun ingliz tilidan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

Yirik birlashgan xususiy maktab bu Shotlandiya'ning Mustaqil maktab Kengash (SCIS) bo'lib, u maktablar to'g'risida va unga qabul to'g'risidagi axborotlarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Bunda maktabning an'anaviy ta'lim tizimi va ajratilgan (Shotlandiyada 12 ta qizlar maktabi va 6 ta o'g'il bolalar maktabi mavjud) tipini tanlash mumkin. Shotlandiyada qo'shma ta'limning ko'plab o'z tarafdorlari mavjud.

Masalan, Avliyo Monarda kolleji mashhur qizlar maktabi o'rnida faoliyat yuritadi va endilikda qizlar bilan o'g'il bolalar birgalikda o'qishadi. Shuningdek, Edenburg qizlar akademiyasi ham oxirgi sinflarda o'g'il bolalar bilan birlashishlari mumkin.

Barcha xususiy maktablar ro'yxatga olinishi uchun Ta'lim va industriya Davlat departamenti (SOEID) ga borishi shart. Mazkur tashkilotning nazoratchilari muntazam ravishda o'quv sifatini va shartlarini nazorat qilib turishadi.

Xususiy maktablarning ko'pchiligida maxsus mukofot sifatida stipendiya berishadi. Bu esa bolalarning badiiy va sportga bo'lgan qobiliyat-larining oshishiga olib keladi.

Shotlandiyada kasbiy ta'lim va akademik ta'lim mavjud bo'lib, uni majburiy o'rta maktabning to'rtinchi sinfini tugatgach egallash mumkin. Mamlakatda 46 ta kollej mavjud bo'lib, unda mexmonxona ishi, turistik biznes, buxgalterlik ishi, moliya, axborot texnologiyasi, marketing, til, dramaturgiya, dizayn va shu singari badiiy mutaxassisliklar o'qitiladi.

Shotlandiyada bolalarning majburiy ta'limi 1496 yildan boshlangan. Mamlakatda 23 ta Oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, ularning eng qadimiysi Sent-Endryus (University of Andrews) hisoblanadi (1410 yilda Oksford va Kembrij universitetlaridan keyin ochilgan).

Shotlandiyalik bolalar maktabga 5 yoshdan 16 yoshgacha borishga majbur. Shu bilan birga, ko'plab bolalarga bilim berish to'rt yoshdan boshlanadi, ya'ni ularni o'z ota-onalari tayyorov sinf(re-school)lariga topshirishadi. Unda rasm chizish, raqs, matematika asoslari, o'qish va yozish o'rgatiladi. 1996 yilda bunday sinflarda 60 mingga yaqin shotlandilik bolalar o'qishgan.

Shuningdek, 5 yoshdan 12 yoshgacha bolalar boshlang'ich maktab (primary school) ga qatnashadi. Unda o'qish asoslari, yozish, matematika, informatika, tabiiy fanlar, san'at, din, axloq kabilar o'rgatiladi. 15 yoshida esa maktab o'quvchilari ta'lim haqidagi sertifikat Scottish Certificate of Education (SCE Standard Grade) uchun imtihon topshirishadi. Bu sertifikat esa Shotlandiya'ning Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish huquqini beradi. Shunday qilib, shotlandiyaliklar maktabni tugatib, o'qishga topshirishi va xuddi bizdagi kabi 16-17 yoshida oliy o'quv yurti talabasi bo'lish huquqiga egadirlar.

Shotlandiya'ning ko'plab kollejlari talabalarining 14 ta universitetdan birortasiga ikkinchi yoki uchinchi kurslarga o'tkazish (o'xshash bo'limlarga) to'g'risida kelishuvga egalar.

Statistika ma'lumotlarga qaraganda, oliy o'quv yurtlariga 50% shotlandiyaliklar topshirishadi. Mamlakatda xorijiy mamlakatlardan kelganlar va ko'plab inglizlar (25 % talabalar) oliy o'quv yurtlarida tahsil oladilar.

Oliy o'quv yurtlarining alohida guruhlarini maxsuslashtirilgan oliy maktablar tashkil etadi. Masalan, Glazgo universitetida musiqa, Galashildz universitetida engil sanoat kolleji mavjud.

Shuningdek, Britaniya oliy o'quv yurti (Oren University)da masofaviy ta'lim olish mavjud bo'lib, unda ko'plab rang-barang dasturlar o'rin olgan. Unda dunyoning turli mamlakatlaridan 12 ming talaba o'qishadi.

Ta'lim olish pullik bo'lib (oliy ta'lim), bir-biridan farq qiladi. Uni oddiy qilib ikkiga bo'lish mumkin: kurslar, laboratoriyada ishlash (laboratory based courses) va boshqalar (non - laboratory based courses).

Masalan, Straydklayd universitetida 1997-1998 o'quv kursi birinchi tip uchun 10 880 funt, ikkinchi tip uchun esa, 6290 funt qilib (yiliga) belgilandi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish – 4 yil. Oliy o'quv yurtiga topshirish uchun arizalar sentyabrdan dekabr oyigacha, ta'lim 37-38 hafta, oktyabr oyidan iyunning o'rtalarigacha davom etadi.

Ko'plab oliy o'quv yurtlarida biznes maktablari mavjud. Ayrim oliy o'quv yurtlari 4 yillik (ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini aralashtirgan) maxsus dasturlarni taklif qilishadi. Misol uchun, Glazgo universiteti allaqachon oliy ma'lumotga ega bo'lganlar uchun dastur ishlab chiqqan. U ikki moduldan iborat: universitetda

o'qish (20 hafta) va mahalliy kompaniyalarda amaliyot (stajerlar uchun 28 hafta). Shuningdek, ilmiy izlanishlarga ham katta e'tibor berilgan. Masalan, Edinburg universitetining yillik daromadi – 100 mln funtni tashkil etsa, 250 mln funtni yuqoridagi maqsadga sarf qiladi.

Shotlandiya universitetlarining muhim jihatlaridan biri talabalarga ish topishda yordam berishlaridir. Buning uchun esa har bir oliy o'quv yurtida Carers Servise xizmati mavjud bo'lib, u xuddi shu masala bilan shug'ullanadi. Masalan, Roberd Gordan universiteti sekretari Devid Keldvel ish bilan band bo'lishning yaxshi ko'rsatkichi sifatida har bir bitiruvchining bitirishdan olti oy oldin ishga joylashishlarini ta'kidlagan. O'zbekistonda ham bitiruvchilarni ishga joylashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Yaponiya ta'lim tizimida majburiy ta'lim to'qqiz yillik bo'lib, o'rta ma'lumot olishning oliy bosqichi majburiy hisoblanmasa ham uni 95% o'rta ma'lumot oluvchi bitiruvchilar tugallashadi. Maktablar xususiy, davlatga qarashli va milliy (universitet uchun yoki o'qituvchilar kollejlari uchun baza bo'lgan) maktablardan iborat. Maktablarda (har bir okrugda har xil ya'ni) o'zlashtirish, o'zlashtirmasligiga qarab o'quvchilar qabul qilinadi.

Oliy o'rta maktabda har xil variantlardagi dasturlarini taklif qiladi: umumiy, kasbiy va hokazo. Ta'lim mazmuni va uning sifatiga davlat nazorati o'rnatilgan. Oliy ta'lim tizimi Amerika oliy ta'lim tizimini eslatadi, lekin bir oz markazlashgan xarakteri bilan ajralib turadi. Yaponiyada 80 % oliy o'quv yurtlari xususiy (bu asosan ikki yillik kollejlarga taalluqli)dir. Yaponiyada hammasi bo'lib 96 ta milliy universitetlar (1949 yildan keyin milliy ta'lim haqidagi qonunga binoan asos solingan) mavjud.

Universitet tarmoqlari: milliy universitetlar, hududiy universitetlar, xususiy universitetlarga bo'linadi (eng mashhurlari Tokio, Kioto, Vaseda).

Universitetlar va universitet kollejlari umumiy ta'lim berishadi, ya'ni chet tilidan tayyorlash, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, shuningdek, yo'naltirilgan tayyorlov.

Universitet bo'lmagan tarmoqlarga: kichik (junior) kollej, 2 yoki 3 yil ta'lim beruvchi (asosan ayollarga taalluqli, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfini tugatishi bilan turmushga chiqqan) o'quv yurtlari kiradi.

Texnika kollejlariga umumiy to‘qqiz yillik maktabni tugatgandan keyin qabul qilinadi va 3 yil mobaynida to‘liq o‘rta ma‘lumot beriladi, kasbga tayyorlanadi, texnika universitetlarining tegishli bo‘limlariga topshirish imkoniyati beriladi.

Shuningdek, bir yildan ikki yilga tayyorlovchi maxsus kasb maktablari mavjud.

Yapon ta‘limining muhim jihatlaridan biri oliy o‘quv yurtiga kirishda imtihon topshirishdagi qattiq talabdir. Oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun birinchi o‘rinda, yapon tilini bilish va o‘rta ma‘lumot haqida diplomning asl nusxasi talab qilinadi.

Bu dipomni esa tayyorlov kurslarida yoki o‘rta maktabning oliy bosqichida (9 yillikdan keyingi) olish mumkin.

Shuningdek, oliy o‘quv yurtiga topshirish uchun texnika kollejini tugatganligi haqida diplom ham bo‘lishi mumkin. Xorijliklar uchun xizmat ko‘rsatuvchi o‘quv yurtidan 12 yillik yapon o‘rta ma‘lumotini olganligi haqidagi guvohnomaning ekvivalentini olish mumkin (International Students Institute in Tokio u Kansai, International Students Institute in Osaka). Barcha xorijlik abituriyentlar maxsus testdan o‘tishi kerak, ya‘ni oliy o‘quv yurtida ta‘lim olish qobiliyatini tasdiqlovchi va maxsus til bo‘yicha test topshiriladi.

Umumiy imtihon Tokiodagi Xalqaro Ta‘lim Uyushmasi tomonidan o‘tkaziladi (har yili dekabrda). Test natijasiga ko‘ra abituriyentlar o‘zlariga tegishli hujjatlar bilan oliy o‘quv yurtlariga jo‘natiladi.

Xorijlik abituriyentlar maxsus dasturlar asosida yoki magistratura va doktorantura bo‘yicha o‘qishlari mumkin. Bu dasturlar esa yapon tilini bilishni talab qilmaydi (o‘qish ingliz tilida ham olib boriladi). Lekin moliyaviy (o‘zi tomonidan yoki yordam dasturidagi grant asosida) mablag‘ talab qiladi. Moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar Yaponiyada har xil davlat, milliy, xususiy fondlar hisobidan olinishi mumkin.

Universitet dasturlari bakalavrlar, magistrlar va doktorantura uchun tuzilgan.

70- yillarda yapon oliy ta‘lim xalqaro aloqalarda to‘xtovsiz yuqori chiqib bordi. Hozirgi kunda yapon oliy o‘quv yurtlari xalqaro integrastiyada har xil shakllar:

a) chet elda bilim olish uchun maxsus dastur, ya‘ni yapon oliy o‘quv yurtlarining umumiy ta‘lim kursini o‘z ichiga olgan;

- b) xalqaro ingliz tili dasturlari (talaba almashish maqsadidagi);
- v) ta'lim bilan tanishuv dasturlari (3 oylik);
- g) chet mamlakatlar oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari (kelishuv, o'qituvchi almashish);
- d) kollejlarda chet mamlakatlar bo'limi (Yaponiya va boshqa davlatlarda) va birlikdagi o'quv yurtlari dasturlari.

Angliyada esa, ta'lim 5 yoshda boshlanadi va 11 yoshgacha boshlang'ich maktabda o'qitiladi. 11 yoshdan 16 yoshgacha esa, o'quvchilar o'rta maktabda, umumta'lim, chuqurlashtirilgan predmetlarni o'rgatish va o'rta maxsus ta'lim beriladi.

16 yoshdan keyin o'quvchilar Oliy o'quv yurtlariga topshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlarining maktab va kollejlarda olishlari mumkin.

Oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi lavozimi - assistent, ma'ruzachi, katta ma'ruzachilardan iborat.

Talabalarga bitta semestr davomida 4 ta fan o'tiladi. har bir fandan haftasiga 2 ta ma'ruza o'tiladi (45 minutlik), semestr esa 15 haftadan iborat, semestr oxirida har bir predmetdan yozma ravishda imtihon topshiriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Angliya oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining ishga joylashishida ish tajribasi, darsda o'zlashtirishga nisbatan muhim hisoblanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtini bitirgan talabalar birinchi marotaba ish qidirishganda ularning bir-ikki yillik ish staji borligiga qarab tanlashadi. Agar shunday stajga ega bo'lishsa, ularda foydaliroq kompaniyalarda ishlash imkoni paydo bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi davlat standarti (hukumat tasdig'idagi) Angliyada mavjud emas. Ta'limning mazmuni ish beruvchining talabidan kelib chiqadi. Oliy o'quv yurtlari ta'lim mazmuni to'g'risida qaror qabul qiladi va unga javobgardir. Bitta fanning mazmuni har bir oliy o'quv yurtida bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyada asosiy fanlarni o'qitishning sifatiga umumiy tashqi reyting baholash tizimi mavjud.

AQSH Ta'lim Departamenti esa (1998 yil) «har qanday joyda har qanday vaqtda Ta'lim (Learning Anytime Anywhere parterships - LAAP) dasturini ishlab chiqdi. Dastur oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hisoblanadi va Internet orqali masofaviy ta'lim olishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlari va texnika kompaniyalari unga mablag' ajratadi.



Mazkur dasturni qabul qilish natijasida AQSH Kongressi «Oliy ta'lim to'g'risida»gi (1965 yil) Qonuniga o'zgartirishlar kiritdi, maqsad masofaviy ta'limdagi yangi texnologiyalarni rag'batlantirishdan iborat. Tanlov ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchisida 653 ariza qabul qilingan, shuningdek 3-5 yil muddatga moliyaviy mablag' bilan taminlanishga 29 ta loyiha sazovor bo'lgan(1999yil).

Shimoliy Irlandiyada esa ta'lim 4 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich maktabda o'qishdan boshlanadi. Shimoliy Irlandiyada mustaqil maktablar (Voluntary grammar schools) davlat ta'lim tizimining bir qismi xisoblanadi. Xususiy maktablarda 7% ga yaqin britaniyalik bolalar tahsil olishadi. o'qish uchun to'lov maktabning turiga va o'quvchisining yoshiga bog'liq. Masalan, kunduzgi maktabda 1-o'quv yili uchun unga 400 funt sterling to'laydi, maktab pansionatining yuqori sinfida o'qish uchun esa 9000 funt sterlingacha to'lash kerak bo'ladi. Shuningdek, xususiy maktablardagi alohida kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun esa davlat mablag' ajratadi.

Hozirgi kunda Angliya, Uels va Shotlandiyada 2500 ga yaqin xususiy maktablar mavjud. Irlandiyada Public-Schools, ya'ni 200 ta eng yaxshi maktab-pansion (o'g'il bolalar uchun)lar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi uzoq tarixga egadir.

Xususiy maktablarga o'qishga topshirmoqchi bo'lgan bolalar tayyorlov maktablariga (Preparatory schools) qatnashadi (odatda 7 yoshdan 12 yoshgacha). Bu tayyorlov maktablari ham (boshqa maktablar kabi) o'g'il bolalar va qiz bolalar maktablariga bo'linadi.

Germaniya'ning ta'lim sohasini o'rganar ekanmiz bu davlatda majburiy ta'lim 6 yoshdan (mahalliy fuqarolar va xorijliklar uchun) qilib belgilangan. Lekin xuddi mamlakatimizdagi singari bolalar ayrim hollarda 7 yoshdan o'qishga qabul qilinadi.

O'quv yilining boshlanishi Germaniya erlarida har xil paytda boshlanadi. Masalan, Gamburgda yozgi ta'til 19 iyuldan 29 avgustgacha bo'lsa, Tyuringda 28 iyundan 8 avgustgachadir. Majburiy ta'lim umumiy yoki xususiy maktablarda amalga oshiriladi.

Asosiy ta'lim hisoblangan umumiy ta'lim o'quvchilarga umumiy ta'limning asoslarini o'rgatadi. Jumladan, nemis tili, matematika, tabiiy fanlar, jamiyatshunoslik, chet tili (asosan ingliz

tili). Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktab ta'limining oxirgi yillarida esa, bitiruvchilar kasb-hunar tayyorgarligini korxonalarda o'tashadi. Mazkur maktablar asosiy maktablar deb yuritiladi. Undan tashqari, gimnaziya va Real maktablar o'rin olgan bo'lib, bu yerda bolalarga kengaytirilgan umumiy ta'lim beriladi. Qoida tariqasida bu yerda o'qish 5-sinfdan 10-sinfgacha ta'lim jarayonini o'z ichiga oladi, hamda mazkur o'quv maskanini tugatgani to'g'risida guvohnoma berish bilan yakunlanadi. Shundan keyin bitiruvchilar boshqa o'quv muassasalarida, jumladan maxsus kasb-hunar bilim yurtlari, texnikumlarda o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'lishadi. Gimnaziya chuqurlashtirilgan umumiy ta'lim beradi, o'qish muddati esa, qoida tariqasida o'n yillikdir.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda maktabning «muntazam» (Tyuringiyada), «o'rta» (Saksoniyada), «ikkinchi bosqich maktab» (Saksoniya-Angelt), «mintaqaviy maktab» (Reyplend-Porald) kabi maktablar mavjud.

Nogironlar va muomala layoqati cheklanganlar uchun maxsus maktablar mavjud. Ba'zan nogiron bolalar «muntazam maktab-lar» ning maxsus sinflarida ta'lim oladilar.

Kechki gimnaziya va maktablarda ta'lim olish ta'lim oluvchi katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan, ularning oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari topshirishlari va xohlagan oliy o'quv yurtiga kirib o'qish uchun imkoniyat beradi, hamda 2- bosqich o'rta maktabni tugatganligi to'g'risida guvohnoma yoki attestat berish orqali yakunlanadi. Ishlayotgan katta yoshdagilar uchun esa attestat olish uchun imtihon topshirish va tayyorgarlik ko'rishlari uchun maxsus kurslar tashkil etilgan.

Germaniya'ning ta'lim sohasidagi, mana shu joyida shuni ta'kidlash joiz, ya'ni, mamlakatimizda ham xuddi shu singari katta yoshdagilar maktablarini tashkil qilish lozim. Ma'lumki, sobiq SSSR hukimronligi yillarida ko'plab hunar-texnika bilim yurtlari mavjud edi. Mazkur bilim yurtlariga 8 yillik (tayanch) maktablarni tugatgan o'quvchilarni majburan jo'natish xollari ko'plab bo'lgan. Buning natijasida esa mazkur bilim yurtlarida bilimning sayozligini ko'rgan o'quvchilar bilim yurtlariga o'qishga qatnashmay qo'yishgan. Natijada ular na oliy o'quv yurtiga kira olishadi na biron bir kasbga ega. Xozirgi kunda shunday katta yoshdagilar

uchun kasb-hunar kolejlariga, yoki akademik litseylarga kirib o'qish imkoniyati yaratilishi lozim.

Germaniyada kasb-hunar ta'limida o'qish asosan ishchi o'rinlarini hisobga olgan holda va ishchi xodimlarga bo'lgan talabga asoslanib tashkil etiladi. Ushbu ta'lim turi 2 yildan 3,5 yilgacha bo'lgan ta'limni o'z ichiga oladi. o'quvchilar o'qish davomida pul mukofotlari bilan mukofotlanib boriladi.

Ayniqsa, moliya sohasi bo'yicha ta'lim uchun korxonalar va davlat katta miqdorda mablag' sarflaydi.

Germaniyada o'qituvchilari haqida so'z yuritganda shuni takidlash joiz, ya'ni Germaniya'ning har bir tur maktabi o'zining maxsus bilimga ega bo'lgan o'qituvchilariga ega. Bo'lg'usi boshlag'ich va asosiy maktab o'qituvchilari qoida tariqasida 7 semestr o'qishadi, ba'zan 9 oygacha uzaytirilgan bo'lishi ham mumkin. O'qish yakunida bo'lg'usi o'qituvchilar 1-davlat imtihonini topshirishadi. Keyin esa, pedagogik amaliyotni o'tashadi (qoida tariqasida 2 yil) va keyin 2-davlat imtihonini topshirishadi.

Shu o'rinda shuni takidlab o'tish o'rinlidir, ya'ni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'limida amaliyot, amaliy tajribaga ega bo'lish birinchi o'rinda turadi. Bu juda ham muhim bo'lib hozirgi kunda respublikamizda bunga yana ham ko'proq e'tibor berish lozim. Hozirgi kunda sirtqi va kunduzgi bo'lim talabalari o'rtasidagi farqqa e'tibor beradigan bo'lsak, kunduzgi bo'limga nisbatan sirtqi bo'limlarda albatta ish tajribasi yuqori.

Germaniyada kasb-hunar ta'limining alohida ko'rinishlari mavjudki, uning ikki jihatini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi, ta'limning ko'proq qismi maktabda emas, balki ishlab chiqarish korxonalarini yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida, davlat xizmatida va hakazolarda o'tkaziladi. Ta'lim oluvchilar kasb hunar maktabiga borish uchun ishdan bo'sh vaqtlar ajratiladi. Yoshlar 3-4 kun korxonada va 1-2 kun kasb-hunar maktabida bilim oladilar.

Ikkinchi, kasb-hunar ta'limida bilim bilan ikki Institut shug'ullanadi: korxonalar va kasb-hunar maktabi. Kasb ta'limini korxonalarda o'rgatish federastiyaga qarashli, kasb-hunar maktablari esa alohida erlarga tegishlidir.

Mazkur ta'lim turi federastiya bilan erlar va boshqa hamkorlarning iqtisodiy talablaridan kelib chiqadi. Kasb turi bilan bog'liq o'qish muddati 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadi.

Hozirgi kunda esa, deyarli 1,6 mln yoshlar, deyarli 360 ta mutaxassislikni o'rganishmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda deyarli 42% yigitlar va 55% qizlar kasb o'rganish uchun kasb-hunar ta'lim muassasalariga topshirishadi. Yigitlar ko'pincha avtomexanik, elektromontyor, g'isht teruvchi, duradgorlikni tanlashsa, qizlar esa vrach yordamchisi, sotuvchilik kasblarini tanlashadi.

Turkiya davlatining ta'lim tizimlarini o'rganar ekanmiz bu mamlakatda majburiy ta'lim 6 yoshdan boshlanadi, 8 yillik majburiy boshlang'ich ta'lim deb nom olgan bu ta'lim, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishini o'z ichiga oladi. O'rta ta'lim esa boshlang'ich ta'limga asoslanib kamida 2 yillik bo'lgan oliy ta'lim beruvchi o'quv muassasalarida olib boriladi. Oliy ta'lim pullikdir, shuningdek, yaxshi o'zlashtiradigan lekin moddiy imkoniyatlari tor bo'lgan talabalarning ta'lim jarayonlari stipendiya va kredit yo'li bilan qoplanadi.

Turkiya ta'lim sohasini o'rganar ekanmiz mazkur mamlakatning test tizimi bilan shug'ullanuvchilar faoliyatning quyidagi jihatiga e'tibor berdik. Ya'ni Test Markazi abiturentlarga oliy o'quv yurtlariga kirish uchun test topshirishiga 1 oy qolganda markazda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning o'sha markazdan chiqarilmasligi, shuningdek, test materiallarining chop etilmasligi alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning kadrlarga bo'lgan ya'ni barcha sohalarda (qurilish, elektromontyor, duradgorlik, tikuvchilik va boshqalar) mamlakatimizning kichik kadrlariga bo'lgan ehtiyojiga alohida e'tibor qaratish lozim. Barchamizga ma'lumki, respublikamizda ilk marotaba tashkil etilgan Tashxis markazlari faoliyatini kuchaytirish lozim. Zero, u o'quvchilarga va ota-onalarning ongiga ta'sir qilsin va ularga kelajagi uchun to'g'ri yo'l ko'rsatsin.

## **1.6. Jahon mamlakatlarida o'quvchilar bilimini baholash mezonlari**

Har bir mamlakat ta'lim tizimi o'quvchilar bilimini baholash tizimini qo'llashdan manfaatdor. Jahon mamlakatlarida o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini turlicha baholash tizimi amal qiladi. Avstraliyada o'quvchilarning bilimi so'zlar yordamida baholanib, bu baho o'quvchilardan sir tutiladi va o'qituvchilargagina ma'lum bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarni o'zaro qiyoslagan holda ular

iqtidorining o'ziga xos jihatlari aniqlaydi. Gretsiya ta'lim tizimida esa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi harflar yordamida baholanadi. M., D (1 - 4) (10-12,5) - "yetarli yaxshi", C (5-6) (12,5-15,5) - "yaxshi", B (7-8) (15,5-18,5) "juda yaxshi", A (9-10) (18,5-20) - "a'lo" ni anglatadi.

Demak, Gretsiyada harflar yordamida ifodalanadigan 20 balli baholash tizimi mavjud. Italiya, Ispaniya, Portugaliya kabi davlatlarda besh balli baholash tizimi mavjud bo'lib, 5 (topshirmadi) salbiy, 1 esa (a'lo)ni anglatadi. Norvegiya ta'limida 6 balli baholash tizimi amal qilib, 0-2 o'rtadan past: 3-4 o'rta, 5-6 o'rtadan yuqori demakdir. Finlyandiya ta'lim tizimida 7 bosqichli baholash tizimi amal qiladi va 4 ("yomon") salbiy, 10 esa ("a'lo") bahoni anglatadi. Islandiya, Niderlandiya mamlakatlarida 10 balli baholash tizimi qo'llanilib, 1 ("yomon") salbiy, 10 esa ("a'lo") bahoni ifodalaydi.

O'quv jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga oid xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar bilimni baholash ta'lim maqsadlari, tizimiga ko'ra xorijiy davlatlarda, asosan 3 balldan 100 ballgacha bo'lgan shkalalar orqali ifodalanadi. Ayrim mamlakatlarda baholash raqamlar o'rniga lotin harflari yordamida amalga oshiriladi.

Bunday tajribani Buyuk Britaniya va Gretsiya ta'lim tizimlari misolida ko'rish mumkin. Sonlar ortib borishi bilan o'zgartirish "yomon" dan "a'lo" darajagacha ko'tariladigan baholar bilan bir qatorda Italiya, Portugaliya, Shvetsiya, Finlyandiya, Islandiya, Ispaniya, Bolgariya kabi bir qator mamlakatlarda sonlar kamayib borish tartibida juda "yomon" dan "a'lo" darajagacha ko'tariladigan baholar bilan tavsiflanadigan tizimlari ham mavjud. Masalan "topshirmadi", "topshirdi", "a'lo darajada topshirdi" kabi. Baholash foizlarda ifodalanadigan ta'lim tizimlari ham mavjud. Ular jumlasiga Kanada va Ispaniya davlatlari baholash tizimini kiritish mumkin.

Ularning har birida nazorat turlari imtihon, sinfdan sinfga ko'chirish va yakuniy attestastiyalar o'tkazish o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Amerika qo'shma shtatlari (AQSH) ta'lim tizimida dunyoning barcha mamlakatlariga nisbatan eng ko'p maktab, kollej va universitet mavjud. Ko'pgina universitet va kollejlarda o'qishga kirishda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: katta umumiy o'rta maktabda o'quv predmetlaridan olingan

baholar miqdori; maktabda o'qigan ayrim o'quv kurslari bo'yicha olingan baholar; xususiy kompaniyalar tomonidan o'tkazilgan imtihonlar natijalari va boshqalar.

O'quvchilarning insho, bergan intervyu va maktabdan tashqari tadbirlardagi ishtiroki ham hisobga olinadi.

Mamlakatning 30 foizdan ortiqroq oliy o'quv yurtlarida talabalar imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi. O'qishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishda hech qanday imtihon yoki sinov bo'lmaydi. Lekin o'qish davrida turli tashkilotlar tomonidan standartlashtirilgan son-sanoqsiz testlar o'tkaziladi. Ularda yagona milliy imtihon va o'qitish dasturi mavjud emas. Katta o'rta maktab bitiruvchilarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini baholovchi yagona o'lchov karnegi birligi 1 kreditdir. 1 kredit deyilganda universitetga kirish uchun yo'naltirilgan 120 soatlik bitta o'qish tushuniladi.

O'rta maktabni bitirgan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirish uchun kamida 14-16 kredit to'plashi kerak. Biroq bu bitiruvchining tayyorgarlik darajasini aks ettirmaydi. AQSh ta'lim tizimida baholash harflar yordamida ifodalangan 4 balli baholash tizimi mavjud. Bunda —A"—4, —V"—3, —S"—2, —D"—1 yoki —F"—0. O'quvchi o'qishni davom ettirishi uchun uning bahosi —V"—dan kam bo'lmasligi kerak.

Buyuk Britaniya umumiy o'rta maktablarida o'quvchilarga 10 ta asosiy (Joundation subjects) predmetdan ta'lim beriladi. Ulardan 3 tasi asosiy ("Yadro" (core subjects)) o'quv fanidir. Bularga ona tili (ingliz tili), matematika va tabiiy ilmiy turkumdagi o'quv predmetlari kiradi. Asosiy predmetlarga tarix, geografiya, axborot texnologiyalari, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya va chet tillari kiradi.

Buyuk Britaniya maktablari va boshqa Evropa mamlakatlarida AQSh dagidek o'quvchilar tomonidan mustaqil tarzda tanlanadigan o'quv predmetlari mavjud. Lekin o'quvchiga taqdim qilinadigan o'quv yuklamasining qat'iy me'yorlari doirasida mazkur tanlovni amalga oshirish nazorat qilinadi.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash harflar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan, (—yomon") F,E,B,C,A (—a'lo"). Bitirish imtihonlari ikki bosqichda o'tkaziladi: a) ta'lim oluvchilar 16 yoshga to'lganda, b) 18 yoshda. Bunda ularning majburiy minimumni bajarganligi hisobga olinadi.

Imtihonlar tashqi nazoratchilar tomonidan yozma tarzda tashkil etiladi va qabul qilinadi. Imtihonlarning murakkablik darajasini o'quvchilarning o'zi belgilaydi.

Ingliz yoshlari kollej va universitetga kirish uchun 16 yoshda o'qishni tugatib, tanlagan yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha chuqurlashagan tayyorgarlikdan o'tadilar. Umumiy o'rta ta'lim - GCSE (General Certificate of Secondary Education)ni tugatganligi haqidagi hujjatni olish uchun bitiruvchilar sakkizta o'quv predmeti bo'yicha imtihon topshiradi.

Bunda etti balli A - shkala bo'yicha, eng kamida beshta predmetdan uchta yuqori A, V va S ballarini olsa, universitetga imtihon topshirishga tayyorlovchi ikki yillik maxsus sinfda o'qish huquqini qo'lga kiritadi.

Universitetga kirishga tayyorgarlik, asosan, uchta o'quv predmeti bo'yicha amalga oshiriladi. Ularning har biriga taxminan bir xil vaqt sarflanadi. O'quvchilar mazkur o'quv predmetlarini erkin tanlash huquqiga ega. Odatda ular yagona yoki o'zaro yaqin sohadagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Ikki yillik o'qishni tugatgan o'quvchilar tanlangan o'quv predmetlari bo'yicha yuqori murakkablik darajasiga ega bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajara oladilar. Shunga ko'ra mazkur yo'nalishlarda (A - Level examinations) imtihon topshiradilar. Ular mamlakatning oliy o'quv yurtlariga kirish uchun 3 ta o'quv predmeti bo'yicha yuqori murakkablik darajasiga ega bo'lgan imtihonni topshirishlari lozim.

Angliyada oliy o'quv yurtiga kirishga asos bo'ladigan imtihonlar ettita mustaqil imtihon oluvchi qo'mita tomonidan o'tkaziladi. Har bir qo'mitaga kirgan maktab o'quvchilari tomonidan imtihon savollari tanlanadi, har bir qo'mita, ikki yil davomida tayyorlanib o'qitiladigan dastur bo'yicha imtihon topshirish tartibini ishlab chiqadi.

Alohida qo'mitalar tomonidan ishlab chiqilgan imtihon materiallari va dasturlari bir-biridan farqlansa-da, imtihonlarni mamlakat bo'yicha yagona va teng sharoitlarda o'qitishni ta'minlash maqsadida erishilgan o'quv darajasini baholash va dasturlar bo'yicha ta'lim vazirligida tuzilgan Kengash SCAA (SCHOOL Curriculum and Assessment Authority) tomonidan tasdiqlangan.

Fransiya yoshlari ta'lim tizimida makgabgacha ta'lim (2 yoshdan 6 yoshgacha), boshlang'ich maktab (6 yoshdan 11

yoshgacha), kollej ta'limi (11 yoshdan 15 yoshgacha) va litsey ta'limi (15 yoshdan 18 yoshgacha) amal qiladi. Mazkur mamlakatda o'quv jarayoni o'ziga xos tarzda tashkil etilgan bo'lib, 12- sinfdan 1-sinfga qarar boriladi.

Mamlakat maktablarida 20 ballik baholash tizimi qo'llaniladi. Eng yaxshi baho "20", lekin bunday natijaga o'quvchilar kamdan-kam holatlarda erishadilar. Odatda eng yaxshi javob 17-18 ball bilan baholanadi. 15-16 ball orqali esa nisbatan pastroq baho ifodalanadi. Uch bahoda o'qiydigan o'quvchilar 10-13 balli ko'rsatkichga ega bo'ladi. 9 va undan past ballar esa o'quvchining juda yomon o'zlashtirish ko'rsatkichini ifodalaydi. Ko'plab litsey, kollejlarda o'quvchilar chorak so'ngida baholanmaydi, sinfda birinchi va so'nggi o'rinlar bo'yicha ket ma- ketlikda raqamlab chiqiladi. Fransiya ta'lim tizimida keskin noaniq baholar mavjud emas.

Baholarda ijobiy va salbiy ko'rsatkichlarning o'zi bir necha darajani ifodalaydi. Masalan, ijobiy baho olgan bolalar bon - yaxshi, tres beines bien - juda yaxshi, assez bon (bien) - etarli darajada yaxshi (yaxshi), pas mal - yomon emas tarzida so'zlar yordamida baholanadi. Past baho olgan o'quvchilarga esa mal - yomon, mauvais - yomonroq, treses mal (mauvais) - juda yomon, assez mal (mauvais) - etarli darajada yomon kabi so'zlar yordamida baho beriladi.

Maktab o'quvchilarining o'n yillik ta'limi maktab, kollejni bitirganlik haqidagi diplom olishi bilan tugaydi. Bitirish vaqtida o'quvchilar uchta fan (fransuz tili, matematika, tarix yoki geografiya)dan test topshiradi. Qolgan fanlardan esa yakuniy baho chiqariladi. Fransuz o'quvchilari majburiy 10 yillik ta'limni yakunlaganida kollej diplomiga ega bo'ladi.

Diplom uchta o'quv predmetidan olingan yakuniy natijaga ko'ra beriladi. Kollej bitiruvchilarining taxminan 85 foizi o'rta ta'limni yakunlash maqsadida bakalavr diplomi yoki attestat olishi uchun uch yillik akademik litseylarda o'qishni davom ettiradi.

Bakalavr diplomi o'quvchilarga mamlakatdagi oliy o'quv yurtlariga kirib o'qish huquqini beradi. Har yili mamlakat yoshlarining yarmi shunday diplom yoki attestatga ega bo'ladilar. Bakalavr diplomini olish uchun ta'lim oluvchilar yozma yoki og'zaki imtihon topshiradilar. Imtihonlar litsey yo'nalishlariga tegishli bo'lib, ulardan bittasi fransuz adabiyotidan bo'ladi. Yozma testlar o'rtacha to'rt kun davomida o'tkazilib, 25 soat vaqt



sarflanadi. Bakalavr diplomida har bir o'quv predmetining mavqei hisobga olingan holda barcha o'quv predmetlari bo'yicha umumlashtirilgan bakalavr bali qo'yiladi. O'quvchi 10 va undan ortiq ball to'plagan taqdirda imtihonlarni topshirgan hisoblanadi.

Yaponiya ta'limi o'zining samaradorligi bilan butun dunyo pedagoglarini o'ziga jalb etib keladi. Yapon o'quvchilari to'qqiz yillik tayanch maktabni bitirganlaridan so'ng tabaqalashtirilgan holda katta bo'g'indagi o'rta maktabga o'qishga kiradilar. Mazkur maktablarga qabul o'quvchining baholari va kirish testlari natijalariga amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kirish testlari milliy dastur asosida bo'lsa-da, har bir hudud uchun alohida-alohida tuziladi. Test natijalari o'quvchilarga e'lon qilinmaydi.

Natijalar o'quvchilar qabul qilinadigan maktablarga yuboriladi. Har yili 9 yillik tayanch maktablarning 95 foiz bitiruvchisi katta o'rta ta'lim maktablariga o'qishga qabul qilinadi. 5 foiz o'quvchi esa kasbiy maktablarda o'qishlarini davom ettiradi. Biroq katta o'rta maktab va universitetlarga kirishda imtihonlar muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham o'quvchilarning o'zi va ota-onalari ularga jiddiy e'tibor qaratadi. 7-sinf dan 9-sinf gacha o'rtacha 50 foiz o'quvchi o'z tanloviga ko'ra qo'shimcha o'quv predmetlari bilan shug'ullanadi.

Universitetga kiruvchi bitiruvchilar ikki turda imtihon topshiradi. Birinchi turdagi imtihonlar (University Entrance Cente Examination - UECEL) butun mamlakat bo'yicha yagona bo'lib, uni o'quvchilar oliy o'quv yurtiga kirishdan yarim yil avval topshiradilar. Bunday imtihonlarni topshirish ham davlat, ham xususiy universitetlarga kiruvchilar uchun majburiydir. O'quvchilar 12 ta o'quv predmetining bir nechtasidan test topshiradilar.

Qaysi fandan test imtihoni topshirishni universitetlarning o'zi belgilaydi. Masalan, Tokioning eng nufuzli universitetlari eng kamida 5 ta milliy imtihon (VECE)ni, qolganlari 2-3 ta imtihonni topshirgan abituriyentlarning hujjatini qabul qiladi.

Ikkinchi tur imtihonlar universitetlarning o'zida o'tkaziladi. Ular milliy imtihonlarga nisbatan murakkab bo'lib, turli universitetlarning o'zida o'tkaziladi, shuningdek, fakultetlarda bir-biridan farqlanadi. Odatda abituriyent 2 tagacha universitet imtihonlarini topshirib, o'zini sinab ko'radi. Universitetlarda tanlov bali juda yuqori, shuning uchun ham, ayrim o'quvchilar mazkur imtihonlarga 2 yilgacha tayyorgarlik ko'radi. Imtihonlarni qayta

topshiruvchi abituriyentlar 30 foizni tashkil etadi.

Yaponiyada ta'lim, fan va madaniyat vazirligi qoshida universitetlarga kirish imtihonlari bo'yicha milliy markaz mavjud (National Center for university entrance examinations) bo'lib, imtihonlarning birinchi turini o'tkazish bo'yicha barcha ishlarni tashkil qiladi. Jumladan, imtihon topshiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, imtihonlarni topshirish va h.k. Imtihon materiallari 20 ta o'quv predmeti bo'yicha qo'mitalar tomonidan tuziladi. Bunday qo'mitalarga o'quvchilar universitetlar tomonidan tavsiya etiladi.

Qo'mitaning vazifalaridan biri - imtihon mazmunining milliy dasturlarga mosligi va barcha predmetlar bo'yicha bir xil bo'lishiga erishishdan iboratdir. O'qituvchilar va kasaba uyushmalari vakillari har yili qo'mita a'zolari bilan uchrashib, imtihonlar haqida fikrlashadi. Yaponiyada "3", "4", "5" baholari qo'llanilib, 2 baho umuman mavjud emas. Imtihonlar birinchi va ikkinchi semestrlarda 2 martadan, 3-semestrda esa bir marta tashkil etiladi.

Olmoniya ta'lim tizimi o'ziga xos jihatlarga ega. U erda umumiy o'rta ta'lim 13 yil davom etadi. Mazkur ta'lim tizimida tabaqalashtirilgan yondashuv keng tatbiq etilgan. Olmoniyada o'quvchilarning bilimi quyidagicha baholanadi. Jumladan, 6(0) (juda yomon), 4 (6-4) ("DTSga to'g'ri keladi"), 3 (9-7) ("qoniqarli"), 2 (12-10) ("yaxshi"), 1 (15-13) ("a'lo").

Boshlang'ich ta'limni tugatgan bolalar qobiliyatiga qarab uch yo'nalishda o'qitiladi. Ulardan bir qismi 9 yillik tayanch maktabga borib, umumiy va boshlang'ich kasbiy ta'lim oladi. Ikkinchi qismi 10 yillik real maktabda o'qiydi. Unda o'rta darajada tayyorgarlikka ega bo'lib, gimnaziyaning birinchi va ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettiradi.

Olmon o'quvchilari abituriyent attestatini olish uchun to'rta bitirish imtihonini topshirishi lozim. O'quvchilar imtihongacha 28 o'quv predmetidan tahsil olgan bo'lishi, ulardan 22 tasi tayanch bilimlarni beradigan, 6 tasi chuqurlashtirilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar ulardan quyidagi 3 tasini tanlab oladi:

- 1) tillar, adabiyot va san'at;
- 2) ijtimoiy bilimlar;
- 3) matematika, tabiatshunoslik va texnologiyalar.

Tanlab olingan 3 ta fanning 2 tasida chuqurlashtirilgan yozma, 1 tasida og'zaki imtihon topshiradilar. Attestatda oxirgi 2 yillik o'qish va imtihon natijalarini hisobga oluvchi umumiy ball

ko'rsatiladi. Masalan: attestatga qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal 840 balldan 540 tasi o'quvchining o'quv predmetlarini o'zlashtirish bo'yicha erishgan natijalari (330 ball 22 ta asosiy kurs va 210 ball 6 ta chuqurlashtirilgan) va 300 ball esa imtihonlar davomida olingan bo'lishi kerak. O'quvchi attestat olishi uchun kamida 280 ball to'plashi lozim.

Bir xil yoshdagi o'quvchilarning 40% har yili imtihonlarni topshiradi. Ularning 95% muvaffaqiyatga erishadi. Attestat olgan aksariyat o'quvchilar (85%) ikki yil davomida universitetga kirishga muvaffaq bo'ladi. Oliy o'quv yurtlariga kirish jarayonida attestatdagi ballar muhim ahamiyatga ega. Attestat oluvchilar soni ko'payib ketganligidan nufuzli fakultetlarga qabul qilishda qo'shimcha test va suhbatlar joriy etilgan.

Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'rib o'tilgan mamlakatlar ta'limi sohasida baholash tizimining obyektiv bo'lishi uchun harakat qilinganligi, bunda turlicha usul va vositalardan foydalanishi o'z ifodasini topgan. Bularning barchasi o'quvchilarning bilimi va o'ziga xos jihatlarini haqqoniy baholash yo'lida olim, pedagoglar va keng jamoatchilik, barcha davrlar va mamlakatlarda tinmay izlanganidan guvohlik beradi. Chunki, o'quvchi bilimini baholash barcha zamonlarda o'z echimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammo ekanligi o'z ilmiy isbotini topmoqda.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Ta'limni isloh qilishda o'quv dasturlarining ahamiyati qanday?
2. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalashtirish va kasbga yo'naltirish masalalarini izohlang?
3. Ta'limni differensiyalashtirish muammolari va maxsus maktablar faoliyati haqida so'zlab bering?
4. O'quvchilar bilimini baholash mezonlarini ayting?
5. Yaponiyada baholash tizimining o'ziga xosligi nimada?
6. Fransiyada o'quvchilarni baholash qanday ko'rinishda tashkil etilgan?
7. Germaniyada o'quvchilarni baholash qanday tashkil etilgan?
8. Xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyati.
9. Integratsiyalashgan kurslarning ahamiyatini ayting?
10. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qiling?

## **2- bob. ZAMONAVIY DUNYODA TA'LIM MUAMMOLARI VA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH**

### **2.1. Bolonya jarayoni mamlakatlari va O'zbekiston oliy ta'lim tizimi qiyosiy tahlili**

Ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lida ustuvor vazifalardan qilib, dunyodagi eng ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, hamda o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etishni belgilasa bo'ladi. Ushbu maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri sifatida Boloniya jarayoniga qo'shilish bo'lib ko'rinadi, zero yoriq sharoitlarda ta'limni rivojlantirib bo'lmasligini ko'plab mamlakatlarning tajribasidan bilib olish mumkin.

Boloniya jarayoni - Evropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. Bu tushunish oson bo'lgan va o'xshash darajalar (malakalar) tizimini yaratishini, ta'limning kredit tizimiga o'tishini, ta'limning sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Evropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Evropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

#### **Boloniya jarayoniga qo'shilish shartlari**

– Evropa Madaniyat Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va oliy ta'lim tizimida Boloniya jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga tayorgarlik;

– Boloniya jarayonida e'tirof etilgan ilmiy darajalar, shu bilan birga YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan diplomga ilova sistemasini qabul qilish. Diplomlarni tasdiqlash va boshqa mamlakatlarda ularning tengligini e'tirof etish tartibini soddalashtirish uchun Boloniya Deklarasiyasi "ECTS" kredit birligida ifodalangan o'quv fanlari, amaliy mashg'ulotlar va boshqa turdagi ta'lim to'g'risida asosiy ma'lumotni o'zida aks etuvchi maxsus ingliz tilidagi diplom ilovasini taqdim etilishi;

– Oliy ta'lim sohasida yuqori sifatni ta'minlash, oliy ta'lim sohasidagi malaka va tegishli hujjatlarni o'zaro tan olish, universitetlarning avtonomligini ta'minlash.

– Qiyosiy darajadagi tizim, ya'ni uch bosqichli oliy ta'lim tizimini quyidagi ikki model asosida joriy etish:

Bakalavr + magistr + aspirantura: 3 yil + 2 yil + 3 yil;

Bakalavr + magistr + doktorantura: 4 yil + 1 yil + 3 yil;

– ECTS sistemasi asosida kredit tizimiga o'tish. Kreditlar, shuningdek (*agar ular oliy o'quv yurtlari tomonidan e'tirof etilsa*), oliy ta'limdan tashqari, jumladan, hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) jarayonida ham qo'llanilishi mumkinligi;

– Butun hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) uchun shart-sharoitlar yaratilishi;

– Qiyosiy mezon va uslublarni ishlab chiqish maqsadida ta'lim sifatini ta'minlashda Evropa bilan hamkorlikni rivojlantirish;

– Oliy ta'limda, ayniqsa, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, institutlararo hamkorlik, mobillik sxemalari, birgalikdagi o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar va tadqiqotlar bilan bog'liq muhim masalalarda Evropa an'analari va tizimlariga asoslanish;

– Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarning erkin harakatini (mobilligini) samarali amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish: talabalarni ta'lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va amaliy mashg'ulotlar bilan ta'minlash; o'qituvchilar, tadqiqotchilar va ma'muriy xodimlar uchun esa natijalarni tan olish va boshqa universitetlarda tadqiqot, o'qitish va amaliyotga sarflangan vaqtni hisobga olinish imkoniyatini yaratish;

Boloniya jarayoni asosini Evropa Ittifoqi davlatlari yaratganiga qaramasdan, bugungi kunda Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlardan ikki barobar ko'p davlat bu jarayonga qo'shilgan (48 mamlakat). Boloniya jarayoniga yana Evropa Ittifoqida bo'lmagan Shveysariya va Norvegiya, oltita Sharqiy hamkorlik mamlakatlari (*jumladan, Belarus*), Rossiya, Turkiya va Qozog'iston ham qo'shilgan.

2010 yilda Budapeshtda Qozog'istonning Boloniya deklarasiyasiga qo'shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan. Qozog'iston Evropa ta'lim tizimining to'laqonli a'zosi sifatida tan olingan Markaziy Osiyodagi ilk davlat hisoblanadi.

Boloniya jarayoniga qo'shilgandan so'ng Qozog'iston oliy ta'lim tizimida quyidagi katta o'zgarishlar ro'y berdi:

– Qozog'iston universitetlari hozirda dunyodagi 650 dan ortiq oliy o'quv yurtlari tomonidan imzolangan Buyuk Xartiyaga qo'shildi va bu mahalliy ta'limni Evropa standartlariga

yaqinlashtirdi. Xartiyani 60 dan ortiq qozoq universitetlari imzoladilar.

– Boloniya deklarasiyasi tamoyillari asosida bakalavr — magistr — doktorlik dissertasiyasining uch bosqichli modeliga o‘tish amalga oshirildi.

– Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalarga asoslangan ta’lim tizimi joriy etildi: barcha oliy ta’lim muassasalarida kreditlash texnologiyalari joriy etildi, 38 ta ikkita diplomli ta’lim, 42 ta masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Dublin o‘quv dasturi deskriptorlariga muvofiq, modulli ta’lim dasturlari, sillabuslar ishlab chiqilyapti, malakalar kvalifikasiyasining milliy dasturi yaratildi.

– «ECTS» (Evropa Kredit Transfer tizimi) joriy etildi, «ECTS» qoidalarini qabul qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma qabul qilindi (bu qo‘llanma 2015 yilning 14-15 may oyida Evropa mamlakatlarining ta’lim vazirlari konferensiyasida tasdiqlangan).

– Xorijiy o‘qituvchilar va maslahatchilarni taklif qilish davlat buyurtmasi doirasida va universitetlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan amalga oshirilyapti. 2009 yildan 2014 yilgacha bo‘lgan davrda 6927 nafar xorijiy olim va maslahatchi taklif qilindi.

– Bugungi kunga kelib Qozog‘istonning 19 mingga yaqin fuqarosi dunyoning 35 mamlakatida ta’lim olishyapti va ta’lim, ilm-fan sohasidagi hamkorlik geografiyasi har yili kengayib bormoqda. Chet elda talabalarni o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi: xalqaro ta’lim almashuvi; chet el hukumatlari va xalqaro tashkilotlarning stipendiyalari; Qozog‘iston Respublikasi “Bolashak” xalqaro stipendiyasi yordamida.

– Hozirgi kunda Qozog‘istonning 50 dan ortiq universitetlari Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Chexiya, Germaniya, AQSh va boshqa etakchi davlatlar universitetlari bilan ikki diplom daraja sistemasida ta’lim olib bormoqda.

– Ta’lim sifatini ta’minlash borasida xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish uchun Qozog‘iston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi tomonidan Akkreditasiya agentliklari milliy reestri tashkil etildi. Bu reestr Qozog‘iston Ta’lim sifatini nazorati bo‘yicha mustaqil agentligi (IQAA) (<https://iqaa.kz/bolonskij-protsess/voprosy-i-otvety-bolonskij-protsess>) bilan birgalikda 8 ta

xorij agentliklarini o'z ichiga oladi va ular birgalikda Qiyosiy mezon va metodologiyani ishlab chiqish uchun hamkorlik qiladilar.

2009 yildan 2015 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida IQAA 50 ta universitetni va 1100 dan ortiq dasturni institusional akkreditatsiyadan o'tkazdi, bunda dunyoning 25 mamlakatidan 153 xorijiy ekspert, 1100 nafar mahalliy ekspert, shu jumladan, 190 talaba va 200 dan ortiq ish beruvchilar jalb qilindi. Agentlik oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun akkreditasiya standartlarini Evropa oliy ta'lim sohasidagi mavjud standartlar va qo'llanmalar bilan muvofiqlashtirish ustida ishlamoqda.

– Qozog'istonda Respublika Ta'lim va fan vazirligi qoshida Boloniya jarayoni va akademik mobillik markazi amaliyot olib boradi. Uning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida Qozog'iston Respublikasida mamlakat va Universitet darajalarida Boloniya jarayonining kelishilgan prinsiplarini to'g'ri va to'liq amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.<sup>2</sup> Boloniya jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimiga taxdid solishi mumkin yoki umuman foyda olib kelmaydi, degan fikrlar ham mavjud. Bunday taxminlarga bir qator omillar sabab bo'layotgan bo'lishi mumkin. Shular qatoriga Boloniya jarayonida ishtirok etish yillar davomida shakllangan ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish talab etilishi, lozim bo'lgan islohotlarning qimmat va uzoq vaqt talab etishi, akademik almashinuvlar natijasida bilimli insonlarning ketib qolish ehtimoli, milliy an'analarga putur etish xavfi yuqoriligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Qolaversa, Boloniya jarayoniga qo'shilish uchun to'sqinlik qilayotgan yana bir qancha omillar borki, ularni bartaraf etmay turib, biz bu jarayonga qo'shilishimiz mushkul.** Bular orasida qisqacha to'xtalib o'tish mumkin bo'lgan omillardan:

– Ayni vaqtda ta'lim standartlarimizning jahon talablari bilan muvofiq emasligi;

– O'quvchi va o'qituvchilar malakasi bugungi talablarga javob bermasligi, ya'ni masalan ingliz tilini bilish darajasining pastligi;

– Barcha talabalarimiz ham chet eldagi ko'chib o'tish, turar-joy va ovqat xarajatlarini qoplashga qodir emasligi. Universitetlarimiz

---

<sup>2</sup> <http://enic-kazakhstan.kz/ru/about/o-centre>.

xorijiy ta'lim muassasalarida stajirovka taklif etish imkoniyatiga ega bo'lishsa-da, ro'yxatga olish va talabalarni almashish shartlari hammaning ham cho'ntagiga to'g'ri kelavermasligi;

– Xuddi shunday tarzda erkin akademik harakatlanishni ta'minlash uchun Universitetlarda rivojlangan infratuzilmaning (yotoqxon, tibbiy sug'urta va h.k.) va mablag' manbalarining (sayohat grantlari va boshqalar) etarli darajada rivojlanmaganligi;

– Boloniya jarayoni universitetlarning avtonomiyasi prinsipiga katta ahamiyat beradi. Avtonomiya — o'zlarining malakasi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda universitetlarning mustaqilligidir. Bizda afsuski barcha ta'lim muassasalari hali ham davlat qaramog'ida va oliy ta'lim vazirligi qo'li ostida faoliyat yuritadilar;

– Oliy ta'lim tizimida hali ham korrupsiyaning mavjudligi;

– Boloniya jarayoni masalalari doirasida amalga oshirilayotgan uchrashuvlar va yig'ilishlarda O'zbekiston qatnashuvi juda sustligi.

Ushbu mavjud muammolarni ko'zda tutgan holda quyidagi yechimlarni taklif etsa bo'ladi:

1. Boloniya jarayoni bizdagi mutaxassislarining chet elda qolib ketishini osonlashtiradi degan shubhalarga kelsak, albatta xavf mavjud, chunki agar Evropada o'zbek diplomlari qabul qilinsa (yoki hech bo'lmasa tan olinadigan bo'lsa), bu albatta, bitiruvchilarimizni u erda ish topishlarini osonlashtiradi. Ammo mutaxassislarni chet elga chiqib ketish jarayoni agar mamlakatimizda mavjud bir qator muammolarni hal qilmasak, shunday ham ro'y beraveradi.

Masalan, yurtimizdagi ish bilan ta'minlovchi tashkilotlar, shu jumladan, davlat, bitiruvchilarning ish sharoitlarini G'arbdagidek ta'minlab bera olmasalar (*masalan, ish haqi, kreativ va erkin fikrlash uchun shart-sharoitlar va h.k.*) mutaxassislarimiz Boloniya jarayoniga qo'shilmagan taqdirimizda ham chiqib ketaveradilar. Aksincha Boloniyaga qo'shilish bizga nafaqat mahalliy mutaxassislarining chiqib ketishini qisqartirish, balki xorijliklarni ham ta'lim berish jarayonlariga jalb qilishimizga imkon beradi, bu esa O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Hozirgi ta'lim standartlarini takomillashtirish maqsadida xuddi Qozog'istondagi kabi mustaqil agentlik va markazlar tashkil etish lozim bo'ladi.

3. Xorijdan kelgan talabalar va xorijiy o'qituvchilarga dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun sharoit yaratish lozim. Masalan,



ingliz tilida yangi dasturlarni ochish, talaba va o'qituvchilarning ingliz tili salohiyatlarini ingliz tilini o'rgatish bo'yicha tekis kurslarni uyushtirish.

4. Talabalarimizning erkin mobilligini ta'minlash uchun turli xalqaro grantlarni jalb etish, balki davlat dasturi asosida ham sarmoya ajratish kerak.

5. Tajriba asosida ba'zi universitetlarga avtonomlik berish va ularning Boloniya jarayoniga qo'shilishdariga yordam berish (ayniqsa, STEM yo'nalishlarida);

6. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqorida tashkil etilishi taklif etilgan mustaqil agentlik bilan hamkorlikda dastur va yo'l xaritalari ishlab chiqish.

7. Boloniya jarayoniga bag'ishlangan uchrashuvlarda O'zbekistonning faolligini ta'minlash (*bunda mustaqil agentlik xodimlari ham qatnashsa bo'ladi*).

Umuman olganda Boloniya jarayonini sinchikovlik bilan tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelsa bo'ladi:

– Boloniya jarayonida ishtirok etish Universitet bitiruvchilariga mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratadi;- Talabalar va akademik almashinuvlar tajribasi globallashtirilgan dunyoda O'zbekiston kadrlarining saviyasi oshadi, rivojlangan davlatlardagi tajribalarni o'zimizda ham tadbiq etishga imkon beradi;

– Boloniya jarayoni O'zbekistonga intellektual boylikdan samarali foydalanish uchun ilmiy va sanoat tadqiqot tuzilmalari yo'nalishidagi innovasion va izlanuvchan universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi;

– Boloniya jarayoniga qo'shilish O'zbekistonga Evropa ta'lim tizimidan foydalanish, diplomlar va malakalarning professionalligini e'tirof etish, kredit tizimini (ECTS) va diplom ilovasini joriy etish, ta'lim sifatini baholash, talabalar va fakultetlarning akademik uyg'unligini amalga oshirish va uzluksiz ta'limni ta'minlashga imkon beradi;

– Boloniya deklarasiyasining tavsiyalariga muvofiq, har bir talaba hech bo'lmasa bir semestrni boshqa bir universitetda, imtiyozli ravishda chet elda o'tkazishi lozim. Bunday aloqalar va almashuvlarning ahamiyati, ayniqsa, O'zbekistondagi zamonaviy adabiyotning kamligi va ko'pincha cheklangan va eskirib qolgan laboratoriya jihozlari sharoitida talabalar uchun kerakli bilimlarni olishga yordam beradi;

– Boloniya jarayonida ishtirok etish respublika uchun ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish, olimlar va o’qituvchilarimiz malakasini oshirishga, xalqaro ta’lim sohasidagi O’zbekistonning o’rnini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoit yaratishga asos bo’ladi;


– Diplomalimizni xalqaro maydonda tan olinishi, kelgusida umumiy Evropa ta’lim maydonining bir qismi bo’lish imkonini beradi;

– Evropa Ittifoqi bilan tashqi savdo va investision aloqalarimiz yo’lga qo’yilgan va rivojlanib boryapti. Ushbu aloqalar, birinchi navbatda, oliy ma’lumotli kishilar va mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Agar ikki taraf dunyoqarashlari bir biriga yaqin bo’lsa, bir-birilarini tanishsa, aloqalarni yanada mustahkamlash osonroq bo’ladi.

Albatta, Boloniya jarayoni kamchiliklardan xoli emas. Masalan, uch yillik bakalavriat ichida innovasiyalarga qodir tadqiqotchi olimni tayyorlash qiyin. Buni anglagan ba’zi MDH mamlakatlarida fanlar sonini kamaytirish o’rniga, eski darslarni, imtihonlarni qisqa muddatda o’tkazishga harakat qilishadi. Bu esa talabalar va o’qituvchilarda haqli e’tirozlarga sabab bo’ladi.

Keyingi muammo Boloniya jarayonida ishtirok etadigan mamlakatlarning hammasi ham etarlicha yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini ko’rsata olmaydi, ko’plab talabalar cheklangan mobillik haqida shikoyat qiladilar (boshqa mamlakatga ko’chib o’tishda, talaba odatda bankdagi hisob raqamlarida ma’lum miqdorda pul borligini ko’rsatishlari kerak, bu esa ba’zi davlatlarda qimmat – masalan, Norvegiya uchun yiliga 9,5 ming evro), talabalarning passivligi, yangi qoidalarni talqin qilishda o’zboshimchalik (bu esa ta’lim sifatini pasayishiga, bakalavriat dasturining tuzilishi bilan bog’liq muammolarga olib keladi).

Shunga qaramay, umumlashgan ta’lim tizimiga qo’shilishning afzalliklari ko’proq. Ta’limni ta’minlashda izolyasiyaga yo’l qo’yishdan qochish kerak, bugungi globalizasiya jarayonlariga qo’shilish, jahon hamjamiyatiga integrasiya qilish mamlakatimiz kelajagi uchun juda muhim hisoblanadi. Ta’lim dunyoviy ilmiy-intellektual, badiiy-estetik va ma’naviy-axloqiy madaniyat yutuqlarini o’zlashtirish jarayonidir va haqiqiy ta’lim milliy-davlat chegaralarini tan olmasdan jahon tajribalariga asoslangan bo’lishi har qanday davlat kelajagi uchun kuchli omildir.



1- rasm. Jahon tajribasining asosiy sxemasi

- 1) JOINT PROGRAMMES – QO‘SHMA DASTURLAR – internasionalizasiya, ta’limning xalqarolashuvida muhim omil;
- 2) CREDIT MOBILITY – KREDIT MOBILLIK - universitetlar xalqarolashuv strategiyasining muhim qismi;
- 3) ECTS – EKTТ – ta’lim sharoitlarini yaratish va natijalarini Evropa oliy ta’lim maydonida joriy etishga qaratilgan tizim;

QO‘SHMA DASTURLAR – nima uchun kerak?

- 1) Ta’lim va tadqiqot uchun **sifatni ko‘tarish** uchun;
- 2) Ilmiy darajaga ega bo‘lishda **yuqori bilim va kompetensiyaga** erishish uchun;
- 3) Hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- 4) Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash;
- 5) Yuqori sifatga erishish mexanizmlarini yaratish.

### QO‘SHMA DASTURLAR - HAMKORLIK DASTURLARI:

- 1) O‘quv dasturlari birgalikda tuziladi;
- 2) Maxsus 2 yoki undan ko‘p OTMlar da jloriy etiladi;

3) Diplomlar turlicha bo‘lishi mumkin: single - 1 OTMdan beriladigan, double – 2 OTMdan, multiple - 2 dan ortiq OTMdan, joint – bir nechta OTM dan beriladigan 1 ta diplom;

4) 2 yoki ko‘p OTMlar hamkorligi ta‘minlanadi, bunda har bir OTM o‘z talabalariga o‘zi mas‘ul;

5) Ta‘lim jarayoni bir nechta hamkor OTMda amalga oshiriladi hamda daraja bo‘yicha diplom mazkur hamkor OTMlarda kelishuvga va turiga ko‘ra rasmiylashtiriladi.

## **2.2. Qiyosiy ta‘limda milliy ta‘lim tizimini aniqlash vositalari**

### **Til omili**

Til insonni quyi hayvonlardan ajralib turadigan narsalardan biridir. Dunyoda boshqa qabilalardan farq qilishi mumkin bo‘lgan o‘z ona tiliga ega bo‘lmagan qabilalar mavjud emas. Tabiiyki, bolalar mahalliy tillari ularga o‘rgatish uchun ishlatilsa, yaxshiroq va tezroq o‘rganadilar. Milliy darajada, har bir mamlakatda milliy til yoki tillar mavjud. Ushbu mamlakat fuqarolari o‘zlarining milliy tillarini nafaqat rasmiy maqsadlar uchun, balki samarali muloqot qilishlari uchun o‘rganishlari kerak.

Masalan, Nigeriyada nigeriyaliklarning uchta tili rasman tan olingan. Ular: Yoruba, Igbo va Hausa tillari. O‘rta maktab darajasida, bola o‘z ona tilidan tashqari boshqa tilni o‘rganishi kutilmoqda. Boshlang‘ich maktab bosqichida o‘qituvchilarga ularga dars berish uchun o‘quvchilarning mahalliy tilidan foydalanishga ruxsat beriladi.

### **Geografik omil**

Biror mamlakatning ta‘lim tizimini rivojlantirishda geografiya qanday yoki nima uchun muhim ekanligi haqida savol tug‘ilishi mumkin. Mamlakatning iqlimi maktab binolariga va jihozlarga ta‘sir qilishidan tashqari, bitta iqlim mintaqasida osonlikcha amalga oshiriladigan ish boshqa joyda bo‘lmasligi mumkin. Ehtimol, bu Nigeriyaning shimoliy qismida ochiq havo maktablari kamdan-kam bo‘lishi mumkinligining sabablaridan biridir. Bunga hech qanday shubha yo‘q, Nigeriya maktablarining taqvim yilidagi doimiy o‘zgarish iqlimiy sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, maktab taqvimi yanvar-dekabrdan, keyin esa sentyabr-iyul oylariga o‘zgartirildi. Maktab o‘quv yilidagi bunday o‘zgarishlarning sababi shundaki, Nigeriyada iyuldan avgustgacha har doim kuchli yomg‘ir yog‘ishi mumkin, va

ofatlarning oldini olish uchun o'quvchilar uzoq ta'tilga ota-onalari bilan uyda bo'lishlari uchun yuboriladi. Bundan tashqari, iyul va avgust oylari - bu hamattan dehqonchilik uchun tayyorgarlik davri va bu safar o'quvchilar ota-onalari bilan birga bo'lganligi sababli, ular o'z fermalarida ularga yordam berishlari mumkin. Ob-havo, shuningdek, maktab kiyinishiga, maktab ovqatiga, shuningdek, maktab jadvaliga ta'sir qilishi mumkin.

### **Iqtisodiy omil**

Mamlakat iqtisodiyotining holati ushbu mamlakatning milliy ta'lim tizimini belgilaydi. Har yilning boshida, Nigeriyada bo'lgani kabi har doim byudjet har doim federal hukumat tomonidan tayyorlanadi va taqdim etiladi. Byudjetda har doim davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy sharoitlarning har biriga byudjetning ma'lum foizi ajratiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakat iqtisodiyoti yaxshi holatda bo'lganida, byudjetning yaxshi qismi ta'limga sarflanadi.

Ammo iqtisodiyot yomon bo'lganida, bu ta'limga sarflanadigan byudjetning foiziga ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, barcha rasmiylashtirilgan ta'lim siyosati ularni amalga oshirish uchun katta miqdordagi mablag'ni talab qiladi. Bunga faqat mamlakat iqtisodiyoti kooperativ bo'lganda erishish mumkin. Bu shuni anglatadiki, mamlakat iqtisodiyoti yaxshi bo'lmaganda, shakllangan ta'lim siyosati umuman amalga oshirilmasa, u to'liq amalga oshirilmasligi mumkin.

Bundan tashqari, agar mamlakat iqtisodiyoti bunday mamlakatning ma'lum bir joyida zich joylashgan bo'lsa, odamlar iqtisodiyoti konsentratsiyalangan hududga joylashtirilmagan joydan boshqa joyga ko'chib o'tishlari mumkin. Bu nigeriyaliklarning qishloq joylardan shahar markazlariga ko'chib o'tishining asosiy sabablaridan biri bo'lib, buning natijasida shahardagi maktablar nafaqat qishloq joylariga qaraganda ko'proq, balki shahar markazlaridagi bunday maktablar doimo tugab turadi qishloq maktablariga qaraganda ko'proq aholiga ega va yuqori malakali o'qituvchilarga ega.

### **Tarixiy omil**

Darhaqiqat, o'tmish voqealari qayd etilgan tarix mamlakat yoki millatning ta'lim rivojlanishi bilan ko'p bog'liqdir. O'zining mintaqasi yoki jamiyatidan oldingi an'anaviy ta'lim tizimidan

tashqari, bu erda bizning diqqat markazimiz bo'lgan g'arbiy rasmiy ta'lim har doim bir joydan yoki boshqa tomondan olib boriladi.

Afrikadagi barcha mamlakatlarda ta'limning kelib chiqishi ushbu Afrika mamlakatlarining mustamlaka xo'jayinidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, Nigeriyaning janubi-sharqiy aholisi shimoliy aholiga qaraganda ancha yuqori ma'lumotga ega. Buning sababi shimoliy Nigeriyada rasmiy ta'limning tarixiy rivojlanishiga bog'liq.

G'arbiy Ta'lim Nigeriyaga olib kelinganida, shimoli-g'arbliklar allaqachon Islomiy ta'limga o'rganib qolishgan va ularni o'zgartirish qiyin bo'lgan. Boshqa tomondan, Islomiy ta'limga jiddiy o'rganilmagan janubiy sharqliklar Nigeriyaga olib kelingan G'arbiy ta'limni osonlikcha o'zlashtirdilar.

Biroq, Nigeriya mustaqillikka qadar va undan keyingi ta'lim tizimiga tanqidiy qarash Britaniya ta'lim tizimining moslashuvidan dalolat beradi. Nigeriya mustamlakachilaridan meros bo'lib olingan ta'lim tizimi Nigeriya istaklari va ehtiyojlarini qondira olmagan uchun yangi ta'lim tizimi yaratildi. Nigeriyada ta'limning tarixiy rivojlanishi nafaqat Afrikada, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham mavjud.

Masalan, Rossiyada, shuningdek, Xitoyda ta'limning sotsialistik xususiyati ularning tarixi natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, Xitoy va Rossiyada ta'limning sekulyarizatsiya qilinishi mustabid feodal rejimlar (odamlar erga egalik qiladigan tuzumlar va ish yoki harbiy yordam evaziga himoya qilish to'g'risidagi qonun) bilan bog'liq edi. Fors urushidan keyin Afina o'zining kosmopolit jamiyatini (dunyoning turli burchaklaridan bo'lgan odamlardan tashkil topgan) o'zgartirishi kerak edi. Va nihoyat, Frantsiyadagi markazlashgan tizim ularning tarixiy kelib chiqishi natijasida yuzaga kelganligi aniq.

### **Diniy omil**

Mamlakatning ta'lim tizimi yoki siyosatini rivojlantirishda dinning ahamiyatini ta'kidlab bo'lmaydi. Masalan, Nigeriyadagi eng qadimgi maktablar xristian vakolatxonalarini tomonidan tashkil etilgan, boshqarilgan va moliyalashtirilgan. Keyinchalik musulmonlar o'z farzandlari va dindorlarning bolalari uchun maktablar qurdilar. Bunday maktablarga quyidagilar kiradi: Baptist maktablari, Islom maktablari, Hammadiya maktabi va boshqalar.

Universitet sektoriga parallel ravishda kasbiy yo'naltirilgan oliy ta'lim muassasalari tashkil etilishining asosiy maqsadlari ko'pchilik mamlakatlarda birxil, ya'ni:

- mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish maqsadida kasbiy jihatdan yanada kuchliroq yo'naltirilgan va iqtisodiy jihatdan asoslangan ta'lim turlarini taklif qilish;

- oliy ta'lim olishga, davlat xarajatlarini amalga oshirmagan holda oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish;

- innovasion yondashuvlar yordamida talabalarning noan'anaviy guruhlari ehtiyojlarini qondirish;

- amaliy tadqiqotlar ba'zi elementlarining o'qitishga yo'naltirilgan dasturlarini amalga oshirish;

- mavjud kasbiy-texnik ta'lim tizimini modernizatsiyalash. Masalan, Germaniya dunyoda birinchilar qatorida 1970-yillarda Fachhochschulen – universitet oliy ta'lim tizimiga parallel bo'lgan, o'z vazifa va maqsadlariga ega bo'lgan mustaqil oliy ta'lim sektorini joriy etdi. Germaniyadan so'ng bu yo'ldan Avstriya, Belgiya, Finlyandiya va Gollandiya mamlakatlari ham borishdi.

Buyuk Britaniyada binar tizim 1991 yilga qadar faoliyat yuritdi. Ushbu tizimdan qisman voz kechgan politexnika ta'lim muassasala-

ri universitet maqomini oldi. Ushbu jarayon jamiyatdagi va yuqorida qayd etilgan ikki tizimda bo‘lib o‘tayotgan hodisalar natijasida amalga oshib, universitet va politexnika ta‘limi o‘rtasidagi farqni kamaytirdi.

**1 - jadval. Yevropa davlatlari Oliy ta‘lim tizimlari va darajalari tarkibi**

<i>Mamlakat</i>	<i>Oliy ta‘lim tizimi:</i>		<i>Universitetdagi darajalar tarkibi</i>		<i>Doktorlik darajalar tarkibi</i>	
	unitar	binar	bir darajali	ikki darajali	bir darajali	ikki darajali
Avstriya		X		X	X(s)	
Belgiya(fr.)		X	X(d)		X	
Belgiya(fl.)		X	X(d)		X	
Germaniya		X	X(e)		X(s)	
Daniya		X		X		X
Finlyandiya		X		X	X(b)	
Fransiya		X		X	X(b)(c)	
Ispaniya		X		X	X	
Gresiya		X		X	X(b)	
Italiya		X(a)		X	X	
Irlandiya		X		X	X	
Ispaniya	X			X		X
Lixtenshteyn		X		X	X	
Luksemburg		X	Qo‘llanilmaydi	Qo‘llanilmaydi		
Gollandiya		X(a)		X	X	
Norvegiya		X		X	X	
Portugaliya		X		X	X	
Shvesiya	X			X	X(b)	
Buyuk Britaniya	X			X	X	

Yuz berayotgan tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, qat‘iy binar tizim mavjud bo‘lgan va rivojlantirilayotgan ko‘pchilik mamlakatlar (Avstriya, Belgiya (flamand va fransuz jamoalari), Finlyandiya, Germaniya va Irlandiya) har bir sektorning muayyan sifatlariga tayangan holda va sektorlar o‘rtasida o‘zaro faoliyatning egiluvchanligini ta‘minlagan holda uni saqlab qolish niyatidalar. Ba‘zi mamlakatlarda (Norvegiya) esa ikki sektorning o‘zaro izchil faoliyati va integrasiyalashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda.

OECDning oliy ta‘limni qayta ko‘rib chiqish va qayta baholash bo‘yicha dokladida Evropa oliy ta‘lim tizimi xilma-xilligining oshib borayotganligi kuzatilayotganligi qayd etilgan. Dokladda yana shu narsa ta‘kidlanganki, mamlakatda unitar yoki

binar tizimning mavjudligi emas, balki ta'lim oluvchilar uchun o'zaro bog'liq va biridan biriga o'tish imkoni bor o'quv dasturlari va yo'nalishlarimavjudligi muhimdir. Undan tashqari, kreditlarni3 o'tkazish tizimini mustahkamlash hamda oliy ta'lim muassasalari va ularda taklif etilayotgan o'quv dasturlarining yoritilishi taklif qilinmoqda. Bu holat olingan darajaning universitet yoki nouniversitet ta'lim muassasida olinganligidan qat'i nazar, ob'ektiv baholanishida juda muhimdir.

Hozirgi vaqtda e'tirof etishda asosiy to'siqlardan biri – milliy va xalqaro darajada nouniversitet darajalarida olingan kredit ballarini e'tirof etish muammosi mavjudligi (agar e'tirof etish universitet darajalariga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa). 1-jadvalda Evropa ittifoqi mamlakatlarida oliy ta'limning zamonaviy tarkibi va ba'zi asosiy tendensiyalari aks ettirilgan:

(a) oliy ta'lim tizimi asosan binar bo'lib, nouniversitet sektori unchalik katta emas;

(b) oraliq tadqiqot darajasi taklif etiladi. Finlyandiya va Shvesiyada ushbu daraja eng quyi doktorlik darajasini olishning muqobili hisoblanadi; u doktoranturada o'qishni davom ettirish uchun zarur shart hisoblanmaydi. Fransiya va Gresiyada oraliq daraja doktoranturaga kirish uchun talab etiladi; (c) doktorlik darajasini olish imkoniyatidan tashqari, Habilitation1 malakasini olish imkoniyati ham mavjud;

(d) Belgiyadagi darajalar tarkibi (flamand jamoasi) bir darajali va ikki darajali sifatida tavsiflanishi mumkin.

Universitetlarning ko'pchilik darajalari ikki sikldan tashkil topgan, birinchi sikldan so'ng (davomiyligi 2-3 yil) Candidat (Kandidaat) unvoni beriladi. Ushbu unvon akademik ahamiyatga ega bo'lib, fuqarolik-huquqiy natijalarga olib kelmaganligi uchun oraliq unvon sifatida qabul qilinadi. Bakalavr darajasi birinchi daraja sifatida va magistr darajasi ikkinchi daraja sifatida kiritiladi;

(e) uch oylik ta'lim dasturiga asoslangan «Kandidaat» birinchi darajasi kiritiladi. Xilma-xillikka yana bir misol qilib, norasmiy, xususiy yoki xalqaro oliy ta'lim muassasalarini va (yoki) malakalarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

Shuni ta'kidlash zarurki, xususiy va xalqaro malakalarning turli tiplari va shakllari to'g'risida etarli axborotning mavjud emasligi («kelib chiqish» mamlakati, statusi va boshq.) ularni milliy



malakalar orasida o'z o'rniga ega bo'lishi va e'tirof etilishi jarayonini qiyinlashtiradi.

Malakalarning umumiy tarkibi tahlil etilayotganda ushbu tipdagi malakalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Ba'zi unchalik halol va jiddiy bo'lmagan ta'lim muassasalarining faoliyati natijasida norasmiy xalqaro malakalar sifatini shubha ostiga olish tendensiyasi mavjud.

Bu hol qiyinchiliklarni yuzaga keltirgani sababli cheklovlar qo'yish va sifatni nazorat qilish mexanizmlarini o'rnatish zarur. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, turli mamlakatlarda norasmiy ta'lim oluvchilarning soni unchalik katta emas, chunki tabiatan ushbu ta'lim milliy tizimga tegishli emas va milliy malaka sifatida ro'yxatdan o'tkazilmagan.

Evropa mamlakatlari shunday oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatga olish va e'tirof etishni tartibga soluvchi bir-biridan farqqiluvchi qonunchilik bazasiga ega. Shunday bo'lsa ham, ushbu holat bilan bog'liq hamda xalqaro me'yor va nizomlarni yoki sifat nazoratini joriy etish bo'yicha bir qator milliy va xalqaro tashabbuslar mavjud.

Masalan, 1998 yilda Pandio ijtimoiy va siyosiy fanlar universiteti (Gresiya) Evropada norasmiy ta'lim muammosi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdi<sup>2</sup>. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, oxirgi yillarda Evropa Ittifoqida, ayniqsa, Janubiy Evropa mamlakatlarida tartibga solishning mos mexanizmlari mavjud emasligi, sifat nazoratining shaffof emasligi hamda taqdim etilayotgan unvonlar va mamlakat ta'lim tizimining rasmiy unvonlarining mos kelishi mezonlarining mavjud emasligi sharoitidauchinchi darajadagi oliy ta'lim olish bo'yicha takliflarning o'sishi kuzatilmoqda.

Evropa Kengashi va YuNESKO (CEPES) doirasida transmilliy malakalarning turli jihatlarini tadqiq etadigan ikkita ishchi guruh tashkil etilgan. Ushbu guruhlarning biri tomonidan xalqaro malakalar (International access qualifications) borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ikkinchi guruh sifat hamda norasmiy va transmilliy malakalarni baholash masalalari bilan shug'ullanadi.

Uning vazifasi shu tipdagi oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etiladigan malakalarni e'tirof etishni boshqarish tamoyillarini ishlab chiqish hisoblanadi. Evropaga eng ko'p transmilliy malakalarni olib kiruvchi Buyuk Britaniyada oliy ta'lim

muassasalari va Sifatni nazorat qilish agentligi halol faoliyat qoidalari va sifatni nazorat qilish jarayonlarini kelishib olishdi.

Oliy ta'lim muassasalari tarkibi xilma-xilligining ortib borishiga parallel ravishda turli ta'lim muassasalari tomonidan taklif qilinayotgan darajalar va malakalar tiplarining diversifikatsiyalanish jarayoni bo'lib o'tmoqda.

Akademik integrallashgan universitet (bir darajali tizim) uzoq muddat davom etadigan ta'limga asoslangan «kontinental Evropa» darajalar tarkibi va qisqa muddatli birinchi darajalar hamda diplomdan keyingi ta'lim olishning ko'p sonli imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan modul (ikki darajali) tizimga asoslangan «anglo-amerika» darajalar tarkibi o'rtasidagi an'anaviy farqlar asta-sekin emirila boshlandi.

Universitet sektorida qisqa va o'rta muddatli ta'lim sikllariga (birinchi daraja – bakalavr darajasi) ega universitet malakalari joriy etildi. Ba'zi mamlakatlarda (Daniya, Finlyandiya, Italiya, Portugaliya) qisqa muddatli darajalar milliy darajalar tarkibiga, boshqa mamlakatlarda (Germaniya, Gollandiya) an'anaviy darajalar tarkibiga kiritilgan yoki kiritilmoqda.

Nouniversitet sektorida taklif qilinayotgan malakalarni o'zgartirish jarayoni yuz bermoqda. Aniq kasbiy sohalarda mehnat bozorining yangi ehtiyojlarini qondiruvchi ko'p sonli diplomga qadar dasturlar joriy etildi. Shu bilan bir vaqtda oddiy dasturlarning bir qismi yoki qayta ta'lim olish bilan bog'liq dasturlar hisoblangan ko'psonli diplomdan keyingi kurslar ishlab chiqiladi. Bu kurslar milliy yoki birlashgan va qo'shaloq darajalar berilishi bilan tugaydi.

Magistrlik dasturlarini taklif qilishga huquqi bo'lmagan nouniversitet oliy ta'lim muassasalari ushbu huquqi mavjud xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishni boshlaydi va o'z talabalariga xalqaro magistrlik dasturlarini taklif qilish imkoniga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtga qadar nouniversitet tipidagi oliy ta'lim muassasalari doktorlik darajalarini taklif qilmas edilar.

Lekin bu hol nouniversitet bitiruvchilarining tadqiqot ishlarini davom ettirish uchun doktorlik dasturlariga qatnashishlariga to'siq bo'la olmaydi. Ba'zi mamlakatlarda nouniversitet tadqiqotchilari universitetlardagi doktorlik (PhD) dasturlariga to'g'ridan-to'g'ri (Norvegiya va Gollandiya) yoki ma'lum bir oraliq (bridging) kurslarini tugallagandan so'ng (Avstriya, Germaniya) qo'shilishlari mumkin.

Norvegiyada bir qancha nouniversitet institutlari ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish va doktorlik darajalarini berish huquqini olishga intilmoqda. Umuman olganda, oliy ta'limda bo'lib o'tayotgan ushbu diversifikasiya jarayonlari ta'lim tizimining ham milliy, ham xalqaro jihatdan erishgan katta yutug'i sifatida baholanmoqda.

Turli darajalar va variantlardagi malakalarni saqlab turish natijasida yuzaga keladigan malakalar o'rtasidagi shaffoflikning yo'qolishi esa tizimdagi xilma-xillikning vujudga kelishiga badal sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, xilma-xillikning tobora kengayib borishi malakalarni yaxshiroq tushunib etish va ular to'g'risida ma'lumot (masalan, ECTS tipidagi kredit tizimi, diplomga ilova va boshq.) olishni ta'minlovchi yangi vositalardan foydalanish ehtiyojini yaratmoqda. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida darajalar va asosiy malakalar tarkibi ta'lim olishning davomiyligi hamda oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarining tiplariga bog'liq ravishda farqlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, na malaka olish davri, na oliy ta'lim muassasasi (filiali) tipi malaka darajasi uning mazmuni va o'qish natijalari to'g'risida to'liq ma'lumot bera oladi. Darajalar nomlanishi bir-biridan keskin farq qiladi va o'z nomlanishi bilan aniq malakaning tipi va xarakterini tavsiflamaydi. Shu sababdan, ularni malakalarning milliy tarkibiga kiritish zarur.

Aslida malakalar o'qishning davomiyligi bo'yicha emas, balki ta'lim natijalari, qabul qilingan standartlar va egallangan kompetensiyalar bilan taqqoslanishi kerak. Evropa oliy ta'lim muassasalariga qabul va o'qishga kirishning asosiy talablarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, barcha Evropa mamlakatlarida oliy ta'lim olish uchun maktabda tugallangan 12 yoki 13 yillik ta'lim olingan bo'lishi shart.

Bir qator mamlakatlarda (Germaniya, Gollandiya) universitet va nouniversitet dasturlaridan foydalanish imkonini beruvchi o'rta ma'lumot olish muddatlari bir-biridan uncha farq qilmaydi. Undan tashqari, ta'lim olish dasturlariga qabul qilinish (ta'lim muassasasida joyga ega bo'lish) talablarida sezilarli farq mavjud. Ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Belgiya, Fransiya, Germaniya) to'liq o'rta ma'lumotga ega oliy ma'lumot olishga talabgorlar ko'pchilik universitet dasturlarida erkin qatnasha oladilar.

**2 - jadval. Yevropa mamlakatlarida Oliy ta'lim muassasalariga  
qabul qilish jarayoni**

<b>Mamlakat</b>	<b>Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish</b>	<b>Qabul qilishdagi cheklovlar</b>
Avstriya	Talabalar qabuldagi umumiy talablar (o'rta ma'lumot to'g'risidagi guvohnoma yoki uning yekvivalentining mavjudligi) va o'rta ma'lumot olingan mamlakat xususiyatidan kelib chiqib tanlangan dasturlarga qabul qilinish uchun kerakli maxsus talablarni bajarishlari zarur.	Universitetga qabul qilishda cheklovlar yo'q. Fachhochschulenga qabul chegaralangan va tadqiqotchi qabul imtixonlarini topshirishi kerak.
Belgiya(frans.)	Umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnomasi mavjud barcha talabalar qabul qilinish huquqiga yegadirlar, faqat maxsus talablar mavjud sohalar(masalan, fuqarolik muxandisligi kursiga kirishda qabul imtixonlarini topshirish) bundan mustasnodir.	Qabul qilishda cheklovlar yo'q.
Belgiya(flamand.)	Umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnomasi mavjud barcha talabalar qabul qilinish huquqiga yegadirlar, faqat maxsus talablar mavjud sohalar bundan mustasnodir. Quyidagi mutaxassisliklar	Qabul qilishda cheklovlar yo'q.

	bo'yicha taxsil olmoqchi bo'lganlarning barchasi qabul imtixonarini topshirishlari shart: fuqarolik qurilishi, arxitektura, stomatologiya, tibbiyot (universitet darajalari) tasviriy san'at va dengiz kasblari (Hogescholen darajasi).	
Germaniya	Universitetga kirish uchun Abitur guvohnomasi (12-13 yillik o'rta maktab) yoki yekvivalent malakaga yega bo'lish zarur. Fachhochschulen ga kirish uchun fachhochschul-reife (12 yillik o'rta maktab) yoki yekvivalent malakaga yega bo'lish zarur. Maxsus qabul talablari bir qator dasturlar, ayniqsa, musiqa va tasviriy san'at akademiyalari uchun qo'llaniladi.	Universitetga qabul qilishda (ba'zi sohalarni hisobga olmaganda) cheklovlar yo'q. Fachhochschulenga qabul ba'zi sohalarda cheklangan.
Daniya	Talabalar umumiy qabul talablari (umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnoma yoki uning yekvivalentining mavjudligi) va tanlangan dasturga qabul bo'yicha maxsus talablarni bajarishlari zarur.	Ba'zi sohalardan tashqari (tibbiyot, paratibbiyot) universitetga qabulda cheklovlar mavjud yemas. Oliy ta'lim muassasalarining o'zlari cheklovlarni belgilashlari mumkin. Masalan, o'rinlar kam bo'lgan hollarda.
Ispaniya	Umumiy qabul talablari –	Ba'zi hududlarda

	oʻrta maʼlumot toʻgʻrisida guvohnomaning mavjudligi hamda bir yillik tayyorlov kurslari (COU), yoki Bachillerato LOGSE. Koʻpchilik dasturlar uchun qabul imtixonlari nazarda tutilgan.	qabul boʻyicha cheklovlar mavjud.
Gresiya	Umumiy qabul talablari – oʻrta maʼlumot toʻgʻrisidagi guvohnomaning mavjudligi va Panhellenic imtixonini topshirish.	Universitetga qabul barcha sohalarda cheklovlar bilan tanlov asosida amalga oshiriladi. “Taʼlim 2000” islohoti Panhellenic imtixonlarini bekor qildi va moslashuvchan qabul tizimini joriy yetdi.
Fransiya	Universitet uchun umumiy kirish talabi – oʻrta maʼlumot toʻgʻrisida guvohnomaning mavjudligi. Qabul jarayonida boshqa talablar qoʻyilmaydi. Boshqa turdagi OTMlarga qabulda oʻziga xos cheklovlar belgilangan.	Universitetda chagaralash tizimi qoʻllanilmaydi. Boshqa turdagi Oliy taʼlim muassasalari (IUT, Grarides Yecoles) qabulning tanlov tizimidan foydalanadi.
Finlyandiya	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan oʻrta maʼlumot toʻgʻrisida guvohnoma yoki yekvivalent malakaning mavjudligi va kirish imtixonlarini topshirish. Qabul asosan qabul	Taʼlimning koʻpgina sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud.

	imtixonlariga binoan (maktab guvohnomasi) hamda qabul testlari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.	
Italiya	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnoma yoki yekvivalent malakaning mavjudligi.	DU kurslariga va universitet kurslarining cheklangan sonlariga cheklovlar mavjud.
Irlandiya	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnomaning mavjudligi. Ko'pincha talabalar uchun qabulning maxsus talablari o'rnatiladi.	Qabul qilishda cheklovlar yo'q, ammo universitetlar talabalarni o'z qabul standartlariga binoan tanlab oladilar.
Islandiya	Qabul qilishda cheklovlar yo'q, ammo universitetlar talabalar umumiy qabul talablari (umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnoma yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatning mavjudligi) va tanlangan dasturga qabul bo'yicha maxsus talablarni bajarishlari zarur. Talabalarni o'z qabul standartlariga binoan tanlab oladilar.	Ta'limning ba'zi sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud.
Lixtenshteyn	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan o'rta ma'lumot to'g'risida guvohnoma yoki yekvivalent malakaning mavjudligi.	Ma'lumot yo'q.

Luksemburg	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan o‘rta ma’lumot to‘g‘risida guvohnoma yoki yekvivalent malakaning mavjudligi.	Qabul qilishda cheklovlar yo‘q.
Gollandiya	Univesitetlar uchun umumiy qabul talabi – umumiy qabul qilingan o‘rta ma’lumot to‘g‘risidagi guvohnoma (WO - 13 yillik maktab). Hogenscholen ga umumiy qabul talabi – umumiy qabul qilingan o‘rta ma’lumot to‘g‘risidagi guvohnoma (HAVO – 12 yillik maktab). Qabul tanlangan dastur uchun maxsus talablar orqali belgilanadi.	Ta’limning ba’zi sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud.
Norvegiya	Talabalar umumiy qabul talablarini (umumiy qabul qilingan o‘rta ma’lumot to‘g‘risida guvohnoma yoki yekvivalentining mavjudligi) va tanlangan dasturga qabul bo‘yicha maxsus talablarni bajarishlari zarur.	Ta’limning ko‘pgina sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud.
Portugaliya	Umumiy qabul talablari – umumiy qabul qilingan o‘rta ma’lumot to‘g‘risida guvohnoma yoki yekvivalent malakaning mavjudligi.	Ta’limning ko‘pgina sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud. Talabalar o‘rin taklif yetishi mumkin, ammo u tanlangan sohada bo‘lmasligi



		mumkin.
Shvesiya	Talabalar umumiy qabul talablari (umumiy qabul qilingan oʻrta maʼlumot toʻgʻrisida guvohnoma yoki yekvivalentining mavjudligi) va tanlangan dasturga qabul boʻyicha maxsus talablarni bajarishlari zarur.	Taʼlimning barcha sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud. Oliy taʼlim muassasalari talabalarni qabuli sonini cheklashlari mumkin.
Buyuk Britaniya	Umumiy qabul talablari – yuqori darajadagi ikki va undar ortiq imtixonlarni topshirish yoki yekvivalent malakaning mavjudligi, shu jumladan, GNVQ, NVQ kasbiy malakalari va BTES milliy diplomlari. Qabul bir qator umumiy va maxsus talablarning bajarilishiga bogʻliq.	Taʼlimning baʼzi sohalarida qabul qilishda cheklovlar mavjud. Oliy taʼlim muassasalari oʻz talablarini oʻrnatishlari mumkin.

Boshqa mamlakatlarda qabul tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlovlar, misol uchun, oʻrta maktab bitiruv imtihonlari fanlari majmuasi yoki oʻrganilayotgan fanlar va olingan baholar darajasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bir qator mamlakatlarda esa hanuzgacha talabalar qabuli milliy (Gresiya) yoki oliy taʼlim muassasalari (Finlyandiya) kirish imtihonlari natijalari boʻyicha amalga oshiriladi.

Koʻpchilik mamlakatlarda oʻqishga qabul qilinish talablari turli tipdagi institutlar oʻrtasida katta farqqa ega, masalan, Fransiyada Grand Ecoles1ga tanlov juda qatʼiy boʻlsa, boshqa universitet dasturlariga deyarli hech qanday cheklovlar yoʻqdir. IUT2ga ham qabul cheklangan boʻlib, bir qator mamlakatlarda bilimning alohida sohaları uchun maxsus qabul imtihonlari talab etiladi. Baʼzi mamlakatlarda yoshi katta abituriyentlarni toʻliq dastur boʻyicha qabul qilishga maʼlum bir cheklovlar belgilangan.

Turli mamlakatlarda xorijlik talabalarni qabul qilishning turli usullari mavjud. Ammo ushbu masala bo'yicha Evropa Ittifoqining me'yorlari bir xildir: Evropa Ittifoqi mamlakatlari fuqarolari davlatning o'z fuqarolarini qabul qilish shartlari asosida qabul qilinishlari shart.

Evropa mamlakatlarida qabul qilingan muhim xalqaro vosita deb, 1997 yilda qabulqilingan oliy ta'lim malakalarini e'tirof etish bo'yicha Lissabon konvensiyasi<sup>3</sup> hisoblanadi. Konvensiyada ularning ishtirokchilari o'z mamlakatlarida oliy ta'lim olish huquqini beruvchi malakalarni o'zaro e'tirof etishlari belgilangan (agar mamlakatlarda joriy etilgan qabul talablari o'rtasida keskin farq bo'lmasa). Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qoidalari 2-jadvalda batafsil keltirilgan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlar tizimlarning birxillashuvi, bir-biriga kirishib, jipslashishiga olib kelishi muqarrardir. Lekin shu bilan birga, Evropadagi har bir mamlakat o'z xususiyati, tarixi, madaniyati an'analariga ega ekanligi, ularda asrlar davomida shakllanib kelgan ta'lim tizimini bir necha yillar ichida bekor qilib, hali sinalmagan va notanish ta'lim tizimiga o'tish murakkab bo'lishini ta'kidlash zarur. Shu nuqtai nazardan, Evropa Ittifoqi mamlakatlarining ta'lim tizimlarini Qiyosiy tahlil qilish ularga o'xshash jihatlarni izlabtopishdagi boshlang'ich qadamlardan biri, deb hisoblasa bo'ladi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Boloniya ta'lim tizimi va uning jarayoni asosini nima tashkil etadi?
2. Jahon tajribasining asosiy sxemasini izoxlang?
3. Qiyosiy ta'limda milliy ta'lim tizimini aniqlash vositalarini izoxlang?
4. Yaponiyaning ta'lim amaliyoti.
5. Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimini taxlil qiling?
6. Frantsiyada ta'lim tizimini taxlil qiling?
7. Yamayka ta'lim tizimini taxlil qiling?
8. Evropa mamlakatlarida oliy ta'limning xususiyatlari va tarkibi?

### **3- bob. XXI ASR QIYOSIY TA'LIMI**

#### **3.1. XX-XXI asrlarda xorijda xalqaro ta'lim makoni**

Xalqaro ta'lim makoni – deyarli yangi tushuncha u geosiyosiy hudud, global mashtabdagi va turli mamlakatlarning maorif bo'yicha jamoat va davlat tashkilotlari, ilmiy pedagogik markazlar, barcha ta'lim va tarbiya muassalaridir. U zamonaviy dunyoning ijtimoiy hayotining turli jabhalarida intersiv baynalminallashuv sharoitida o'zaro ta'sir va munosobatlashuvini bildiradi.

1. Shimol va Janub ta'limining rivojlanishida siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari

Baynalminallashuvning eng yangi bosqichi globalashuv jarayoni bo'ldi. U jahon xo'jaligini yaxlit organizm sifatida shakllantirib, mehnatning xalqaro taqsimotini chuqurlashtirdi va madaniy aloqalarni jadallashtirdi. Milliy yoki davlat miqyosida hal qilish mumkin bo'lmagan kuchli global muammolar bilan yuzmayuz kelganda barcha insoniyat sa'yi-harakatlarini birlashishi ob'ektiv yechim topilishida yagona chora-tadbir bo'lib qolmoqda.

Mamlakatlar va xalqlarda kuchayib borayotgan o'zaro bog'lanish, turli irq, konfessiya va millatga mansub odamlar o'rtasidagi aloqalar kengayishi, umumiy qadriyatlar shakllanishida va eng yaxshi xalqaro tajribadan samarali foydalanishda qulay sharoit yaratadi. Bu esa insoniyatning kelgusi istiqbolida ijobiy taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Globalashuv bir qator jiddiy salbiy jihatlarga ham ega. Umumsayyoraviy konvergenstiya haqida eyforistik bashoratlar o'zini oqlamadi. Na davlatlararo ziddiyat, na etnik va diniy to'qnashuvlar tarix sahnasidan tushib qoldi. Mamlakat va mintaqalar taraqqiyotidagi notekis rivojlanish har qanday chora-tadbir bilan ham bartaraf etilmadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi farq nafaqat qisqarmadi, balki kengaydi. Bu esa barcha insoniyat manfaatlariga aloqador va jahonda portlovchi vaziyat hosil qiluvchi eng og'ir muammoga aylandi.

Boy va qashshoq mamlakatlar hayotining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy standartlari orasidagi farq kattaligicha qolmoqda. 1990 yillarda Dunyo Yalpi milliy mahsulotida (YaMM) boy mamlakatlar ulushi 86%ni tashkil qildi (dunyo aholisining 20% i). O'rtacha davlatlar (60%) ulushi -13%, qashshoq mamlakatlar (20%) ulushi esa 1% ini tashkil qildi. 1997 yilda aholi jon boshiga YaMM hajmi quyidagicha ko'rinish oldi (AQSH dollarida): Shveystariyada 43

ming, Yaponiyada-38000, AQSHda 29000, Fransiyada 26000, Bangladeshda-360, Burkina Fasoda-250, Nig yerda-200.

Axborot istiqboli hali global xarakter kasb etib ulgurgani yo‘q. G‘arb olamida bir necha o‘n million INTERNETdan doimiy foydalanuvchi mijozlar qayd etilgan bir paytda, Osiyo va Afrikaning ko‘plab odamlari oddiy telefondan ham hech foydalanmagan mamlakatlar taraqqiyoti postindustrial bosqichga o‘tmoqda. Rivojlanmagan mamlakatlar esa katta mashaqqat bilan sanoatlashtirishning birinchi bosqichini boshdan kechirmoqda. Ular na iqtisodiy, na siyosiy na ruhiy jihatdan jahon integrastiyasi jarayonida tenglar qatoriga munosobatga kirishishga tayyor emas. Ko‘plab mamlakatlarning “quvib yetuvchi rivojlanish” dasturiy tuzilmalarini ijobiy amalga oshirishi uchun imkoniyatlari yo‘q.

Globalashuv sharoitida insoniyat stivilizastiyasidagi turli farqlar o‘zaro to‘qnashadi. Bu dunyo amaliyotida ko‘rilmagan yangi mumammolarni keltirib chiqardi.

Globalashuv jarayoni G‘arb tomonidan, birinchi navbatda esa, jahonning qolgan mamlakatlarini o‘zining ishlab chiqarish tizimi, siyosiy va ijtimoiy-madaniy qadriyatlariga yo‘naltirishga intilayotgan AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Lekin G‘arb madaniy ekspanstiyasiga qarshilik qiluvchi turli xalqlarning ko‘p asrlik an‘analari jahon umummadaniyati yaratilishida keskin ziddiyatlar hosil qilmoqda.

“Men uyim har tomondan baland devor bilan o‘rab olinishi, derazalari mahkam tashlanishini xoxlamayman.

Men barcha mamlakatlarning madaniyat shamoli uyimda qancha mumkin bo‘lsa, shuncha esishini xoxlayman. Biroq bu shamollar meni yo‘ldan adashtirishini aslo xoxlamayman” - degan edi M.Gandi.

Globalashuv ayrim hollarda milliy chegaralarni bosib o‘tib, muayyan mamlakatlar suvereniteti va ularning xalqlari milliy o‘zligiga xavf tug‘diruvchi omil deb qabul qilinmoqda.

Bularning bari “antigloballar” harakati paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ular yoqlab chiqqan qarashlar qator mamlakatlar aholisining aksariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ammo globalashuv jarayonini to‘xtatishga urinishlar istiqbolga ega emas.

Globalashuv- hozirgi dunyo taraqqiyotida xolis tendenstiya. Uni in‘om sifatida tushunmoq joiz. Bizning vazifamiz esa, uning imkoniyatlaridan insoniyatning ezgu maqsadlari yo‘lida foydalanish

va salbiy jihatdan yoki oqibatlarini imkon qadar kamaytirishdan iborat.

Globalashuv jarayonining murakkab va ziddiyatli jihatlari ta'lim sohasida ham o'ziga xos ravishda nomoyon bo'lmoqda.

Hozirgi xalqaro ta'lim makonining asosiy xususiyatlarini tavsifi sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'lim taraqqiyoti tendensiyalari va ta'lim ahvolining o'ziga xos jihatlari qa'tiy hisobga olingan holda amalga oshirilishini talab qiladi. Biz ushbu kitobda BMT va YUNESKO rasmiy nashrlarida qabul qilingan atamalar mazmuni asosiyda fikrimizni bayon qilmoqdamiz.

Masalan, YUNESKO ning "Statistik yilnomasi" da 1999 yilda 53 davlat rivojlangan mamlakatlar sifatida qayd qilingan (Yevropaning barcha davlatlari, 1990 yilgacha Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan O'rta Osiyo respublikalari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil) qolgan davlatlar esa rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd qilingan.

Bunday bo'linish qator davlatlarga nisbatan sun'iy tarzda amalga oshirilgan. Kelgusida bu tasnif qayta ko'rib chiqishi va ayrim davlatlar, masalan Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari rivojlanayotganlar qatorida rivojlanganlar safiga o'tishi va aksincha holatlar amalga oshiriladi deb ehtimol qilamiz. Shuningdek, ayrim rivojlangan mamlakatlarda qoloq rayonlar, ayrim qoloq davlatlarda esa rivojlangan hududlar mavjud.

Ammo xalqaro tashkilot va statistik nashrlarda qabul qilingan tasniflar hali o'z kuchini yo'qotmagan. Shuning uchun qiyosiy tahlil qilish jarayonida milliy va xalqaro ko'rsatkichlar qiyoslanishini ta'minlash maqsadida aynan shu manbalarda qayd etilgan atamalar asosida tadqiqot ishlari olib boriladi.

Zamonaviy siyosiy va ijtimoiy adabiyotlarda "rivojlangan mamlakat", "rivojlanayotgan mamlakat" atamalari o'rniga ko'pincha Shimol va Janub atamalari qo'llaniladi. Bunday almashtirish qator tasavvurlar bilan o'zini oqlaganligi uchun biz ham qiyosiy tahlil jarayonida bu atamalardan tez-tez foydalanamiz. 1990 yillar boshidan G'arb va Sharq o'rtasida yuzaga kelib, dunyoni termoyadro halokati yoqasiga olib kelayotgan keskin qutublanishning uzun davri o'tmishda qoldi. Ammo bu qarama-qarshilikning susayishi Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyatlarning chuqurlashishi bilan almashdi.

Bu xalqaro ta'lim makonini batafsil tavsif qilish jarayonida ham so'zsiz hisobga olinishi kerak. Milliy va mintaqaviy farqlarni qat'iy hisobga olish zaruriyatiga oid qarashlar xalqaro ahamiyat kasb etadi. "Hozirgi kunda,- deyiladi YUNESKO nashrlarining birida,- uzoqni ko'ra oluvchi yetuk omillar tomonidan insoniyat oldida turgan asosiy muammolarning umumsayyoraviy miqyosida va global xarakteri batafsil izohlab berilgan.

Haqiqat esa, yaqin o'n yilliklarda turli davlatlarning iqtisodiy va ilmiy rivojlanishida ulkan farq saqlanib qolishini hisobga olishni talab qiladi. Global miqyosda ularni uch toifaga ajratish mumkin: industriallashtirish arafasida bo'lgan, industrial va past industrial. Bunday farqlanishga ega mamlakatlarda ta'lim taraqqiyoti istiqbollari bir xil bo'la olmaydi."

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayoni ilmiy-texnika inqilobining zamonaviy bosqichi talablari bilan bevosita aloqador. Mikroelektronika biotexnologiyadan keng foydalanish, takomillashtirilgan kompyuterlarning paydo bo'lishi mehnat va ishlab chiqarish jarayonida insonning o'rni mohiyatini o'zgartiradi. Zamonaviy jamiyat strukturasi, turmush tarzi va odamlar psixologiyasini jarayonga moslashtirdi. Iqtisodiyot aqlbovar qilmas darajada o'zgarib bormoqda. Ayrim sanoat mahsulotlari konveyerdan chiqib ulgurmay, eskirib qolmoqda. Bir avlod hayotidayoq chuqur texnologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Axborot yagona eskirmas va cheklanmagan darajada o'sib boruvchi resurs sifatida hal qiluvchi ahamiyatga aylanmoqda. Dunyoning istalgan nuqtasida bir necha soniya ichida Internet orqali axborot uzatish imkoniyati geografik imkon va vaqtga oid ming yillik an'anaviy tasavvurlarni yo'qqa chiqardi. Mahalliy ishlab chiqarish faoliyat yurituvchi aholining kasbiy-malakaviy tarkibi o'zgarmoqda.

Muhandislar va ilm, fan, maorif, sog'liqni saqlash, boshqaruv apparati xodimlari soni ortmoqda. Ilmiy taraqqiyot yoki sinov tajriba ishlab chiqarishi bilan mashg'ul yuqori malakali mutaxassislar soni sezilarli darajada ko'paydi.

Intellektual kasblar o'zining oldingi mutanosiblik ahamiyatini yo'qotib ommaviy tus olmoqda. Ishlab chiqarishning eng yangi jabhalarida malakali ishchilar va injener-texnik personal mehnati yaqinlashuvi tendenstiyasi kuzatilmoqda. Chunki malakali xodimlarning umummadaniy va kasbiy bilimlarni keng

o'zlashtirishi talab darajasiga ko'tarildi. Ammo eng yuqori texnologik tashkilotlarda ham oddiy malakali xodimlarning muayyan miqdori saqlanib qoladi.

Sanoatning avtomatsiyalashishi ishchi-xodimlar malakasining betaraf talablariga ta'siri zid xarakterga ega. Yuqori malakaga ega xodimlarga talab oshishi bilan bir qatorda, xech qanday yuqori darajadagi umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik asoslari talab qilinmaydigan bir xil maromdagi vazifani bajaruvchi operatorlar guruhining qayta ixtisoslashuvi sodir bo'lmoqda. Bunday xodimlarning nazariy bilim darajasi uncha yuqori bo'lmasada, bu holat ijtimoiy ma'sullik hissi rivojlangan bo'lishi bilan kafolatlanishi kerak.

Qimmatbaho asbob-uskunalar va avtomatlashtirilgan sanoatning barcha ishtirokchilarining o'zaro chambarchas bog'liqligi xodimdan katta diqqat e'tibor, aniqlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ishchi xodimning o'quv partasidayoq zamonaviy korxonalaridagi yangi mehnat shartlariga tez moslashishi uchun kerak bo'lgan bu xususiyatlarni o'zlashtirishi va ko'nikma hosil qilishi muhim hisoblanadi.

Tabiiyki, ta'lim darajasini ko'tarish va kadrlarni qayta tayyorlash endilikda sanoatni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalar yaratish rejalarining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

"Iqtisodiyot va ta'lim" muammosi davlat hukumatini tobora o'ziga jalb qilmoqda. Chunki ularning iqtisodiy vazifalari ulkan darajada kengaydi. Agar o'tmishda kapitalistik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosobatlarga bevosita aralashuvi favqulotda chora sifatida, urush yoki chuqur inqiroz paytlarida amalga oshirilgan bo'lsa, oxirgi o'n yilliklarda holat ichki siyosatning yetakchi an'analari bilan birga aylandi. Chunki qator g'arb mamlakatlarning o'ziga ham yirik tadbirkor hisoblanadi. U ulkan sanoat komplekslariga egalik qiladi. Shuning uchun ta'limning iqtisodiy samaradorligi ortishidan bevosita manfaatdor bo'ladi.

Hatto juda rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida ham past malakali mehnatdan foydalanish keng tarqalgan. Nihoyat, o'qish muddatini uzaytirish har doim ham o'quv va bilimning proporsional o'sishiga sabab bo'lmasligi ma'lum. Shuning uchun ishchi xodimning ishlab chiqarish salohiyatini uning qancha vaqt partada o'tirgani va bu jamiyat uchun qanchaga "tushgani" bilan baholash kerak emas. Shu bilan birga, yetarli bilimga ega ishchi

xodimlar bilan ishlab chiqarish mehnatining unumdorligi pasayishi mumkin. Chunki ular doimiy ravishda o'z ishidan, olgan bilimlariga munosib emasligi hissi tufayli qoniqmaydilar.

Iqtisodiy funkstionalizm nuqtai nazaridan sanoatning bevosita kon'yuktur talablariga javob bo'la olmaydigan ta'limni miqdoriy kengayishi, haqiqatdan ham, foydasiz. Ayrim holatlarda esa zararli hisoblanadi. Chunki ular moliyaviy va inson resurslaridan oqilona foydalanishni susaytiradi. Lekin chuqur mulohaza qilinsa, aholining bilim darajasini kuchaytirish iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishiga mos keladi. Hatto ishchi-xodimlarning ma'lum bir qismining mehnati mazmuni bevosita ularning har biridan to'liq o'rta maxsus hajmdagi nazariy bilim talab qilmasa ham bu jarayonni qoniqarli deb baholash mumkin. Bu ishchi-xodim o'zining ham manfaatlariga mos keladi.

Bilimli ishchi-xodimga avtomatlashtirilgan korxonada o'z o'rnini topib olishi oson kechadi. U zamonaviy sanoatning chuqur struktura o'zgarishlari sharoitida ham yangi ixtisoslikni tezkor va muvaffaqiyatli o'zlashtirib oladi.

Bir necha o'n yil muqaddam sanoati rivojlangan mamlakatlarda ta'limning davlat tomonidan rejalashtirishi, avvalo iqtisodiyotning kon'yunktur talablaridan kelib chiqqan edi. Undagi asosiy vazifalardan biri aholini "qayta o'qitish"ga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi. Hozirda bu muammo butunlay boshqacha qilinadi. Yangi reja tuzuvchilar endilikda "malakali zahira" konsepsiyasiga asoslanib, yangi reja tuzadilar. Ya'ni malakali kadrlarni bunday miqdorda tayyorlash bugun ortiqchadek ko'rinishi mumkin. Lekin yuqori texnologik sanoatni keyingi yillar va o'n yilliklarda rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, ta'lim taraqqiyoti istiqbollari va an'analarini faqatgina iqtisodiyot talablari nuqtai nazaridan ko'rib chiqmaslik kerak. Bu muammoni insoniylik tamoyillari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish keyingi vaqtda dunyoda keng tarqaldi. Ta'lim sohasida paradigmatic o'zgarishlar qilish vazifasi chuqurlashdi.

Bizning davrimizda, "sub'ektiv omil"- insonlar zakovati va irodasi xolis ijtimoiy qonunlarni hayotga tatbiq qilishga bevosita bog'liq bo'lgan bir paytda, yangi dunyoda ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos tushunchalari joriy qilinmoqda. Hozirgi iqtisodiy ko'rsatkichlarning muayyan miqdori emas, insonga ijodiy qobiliyatini to'la nomoyon etishga imkon beruvchi sharoit



yaratilganligi xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu o'rinda ta'limning o'rni aniq. Shuning uchun to'laqonli ta'limga ijtimoiy talab kuchaydi.

O'tgan davrlarda aksariyat davlatlarda, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham ta'lim muammolari dolzarb masala hisoblanmagan. Eng kichik zaruriy materiallar bilan ta'minlash vazifasi ham ko'pincha ortga surilgan. Hozir esa rivojlangan mamlakatlarning salmoqli qatlami uchun boshqacha turmush tarzi xarakterli bo'lib, avvalgilardan yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar va yuqori darajali ijtimoiy-madaniy yutuqlari bilan farqlanadi. Yoshlarning keng qatlami yaxshi ta'lim olishni orzu qilayotgan ijtimoiy mavqega erishish yo'lidagi zaruriy shart deb bildiradilar. Ta'lim darajasi va maosh miqdori o'rtasida sezilarli tavofut bo'lmaydi. AQSHda o'rta maktabni tugatgan ishchilar o'zi bilan tengdosh bakalavrlardan 1,5-2 marta, doktor diplomiga ega odamlardan esa 3 marta kam maosh oladi. Shunga yaqin proporsiya Yevropa mamlakatlarida ham kuzatiladi. Ta'lim pog'anisidan yuqoriga qo'yilgan har bir odam muayyan tarzda rag'batlantiriladi.

Bilimlarga ijtimoiy ehtiyoj o'rta ma'lumotli ishchilar maoshi nisbatan kamayib boradi. Oliy ma'lumotli xodimlar maoshi nisbatan ham, mutlaq ham oshib boradi. Ixtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishda moddiy rag'batlantirish tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Bu munosobatlarda Rossiya mustasno vaziyatda namoyon bo'ladi.

O'tgan so'ngi yillarda ilmiy mehnatning ijtimoiy maqomi devalvastiyasi boshqa hech bir mamlakatda xech qachon kuzatilmagan. AQSH, Yaponiya va Buyuk Britaniyada ilmiy xodimlar maoshi xalq xo'jaligi xodimga nisbatan ikki marta yuqori, Rossiyada esa ularning maoshi sanoat xodimiga nisbatan ikki marta kam. Bu so'zsiz, fanda inqirozli holatni hosil qilmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim darajasi ishsizlikdan kafolat sifatida ham ko'riladi. Bandlikning ortishi nisbatan oliy ma'lumotli shaxlar hisobiga bo'ladi. Aynan ular uchun yangi ishchi o'rin belgilanadi. To'g'ri, mehnat bozoridagi kon'yunktura ayrim mamlakatlarda ishsizlarning muayyan qismini diplomli mutaxassislar ham tashkil qilishni ko'rsatadi. Biroq ishsizlikni dastlabki qurbonlari minimal bilim darajasiga ega ishchilar bo'lib qolaveradi. Ularning orasida esa yoshlar katta yoshlilarga nisbatan 2-3 marta ziyod miqdorni tashkil qiladi.

Tabiiyki, zaruriy ta'lim malakasini olish imkoniyati masalasi mehnat qilayotgan yosh avlodni hayotga qiziqishlarini ortirradi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim muammosi, borgan sari, yangi qirralarni namoyon qilib, ijtimoiy strategiya'ning muhim jihatiga aylanmoqda. Albatta, ta'limning ijtimoiy ahamiyatga ega muammolari avvalgidek hozir ham muayyan siyosiy va g'oyaviy qarashlarda muqarrar bayon qilinadi. Mavjud ziddiyatlar bilan bir qatorda keyingi o'n yilliklarda asosiy ijtimoiy guruhlarda ijtimoiy muammolar bo'lishi muayyan kelishuvga intilish kuzatilmoqda.

Bunga ta'lim taraqqiyoti istiqboli ham aloqador. Past darajadagi kasbiy va umummadaniy bilimga ega axoli qismi, asosan yoshlar, Shimoliy mamlakatlarning aksariyati qadrllovchi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga real xavf tug'dirish mumkin.

Ko'pchilik barqarorlikning asosiy dushmani deb savodsizlik, madaniyatsizlik o'z vaqtiga zaruriy bilim ololmagan odamlardagi alamzadalikni ko'rsatdi. Yana shu narsa qayd qilish lozimki, ta'lim tizimdagi kamchiliklar mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatdoshligiga putur etishiga sabab bo'ladi. Bu xususan, AQSH uchun xarakterli. AQSHda hukumat shunday yondashuv asosida ta'lim taraqqiyoti vazifalarini o'rganadi.

Xalqaro ta'lim makonida Janub, ya'ni Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Lotin amerikasi va Afrika mamlakatlari o'ziga xos o'ringa ega. Ularning yaxlit xolda ko'rib chiqish mumkin emas. Bu mamlakatlarning turli guruhlari taraqqiyotning ko'plab ko'rsatgichlarga ko'ra farqli xususiyatga ega. Yangi industrial deyiluvchi Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari texnik-iqtisodiy munosobatlarda jadal su'ratda Shimol o'rtasidagi faqni qisqartirmoqda. U erlarda foydali qazilma qazib olish tezlashdi. Qayta ishlash sanoatining yangi jabxalari rivojlanmoqda. Ilmiy ishlab chiqarishni kuchaytirish muxum shartga aylandi.

Aynan shu yo'l bilan bu mamlakatlar globallashuv jarayoniga passiv ob'ekt sifatida emas, balki xalqaro iqtisodiy munosobatlarning aktiv sub'ekti sifatida qo'shilishiga imkoniyat yaratiladi. Zamonaviy sanoatga arzon, savodsiz, malakasiz ishchi kuchi to'g'ri kelmaydi. Unga murakkab va qimmatbaxo uskunalardan bilan muomala qila oladigan o'qimishli ishchi-xodimlar kerak. Xalqaro standartga ko'ra, bunday ishchilarning turmush darajasi pastligicha qoldi, lekin Janub aholisining qashshoq qatlamidan

sezilarli farqlanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish ta'limning salmog'li rivoji va malakali kadrlar tayorlashga yo'naltirilishni talab qiladi. Bu borada ajoyib muvaffaqiyatga erishildi.

Ta'limning ulkan iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini Janubiy Koreya misolida ko'rish mumkin. U bir necha o'n yillar avval qoloq agrar mamlakat edi. 1960 yilda aholi jon boshiga yillik YaIM 80\$ ni tashkil qilib, bu XIX asr o'rtalaridagi Yaponiya ko'rsatkichiga teng edi.

Lekin keyingi o'n yillikda tabiiy resurslarga unchalik ham boy bo'lmagan, uzoq vaqt yaponiya mustamlakasi bo'lgan, keyin esa, 1950-53 yildagi fuqarolar urushidan kuchli aziyat chekkan Janubiy Koreya rivojlangan industrial davlatga aylandi. Taxminlarga ko'ra, o'zining iqtisodiy saloxiyatiga ko'ra 2010 yilga kelib "katta ettilik" mamlakatlari darajasiga ko'tarilib oladi.

Bu olg'a siljishlar ko'p jixatdan ta'limning jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Yapon okkupastiyasidan ozod bo'lgandan ko'p o'tmay, xalq ta'limi milliy qonunchiligi asoslari yaratiladi. Maorifni rivojlantirish masalalari 1948 yilgi Konstitustiyada o'z aksini topdi. 1949 yilda ta'lim to'g'risida asosiy Qonun qabul qilinmoqda. 1952 yilda bepul majburiy boshlang'ich ta'lim, 1958 yilda kasbiy ta'limni rivojlantirish to'g'risida qonun, 1980 yilda ta'lim islohoti to'g'risida qonun qabul qilindi.

1994 yilda ta'limni kelgusi rivojlanishi yo'llarini ishlab chiqarish uchun prezident komissiyasi tuzildi. Xukumatning ta'lim muammosiga doimiy e'tibori, yirik moliyaviy sarmoyalar kiritilishi ajoyib natijalarga olib keldi. Qisqa muddatlarda savodsizlikka barham berilib, o'rta ta'lim ommaviy tus oldi.

O'rta-maxsus ta'limi beruvchi o'quv muassasalari ko'paydi. 1990 yillar oxiriga kelib universitetlarda milliondan ziyod talabalar taxsil ola boshladi. Axolining bilim darajasining sezilarli o'sishi, malakali kadrlar ko'payishi eksportbop maxsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat rivojlanishiga imkon yaratadi. Ilmiy ishlab chiqarish parklari tashkil qilinib, u yerda sanoat firmalari, tadqiqot institutlari, universitet va kollejlarning hamkorligi amalga oshirildi. Janubiy Koreya misolida boshqa qiziqarli jixat ham mavjud. Fan-texnikaning xorijiy yutuqlari diqqat bilan o'rganiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar keng rivojlandi. Minglab Koreys talabalari AQSH, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlarda tahsil olmoqda.

Lekin Janubiy Koreya'ning o'zida ta'lim va madaniyat sohasida tashqi ta'sir qa'tiy chegaralangan. Masalan, mamlakatning o'quv muassalarida Koreys millatiga mansub bo'lmagan shaxslarga faqat xorijiy tillardan saboq berishga ruxsat etilgan. Ular hatto xususiy universitetda ham shtatli professor-o'qituvchi lavozimini egallay olmaydi. Ular uchun faqatgina "mehmon-professor" maqomini olish mumkin. Tashqi dunyo bilan munosabatda bunday hushyorlikni koreyslarning asrlar davomida Xitoy, Mo'g'il, Yapon kabi millatlar zug'umi ostida yashaganligi bilan izohlash mumkin. Bu tarixiy xotira xali ham tirik.

Janubga Lotin Amerikasi ham mansub hisoblanadi. Ma'lumki, bu nom roman tillarining umumiy negizini bildiradi. Bu tillarda mintaqaning ko'pchilik aholisi so'zlashadi. 1990 yillar boshida 220 mln. kishi ispan tilida, 120 mln.-portugal tilida, bir necha million kishi frantsuzcha so'zlashar edi. Shuningdek, bu mintaqaga Vest-Indiya'ning ingilizzabon mamlakatlari ham mansus xisoblanadi. BMT va YUNESKO ning rasmiy xujjatlarida bu mintaqqa shunday ataladi: Lotin Amerikasi va Karib xavzasi mamlakatlari. Ularning etnik tarkibi juda murakkab: Argentina va Urugvay aholisining mutloq ko'pchiligi toza Yevropa ildiziga ega. Braziliya etnosi oqlar, negrlar va hindulardan; Gandi va Yamayka negrlaridan kelib chiqqan.

Qit'aning ancha rivojlangan mamlakatlari-Meksika, Argentina, Braziliya, Urugvay-keyingi o'n yilliklarda iqtisodiyotda sezilarli muvoffaqiyatga erishdilar. Bu erlarda industrilashtirish amalga oshirilib, raqobatbardosh sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Ta'lim soxasida ham olg'a siljishlar kuzatilmoqda. Maorifga jalb etilgan YaMI ulushi kengaydi, bolalarni majburiy ta'lim bilan qamrabolish kuchaydi. O'rta maktab va o'rta-maxsus bilim yurtlari soni ko'paydi. Eng yaxshi universitetlar – Meksika milliy avtonom universiteti, Buenos - Ayres universiteti, Chili universiteti xalqaro maqomga erishildi.

Bu mamlaatlarda ta'lim to'g'risida istiqbolli qonunlar qabul qilingan. 1993 yilda Argentina Milliy kongressi ta'lim to'g'risida Federal qonunni tastiqladi. Uning shiori – "Sifatli ta'lim hammaga va xar birimizga". Qonun 9 yillik majburiy ta'lim joriy etib, 15-18 yoshli bolalar uchun katta o'rta maktab yaratishni maqsad qildi. Shu yili Meksikada ta'lim to'g'risida umumiy qonun, Braziliyada esa o'n yillik dastur (1993-2003)-"bilim-ommaga" qabul qilindi. 1996

yili Braziliyada qabul qilingan. “Milliy ta’lim asoslari va asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qonun ta’lim maqsadi, uni tashkil qilish tamoyillari, davlat majburiyatlari va moliyalashtirish tartibiga oid masalalarni xal qilishga qaratildi.

Janubiy mamlakatlari ichida Lotin Amerikasi davlatlari birinchilardan bo‘lib, ta’lim integratsiyasi yo‘liga o‘tdilar.

1980 yillar boshida “YUNESKOning Lotin Amerikasi va Karib xavzasi mamlakatlari uchun «2000 yilgacha ta’lim bo‘yicha asosiy loyixa”si amalga oshirildi. 1993 yili Lotin Amerikasi davlatning maorif vazirlari ishtirokida-bo‘lib, o‘tgan majlisida “Sant’yago Deglarastiyasi” qabul qilindi. Chilida qabul qilingan bu deklaratsiyada mintaqaviy hamkorlik va pedagogik tajriba almashishni kengaytirish ko‘zda tutilgan. 1994 yilda AQSH, Kanada, va Meksika o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlikka oid uchtomonlama shartnoma tuzildi. Shu yili 31 Lotin Amerika davlati va AQSH, Bogotada bolalar va o‘smirlar ijtimoiy himoyasiga oid shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratildi.

Oliy ta’lim sohasida qilingan ishlar yanada e’tiborli. Markaziy Amerikaning olti davlati uchun oliy ta’lim isloxoti rejalari ishlab chiqaruvchi Markaziy Amerika Universitetlari kengashi faoliyati yuritmoqda. 1990 yillar boshidan “Kolumbus” dasturi amalga oshirilmog‘da. Bu dasturda 40ta Lotin Amerika va 20 Yevropa universiteti qatnashmoqda.

Bu dastur doirasida Lotin Amerika universitetlari rahbarlari oliy ta’lim ilmiy tadqiqotlarining Yevropa tajribasi bilan tanishib, universitet va sanoat firmalari bilan hamkorlik qiladilar. Biroq Lotin Amerikasini eng rivojlangan mamlakatlari ham samarali zamonaviy oliy ta’lim tizimi yaratish arafasida turibdi. Bu yo‘lda xali katta mashaqqatlar bosib o‘tilishi kerak.

Keskin ijtimoiy farq Lotin Amerikasi ta’lim sohasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Sifatli universitet oliy ta’limi va past sifatli umumiy ta’lim o‘rtasida katta farq saqlanib qolgan. Oliy ta’limni ulkan darajada moliyalashtirish umumiy maktablarga ziyon keltirmog‘da. Lotin Amerikasi davlatlarida ijtimoiy soxada mutaxassislar tayyorlashga urg‘u beriladi. Bu soxalar milliy sanoatning dolzarb talablari bilan uncha bog‘liq emas.

Iqtisodiy o‘shish va ta’lim sohasida rivojlanishda keskin farqlanish Braziliya misolida yaqqol ko‘rinadi. YaIM hajmi

bo'yicha Braziliya jahonda 8-o'rinda turadi. Janub mamlakatlari ta'lim taraqqiyotini til muammolari ham murakkablashtiradi. Mustamlaka davrida boshlang'ich maktabda mahalliy tilda ham dars o'tilib o'rta maktabda ta'lim metropoliya (Mustamlakachi) tilida joriy qilingan. Hozir bu ikki maktab ta'limi ham mahalliy tilda olib borilmoqda. Efiopiyada majburiy tartibda – axmar tili, Tanziniyada – suaxili, Bangladeshda banglu tili o'rganiladi. Ona tilida o'qishga o'tish maktab va hayot o'rtasidagi farqlarni yo'qotuvchi milliy madaniyat shakllanishiga yordam beradi.

Lekin bu murakkab va ziddiyatli jarayon misol uchun Hindistonni ko'rib chiqamiz. Bu mamlakat ko'p millatli hisoblanadi. U yerda yashovchi aholi yuzlab til va shevalarda so'zlashadi. Hindiston mustaqil bo'lgunga qadar davrda o'rta maktablarda ingliz tili hukmron bo'lgan. Mustaqil Hindiston konstitutsiyasida esa hindu tili davlat tili deb e'lon qilindi. Ingliz tili esa ikkinchi rasmiy til maqomiga ega, lekin hindu tilidan tashqari yana 14 til (assam, bengal, sanskrit, kabi) rasmiy maqomga ega.

- maxsus ta'lim maktablari - ular korrekstion maktablar bo'lib, jismoniy-aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallagan;

- texnik litseylar - o'quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta'limini beradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san'at o'rta maktablari, qizlar, o'g'il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4. Oliy ta'lim - mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni etishtirib beradi.

Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo'yicha hozir 235' universitetlar va oliy tsxnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir.

Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o'qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,236ta o'qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to'lanadi.

Turkiya hukumati «Milliy maorifining asosiy Qonuni»da maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'limga ham katta e'tibor berilgan.

Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o'qish va yozishga o'rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday muassasalar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to'la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, MTMlar turli sohalarda mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug'diradi. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo'lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo'nalishidir.

Ularning sohalar bo'yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta'lim dasturlari;
2. Kasb-hunar, texnik ta'lim dasturlari;
3. Shogirdlik va ustalik ta'limi dasturlari;



#### 4. Ochiq ta'lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san'at maktablari, qizlar amaliy san'at maktablari, yetuklik institutlari na yetuklik texnik ta'lim markazlari ham kiritilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda o'quvchilar va talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shu maqsadda til o'rgatish markazlari musiqa, xalq o'yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lag yerda dam olishni tashkil qilish hamshiralik, rassomchilik to'garaklari yo'lga qo'yilayotir, ular orqali turli tanlovlar o'tkazishni amalga oshirilmoqda.

Talabalar va o'quvchilar uchun sportning turli sohalari bo'yicha sekstiyalar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqda. Qizlar uchun esa qo'lda to'qish, bichish-tikish, pazandalik yo'nalishlaridagi to'garaklar mavjud. Ular tomonidan to'qilgan, tikilgan, tayyorlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko'rgazmada namoyish etiladi.

### **3.6. Jahon mamlakatlarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va ularni tayyorlash masalalari**

Boshqa ko'plab kasblar kabi o'qituvchilik kasbi tayyorgarligi dastlabki pedagogik ta'lim olingandagina tugamaydi. O'qituvchilarga doimiy yangilanib turuvchi talablar qo'yiladi. Professional o'qituvchi bu yangilanishlarga tabiiy ravishda o'z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish bilan erishishi lozim. O'qituvchilarni tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida ishga kirgunicha, ishga kirayotgan vaqti va ishlayotgan davri bosqichlarini o'z ichiga olishi kerak.

#### **O'qituvchilarni dastlabki tayyorlash.**

Yevropa Ittifoqining aksariyat davlatlarida(Daniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Grestiya, Irlandiya, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya) boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilarining dastlabki tayyorgarligi oliy o'quv yurtlarida kechadi. O'rta maktabning boshlang'ich sinflarida dars berish uchun o'qituvchilar oliy ma'lumotli bo'lishi kerak (Avstriya), Belgiya, Gollandiya bundan istisno.

O'qituvchilarning kasbiy va amaliy tayyorgarligi asosiy kurs bilan bir vaqtda(baravar usul) yoki asosiy kursdan keyingi, masalan, aspirantura darajasida(izchil usul) olib boriladi. Baravar usul bo'yicha kirish talablariga to'liq o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestat, ba'zi hollarda oliy ma'lumot olishga loyiqligi haqidagi sertifikat talab qilinadi. Izchil usul bo'yicha dastlabki oliy ma'lumot (universitet yoki undan boshqa)ni maxsus fan yo'nalishda egallagan talabalar muallimlikka aspirantura yoki universitetdan tashqari kurslarda tayyorlanadi.

Baravar usul o'qituvchilarining barcha ta'lim va tayyorgarligi boshlang'ich maktablarda izchil usulda yo'lga qo'yiluvchi Fransiyadan boshqa barcha davlatlarda tarqalgan. Angliyada har ikki usul ham amal qiladi, ammo maktab o'qituvchilarini tayyorlashning baravar usuli kengroq tarqalgan.

Shotlandiyada kasbiy ta'limda lektorlar pedagog darajasini egallashlari mumkin. Bu majburiy bo'lmasada, 85% lektorlar bu daraja sohibi bo'ladilar. Pedagoglar tayyorlashda lektorlar uchun albatta pedagog malakasi talab qilinadi. Oliy ta'limning boshqa sohalarida lektorlar odatda bunday malakaga ega emaslar. Hozirgi kunda universitet xodimlari uchun ta'lim kurslarida pedagogik metodlarga taya'niladi.

Lektorlardan oliy ta'limda ham, undan keyingi ta'limda ham ta'lim usullarini doimiy yaxshilab borish talab qilinadi. Bu turli sabablar bilan izohlanadi. Bir qancha davlatlarda lektorlardan yaxshi natijalarga erishish talabi qo'yilgan qoidalar mavjud. Shuningdek:

Talabalarning muvaffaqiyatlari bilan bog'liq moliyaviy pul ulushi mavjud.

1. Talabalarga har bir predmet bo'yicha so'rovnomalarni to'ldirishga beriladi. Natijalar kursdagi barcha lektorlarni jamlovchi kurs qo'mitasi a'zolari, talabalarning vakillari, ishlab chiqarish va mahalliy jamiyatlar vakillari huzurida e'lon qilinadi.

2. Ta'lim sifatini tekshirishni amalga oshiruvchi inspektor va boshqa universitet xodimlari ishtiroki.

3. Talabalarni baholovchi professionallar guruhi.

4. Yomon o'qitish mazkur kursga juda kam talabalarni to'plashga sabab bo'ladi va bu o'z navbatida kurning yopilishiga olib kelishi mumkin.

5. **Dastlabki kurslarni tasdiqlash**

6. Shotlandiya Davlat kotibi o'qituvchilar tayyorlanishini bir necha yo'l bilan nazorat qiladi:

7. -U maktab o'quvchilari ta'limi kursini tasdiqlaydi.

Tasdiqqa ega bo'lgan, sharoitlarni yaratib beruvchi homiy tashkilotlarga ko'rsatmalar beradi.

Har yili malaka oshirish kurslariga kirish talablarining eng quyi darajasini ishlab chiqadi.

Ta'lim uchun o'qituvchilar soni o'rnini nazorat qiladi.

Maktab inspektori pedagogik ta'lim sifati kafolatida muhim rol o'ynaydi.

1994 yili angliya va Uelsda o'qituvchilar tayyorgarligi agentligi (O'TA) tashkil qilindi. Uning maqsadlari quyidagicha:

Ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha sifat va samaradorlikni yaxshilash

O'qituvchilarning barcha maktablarda kurslarga jalb qilinishini kafolatlash.

O'qituvchilarning dastlab tayyorgarligi uchun davlatrejasini ishlab chiqish hamda yangi o'qituvchilar uchun davlat standarti va talablarini ko'rib chiqish.

O'TA "O'qituvchi malakasi statusining davlat standarti"ni ishlab chiqdi. Shuningdek ro'yxatdan o'tgan tashkilotlarda o'qituvchilarning dastlabki tayyorgarligi kursini muvaffaqiyatli tugatgan talabalar malakali o'qituvchi maqomi(MO'M)ga ega bo'ladilar.

Har bir kurs har bir ta'lim oluvchiga har bir standart bo'yicha alohida bahoni o'z ichiga oladi.

Talabaga quyidagi standartlar talabi qo'yiladi:

- Predmetni bilish va anglash.

- Rejalashtirish, sinfdagi o'quvchilarga ta'lim berish va uni boshqarish.

- Nazorat, baholash, jurnal yuritish bayonot va hisobot berish.

- Boshqa kasbiy talablar.

Oxirgi toifa quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarga o'zining shaxsiy va kasbiy xulqi bilan namuna bo'lish, kasbiy takomillashishi kerakligini anglash va pedagogika yangiliklari, o'z predmeti yangiliklaridan xabardor bo'lib borish.

**Umumiy o'qituvchilar kengashlari.** Shotlandiyada umumiy o'qituvchilar kengashlari (UO'K) 1965 yili tashkil qilingan bo'lib, u shotland o'qituvchilari kasbiy darajasini yaxshilash, kasbga

kirishish standartlarini belgilash va bu standartlar dastlabki tayyorgarlik kurslarida ma'lum strukturalarga erishish mumkinligiga ishonchni tarbiyalaydi. Yangi o'qituvchilar UO'Kga shartli qabul qilinadilar. To'liq a'zo bo'lish faqatgina ikki yillik sinov muddati tugaganidan so'ng amalga oshadi. To'liq a'zo bo'lgan o'qituvchilardan o'z kasbiy darajasini uzluksiz takomillashtirish, o'z-o'zini baholashni rivojlantirishga tayyor bo'lishi talab qilinadi.

Angliya va Uelsda tashkil qilingan UO'K quyidagi muammolar yechimiga yordam beradi:

- ta'lim standartlari;
- o'qituvchilar xulqi standartlari;
- o'qituvchi kasbining o'rni;
- o'qituvchining tayyorgarligi, obro'si va faoliyati;
- o'qituvchi kadrlar safini to'ldirish;
- dars berishga tibbiy jihatdan yaroqlilik.

### **O'qituvchilarni ishga qabul qilish** Vazifaga kirishish

Yangi o'qituvchi uchun dastlabki bir necha yil og'ir kechishi mumkin. Bir qancha davlatlarda (Avstriya, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Grestiya, Irlandiya, Italiya, Shotlandiya, Shveysariya) yangi o'qituvchini dastlabki tayyorgarlik kursini muvaffaqiyatli yakunlab, ishga kirish arafasida baholash davri mavjud.

Avstriyada sinov muddati bir yildan iborat. Maktab xodimi yangi o'qituvchining faoliyatini kuzatib borishga javobgar hisoblanadi. Yangi o'qituvchi yil davomida haftada bir marta pedinstitutga katnash imkoniyatiga ega.

U bu muddatni qay darajada muvaffaqiyatli o'tkazganini maktab jamoasi, ilmiy mudir, maktab inspektori va pedinstitut xodimi hal qiladilar.

Belgiyada o'qituvchi stajer bo'lgunicha 240 kun vaqtinchalik o'qituvchi bo'lib ishlashi lozim. Stajirovka yana bir yilni o'z ichiga oladi. Bir yildan so'ng stajyor faoliyatini ilmiy mudir hamda maktab inspektori baholaydi. Ilmiy mudir va maktab inspektori bayonotiga asosan mazkur o'qituvchining lavozimiga loyiq ekanligi yoki sinov muddatini yana biron yilga uzaytirish lozimligi yohud uning faoliyati umuman qoniqarsiz ekanligi hal qilinadi. Germaniyada sinov muddati bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi.

6 daraja mavjud: 1 - eng yuqori, 5 yoki 6 qoniqarsiz. O'qituvchi birinchi darajada 12 oy sinov muddatida faoliyat yuritadi, 2 - 15 oy, 3 - ikki yil.

Maktab inspektori ilmiy mudir qarashlariga asosan sinov muddati nechog'li samarali o'tganligi haqida qaror qabul qiladi.

Daniyada sinov muddati ikki yil davom etadi. Yakuniy qaror asosan ilmiy mudir axboroti asosida maktab kengashi tomonidan qabul qilinadi. Grestiyada dars o'tishning dastlabki ikki yili sinov muddati hisoblanadi. Shundan so'ng o'qituvchi maktab maslahatchilari tomonidan baholanadi. Baho ijobiy bo'lgan holda o'qituvchi o'z vazifasida doimiy qoldiriladi.

Shotlandiyada yangi o'qituvchi ta'limga muvofiq kursni tugatgan hamda UO'Kning shartli ruxsati bilan o'qituvchi hisoblanadi. To'liq ro'yxatdan utish faqatgina ikki yillik sinov muddatidan so'nggina amalga oshiriladi.

### **Yevropa modeli: O'qituvchilar malakasini oshirish**

Yevropa davlatlarida buni tashkil qilishning aniq ko'rinishini tasvirlash bir necha sabablarga ko'ra qiyin kechadi:

- Ta'lim darajasidagi farqlar.
- Muqarrar va qo'shimcha ta'lim.
- Mashg'ulot turi - davomiylik va predmetlar bo'yicha.

Malaka oshirish asosan rivojlanishning ikki bosqichida kechadi (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya). Dastavval u norasmiy va ko'ngilli ravishda, shundan so'ng ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo'ladi. Odatda ta'lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya). Bungacha dastlabki shu singari amaliyot boshlang'ich maktablarga yuklatilgan edi (Fransiya va Lyuksemburgda), Irlandiyada esa istisno tariqasida norasmiy mashg'ulot dastavval o'rta maktabga kiritilgan.

O'qituvchilar tayyorlanishi agentligi Angliya va Uelsda malaka oshirishning doimiy standartlarini ishlab chiqdi. Standartlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchilarga kasbiy faoliyatning har xil ko'rinishlarida yordam berish: takomillashuvning samarali rejasini tuzish va tekshirib borish, o'z-o'zini takomillashtirishga tayyorgarlik, faoliyat va bu yo'lda aniq maqsadni qo'ya olish;

- o‘z-o‘zini takomillashtirishda o‘quvchilarning ma’lum yutuqlarga erishishi uchun maqsadni yo‘naltira bilishni doimiy ta’minlash va ta’lim sifati;

- o‘qituvchi mehnatining asosini professional jihatdan anglashni ta’minlash;

- uzluksiz kasbiy kamolotni rejalashtirish va o‘qituvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish hamda ularning o‘quvchilariga eng yuqori foyda keltiruvchi yuksak malakaviy mashqlarni taqdim qilishga ko‘maklashish.

Shotlandiyada o‘qituvchilar malaka oshirishga bo‘lgan o‘z ehtiyojlari bilan baholanadilar. Shundan so‘ng ular bu ehtiyojlarni tajribali xodimlar bilan muhokama qiladilar. O‘rta maktabda katta o‘qituvchining vazifasiga kadrlar tayyorlash masalalari bilan ishlash kiradi. Muhokama milliy ta’limni boshqarishda, maktabda va individual rivojlanishda eng muhim ehtiyojlar doirasida o‘tadi. Xodim ehtiyoji, xoh, o‘qituvchilik, xoh, undan tashqari ishda bo‘lsin, maktabni rivojlantirish rejasining eng muhim va ajralmas qismi bo‘lib qoladi, Bu ehtiyojlarning bir qanchasi mahalliy darajada, boshqasi ta’limni boshqarish darajasida, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti yoki ekspertlar yordamida qondirilishi mumkin.

Grestiyada o‘qituvchilar joylarda har 5-6 yilda uch oylik o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarini o‘tashlari kerak. Bundan maqsad o‘qituvchilarni turli tartibdagi ta’lim sohasining eng so‘nggi yangilik va yutuqlari, o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari bilan tanishtirib borishdir.

Tadqiqotlar maktab faoliyatining samaradorligi, ta’lim muassasasining rahbarlik qobiliyatiga shubxasiz bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yaqindan beri Shotlandiyada «Direktorlarni menejment bo‘yicha tayyorlash» kurslari faoliyat yuritmoqda. Ular joylarda mashqlar orqali va turli masalalar yuzasidan materiallar e’lon qilish vositasida ta’limning yuksak standartlarini ushlab turishga imkon beradi.

Shotlandiya ofisi Shotlandiya direktorlari standartini tayyorladi. U ushbu lavozim sohibiga xos bo‘luvchi chuqur bilimlilikning asosiy o‘lchamlarini belgilab beradi.

O‘qituvchilar bilan davomli hamkorlik va o‘zaro maslahatlashuvlar jarayonida ishlab chiqilgan standart Shotlandiya rahbarlari malakasi (ShRM) ning asosi hisoblanadi. ShRMni

egallashga olib boruvchi o'qituvchilar malakasini oshirishning bu yangi ko'rinishi ayni damda qayta ishlanish bosqichida.

### **Ish joylarida tayyorgarlik o'tkazish qarori**

Fransiyada Vazir har yili kelgusi o'quv yilida o'qituvchilar tarkibini tayyorlash mashqlarida hisobga olinadigan printsiplar, rahbarlik va eng ahamiyatli narsalar. bayonnomasini ishlab chiqadi. Maktab direktori mashqlarning milliy dasturini tayyorlaydi. Quyidagilar eng zarur deb hisoblanadi:

- Bilimlarning zamonaviyligi;
- O'qitish usullarini takomillashtirish;
- Boshqaruv malakasini rivojlantirish.

Grestiya ta'lim vazirligi milliy darajadagi malaka oshirishga javob beradi. U eng zarur narsalarni aniqlaydi, masalalar qo'yadi va mashg'ulotlar shakli hamda mazmuni yuzasidan qaror qabul qiladi. Shuningdek, shunta mos qonunchilik asoslarini ishlab chiqadi. Italiyada malaka oshirish to'rt xil harakat ko'rinishidagi tayyorgarlik bo'yicha milliy dasturga asoslanadi:

- Milliy tizim;
- Mintaqaviy tizim;
- Viloyat tizimi;
- Mahalliy o'qituvchilar kengashlari.

Irlandiya Respublikasi ta'lim departamenti malaka oshirishni tashkil qiladi, belgilaydi va unga xomiylik qiladi. Bir qancha agentlar departamentga ehtiyojlariga javob beruvchi o'z takliflarini kiritadilar. Takliflar inspektorlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Shotlandiyada Davlat kotibi 75 foiz miqdor fondni alohida grantlar tizimining eng asosiy sohalariga ajratadi. Homiylik jabhasi departament tomonidan ta'lim boshqaruvi avvaldan xabardor inspektorat ishtirokida ko'rib chiqiladi.

### **Kurslarga muqarrar va erkin qatnashish**

Yevropaning bir qancha davlatlarida davomiyligi bir necha kun bo'lgan majburiy malaka oshirish haqida qaror qabul qilingan (Finlyandiya, Irlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya). Boshqa mamlakatlarda bir kunlik konferenstiyalarga ishtirok etish majburiy hisoblanadi (Belgiya va Fransiya).

Belgiyada har yili mahalliy inspektorlar tomonidan ish joylarida uyushtiriladigan ikki-uch kunlik kurslarga qatnashish majburiydir. Inspektorlar tomonidan qo'shimcha kurslar ham tashkil qilinishi mumkin, biroq ularga qatnashish majburiy emas. Shotlandiyada

o'qituvchilarga tayyorgarlik uchun har yili 5 kun ajratiladi va uning berilishiga ta'lim bo'limi javob beradi. 50 soat minimum ishni rejalashtirish vaqti (IRV) har yili o'qituvchilarning maktabning kengroq miqyosdagi ehtiyojlari uchun ajratiladi. Ta'lim rejasini qayta ishlash, o'qituvchilar malakasini oshirish, maktabning ichki aloqalari, kasbiy kamolot, pedkengash va ta'lim bo'limi yig'ilishlarida kasbdoshlar bilan uchrashishni misol qilish mumkin. O'qituvchi 50 IRVning 20 soatini direktor ko'magida individual ish uchun ajratish huquqiga ega.

Butun professional faoliyati davomida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Fransiyada o'qituvchilarga tayyorgarlik kurslarida ishtirok etish uchun(36 hafta) kredit ajratiladi. Ularga kurslarga o'z ixtiyori bilan qatnashishi huquqi beriladi. Ularning qatnashuvi ta'lim bo'yicha tuman inspektorati tomonidan rag'batlantiriladi. Niderlandiyada o'qituvchilar malakasini oshirishning qiziq o'ziga xosligi bor - ularda hatto ishsiz o'qituvchilar ham mashg'ulotlarda ishtirok etish huquqiga ega.

Yevropa Ittifoqining har bir davlatida joylarda tayyorgarlik o'tkazish uchun qanchadan pul sarflanishini aniq aytish qiyin. Biroq shuni aytish lozimki, mashg'ulotlarga ajratilgan mablag' ta'lim uchun ajratilgan umumiy mablag'ning 1 foizga yaqinini tashkil etadi.

Bir qancha davlatlarda (Angliya, Niderlandiya, Shotlandiya) o'qituvchilar tayyorgarligiga ajratilgan mablag' maktablarga beriladi. Maktablar o'z ehtiyojlarini o'zlari aniqlaydi yoki ularni mavjud vositalar, ba'zan tashqi agentlar yordamida belgilaydilar. Bu ehtiyojni qondirish tizimini yaxshilash hamda ish sifatini oshirishga olib keladi. Hukumat zimmasida mashg'ulotlarni milliy tashabbus miqyosida mablag' bilan ta'minlash vazifasi qoladi.

Angliya va Uelsda o'qituvchilar malakasini oshirishni mablag' bilan ta'minlash uch manba asosida shakllanadi:

- Hukumat miqyosida. Bunda fond mahalliy ta'lim organlari vositasida taqsimlanadi.

- Mahalliy ta'lim bo'limlarining o'z mablag'lari. Bir qismi maktablarga berilib, bir qismi o'qituvchilarni joylarda tayyorlashga ajratiladi.

- Malaka oshirish mashg'ulotlarini mablag' bilan ta'minlash fondi. O'qituvchilarni tayyorlash agentligi maktab o'qituvchilari uchun ochilgan kurslarga homiylik qiladi.



Angliya va Uelsda 23000 boshlang'ich va o'rta maktablarning 400000 o'qituvchisini qayta tayyorlash uchun har yili 800 millionga yaqin dollar sarflanadi.

Norvegiya hukumati malaka oshirish kurslariga o'qituvchilarning qatnashuvini mablag' bilan qo'llab-quvvatlashni o'z zimmasiga oladi. O'qituvchiga islohotlar bilan bog'liq predmet bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va boshqa maktab masalalari bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklanadi. Daniya'ning har bir maktab boshqaruv kengashi yillik byudjetdan o'qituvchilar malakasini oshirish uchun kerakli mablag'ni ajratishni zim- masiga oladi. Har bir maktab direktori maktabning o'qituvchilarni qayta tayyorlash siyosatini aniqlaydi, har bir mashg'ulot turiga fond ajratish, o'qituvchilarni kurslarga taqsimlash masalalarini bajaradi.

Gretsiya ta'lim vazirligi o'qituvchilarni tayyorlashning barcha turlari bo'yicha mablag'larni rejalashtirish va boshqarishga javob beradi. O'z vaqtida mintaqaviy boshqaruv organlari ijro etuvchi rolini o'ynaydi.

5 oylik tayyorgarlik kurslarini yo'l-yo'lakay o'tovchi doimiy o'qituvchilar hali ishga kirmagan, tayyorgarlik bosqichini o'tagan o'qituvchilar bilan almashadilar. Belgiyada o'qituvchilar ta'tilga chiqqanida o'qituvchilar uchun 2-3 kunlik tayyorgarlik kurslari uyushtiriladi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirishni o'tkazishning asosiy tomonlari:

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini o'z predmeti bo'yicha oshirish;

- o'qitishning yangi usullarini o'rganish;

- tajriba almashish va tajribali pedagoglarning ta'limi;

- kompyuter malakasini o'rganish va takomillashtirish. Asosiy zaif tomonlar:

- o'qitishning yomon usullari;

- zarur va zamonaviy adabiyotlarning etishmasligi;

- malaka oshirish institutlaridagi yomon sharoit;

- keraksiz predmetlarning ko'pligi;

- kompyuter texnologiyasini egallashining past darajasi;

- yuksak malakali pedagoglarning etishmasligi.

O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish usullari:

- chet davlatlarda stajirovka va chet el tajribasini o'rganish;

- malaka oshirish institutlariga tajribali ma'ruzachilarni jalb qilish;

- zamonaviy metodik adabiyotlarning qo'llanilishi;

- kompyuter malakalarini o'zlashtirish;

- malaka oshirish institutlarining mintaqaviy filiallarini tashkil qilish;

- o'qitishning zamonaviy usullari;

- amaliy mashg'ulotlar ustuvorligi;

- o'quvchilar fikriga e'tibor berish;

- o'quvchilar ehtiyojlariga katta e'tibor berish

O'qituvchilar doimiy kasbiy rivojlanishda o'z ehtiyojlarini aniq belgilay oladilar. Ular o'qitish usullarini boshqa tajribali o'qituvchilar bilan muhokama qilib aniq baholay oladilar va kompyuter malakalarini takomillashtiradilar. Bir vaqtda o'qituvchilarning aksariyati ma'ruzalarni qiziq emas va zerikarli, o'qitish usullarini yomon va ba'zilar xatto malaka oshirish institutlariga qatnashish vaqtni va pulni bekorga sarflash deb hisoblaydilar.

Vaziyatni o'zgartirishning birinchi usuli - chet el tajribasini qo'llash hisoblanadi.

Yevropada o'qituvchilar tarkibini takomillashtirish talablarini tahlil qilish an'anasi shakllangan. Rivojlanish rejasi mavjud institutlarda takomillashish zarurati xodimlar bo'yicha yig'iladi va jamoatchilik e'tiboriga havola qilinadi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Yevropada o'qituvchilarni dastlabki tayyorlash masalalari qanday amalga oshiriladi?

2. O'qituvchilarni ishga qabul qilish qoidalari nimalardan iborat?

3. O'qituvchilar malakasini oshirish qoidalari.

4. O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish qanday amalga oshiriladi?

5. Yevropada o'qituvchilar tarkibini takomillashtirish tartibi.

## XULOSA

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi" qabul qilindi. Uning to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohaga mo'ljallangan bo'lib, xuddi shu yo'nalishda yoshlarga doir siyosat olib borish, ta'lim sohasidagi amalga oshiriladigan vazifalar belgilandi.

Shu masala bo'yicha hozirgi kunda Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqildi. Bu dasturda mamlakatimizda kelgusi besh yilda ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar, o'quv jarayoni, ilmiy soha yoki yoshlarning ma'naviyatini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar o'z aksini topdi.

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda ayniqsa, o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi o'rni beqiyosdir. Shu bilan birga ta'lim beruvchidan xorijiy tajribanni chukur urganish xam talab etiladi. Negaki, ta'limni, ilm-fanni rivojlantirish tajribasiz kechmaydi.

2020 yilning 24 yanvaridagi Murojaatnomadagi quyidagi fikrlarga diqqat qaratish muhim: Har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart. Bundan ko'rinib turibdiki, bevosita ta'lim tizimlari, dasturlari, ilm-fanning yangi yo'nalishlari tadqiq etilishi uchun jahon tajribasi katta axamiyatga ega.

Ushbu "Qiyosiy ta'lim" o'quv qo'llanmasi yuqoridagi teran fikrlarning va vazifalarning kichik ijrosini ta'minlashi muqarrar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

2. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 21 fevraldagi nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida Qarori.-2017 yil 13 sentyabr.- (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 38-son, 1029-modda)

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-20000 nusxa.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.-2017 yil 20 aprel.- (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni.-2018 yil 25 yanvar .- (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2018 yil 5 iyun

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.-

2017 yil 20 aprel.- (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

9. Oliy ta’lim muassasasi profesor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “Ustoz-shogird” ishlarini belgilash qoidalari to‘g‘risida.- O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 10 oktabrdagi №850-son buyrug‘i.

10. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. вузов / Под ред. Э. С. Полат.-3-э изд., испр. и доп.-М.: Изд. центр "Академия", 2008.

11. Современные методы преподавания в вузах: учебно-метод. пособие.-Т.: М-во высш. и сред. спес. образования. Ин-т проблем высш. и сред. спес. Школы. 2001.-192 с.

12. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zakirova.F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. –Т.: Aloqachi, 2004.

13. Пащенко О.И. Информационные технологии в образовании: Учебно-методическое пособие.-Нижевартовск: Изд-во Нижеварт. гос. ун-та, 2013. — 227 с.

14. Громкова М.Т. Психология и педагогика профессиональной деятельности: учеб. пособие для системы дополн. проф. образования и студ. вузов / М. Т. Громкова.-М.: ЮНИТИ, 2003.-415 с.

15. Рогинский, В. М. Азбука педагогического труда:-М.: Высш. шк., 1990.

16. Полякова А.А. Педагогика тесты и задания. Учебное пособие для студентов средних специальных учебных заведений.-М.: «Владос». 2004.

17. Морева Н.А. Педагогика среднего профессионального образования. Практикум.-М.: «Академия».-2008.

18. N.Xo`jaev, D.Tojiboeva, B.Mamarahimov, N.Shomurotova. Kasbiy ta’lim metodikasi. Toshkent.: Iqtisodiyot, 2007.-190 b.

### **Internet saytlari**

1. Информатика в образовании (**[informatka.ru](http://informatka.ru)**)

2. Методика преподавания информатики.  
([www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm](http://www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm)).

3. Методическая копилка учителя информатики  
(<http://www.metod-kopilka.ru/>)

4. Методические материалы для учителя информатики (<http://www.phis.org.ru/informatika/>)

5. Тесты по информатике и информационным технологиям (<http://altnet.ru/mcsmall/index.htm>)

6. [www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)

7. [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru)

8. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)

9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## GLOSSARIY

**QIYOSIY TA'LIMI** - Qiyosiy ta'lim yoki komparativistika dastlab falsafa fanlari sohasida shakllangan bo'lib, turli masalalarni, jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muammolarining jahon mamlakatlarida rivojlanish masalalarini ham o'rgangan.

**TA'LIM** - bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni bo'lib, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida bilim o'zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta'limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi g'oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta'limning mohiyati, maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o'zgarib, takomillashib boradi.

**TA'LIMNI BAHOLASH** - pedagoglar tomonidan baholash va ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni o'quvchilarning o'zlari baholashlarini joriy etish; chetga og'ish aniqlanganda ularning sabablarini aniqlash, ko'nikmalar va bilimlarda topilgan kamchiliklarni to'lg'azish, rejalashtirilgan yangi vazifalarni loyihalashni ham nazarda tutadi.

**TA'LIM USLUBI** – o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirlar.

**O'QITISH** – o'qituvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

**DIDAKTIKA** – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'qishni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

**DIDAKTIKANING PREDMETI** – ta’lim-tarbiya muassasasi sharoitda muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o‘quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta’lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta’lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o‘qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo‘llari hamda ta’limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

**METODIKA** – Pedagogikaning o‘qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib baholash metodi hamda vositalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog‘idir. Har bir o‘quv fani o‘qitish sohasi o‘rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko‘rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

Maqsadga etishda muayyan to‘siqni engib o‘tish uchun qo‘llaniladigan tadbir va choralar majmuini **USUL** deyiladi.

**O‘QITISH METODIKASI** - bu turli usullar tizimi bo‘lib, o‘quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlar paytida qo‘llaniladigan usullar majmuasidir.

**KASBIY PEDAGOGIKA** – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo‘lib, u tarbiya, ta’lim, o‘qitish haqida qator nazariy va amaliy ma’lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug‘ullanadi.

**GIPOTEZA** - bu ilmiy asoslangan taxmin bo‘lib, u keyinchalik eksperimental va nazariy jihatdan tasdiqlanishi zarur

**KASB TA’LIM TEXNOLOGIYASI** - butun o‘qitish va o‘qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimi usuli bo‘lib, u maqsadga erishishga yo‘naltirilgan holda insonlarning o‘rganish qobiliyati va ular o‘rtasida muloqot to‘g‘risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug‘ullanishga asoslanadi.

**TA’LIM MUASSASASINI RIVOJLANTIRISH KONTSEPTSIYASI** - ma'lum bir ta'lim muassasasining rivojlanish jarayoni istalgan holatga o'tish jarayoni sifatida tasvir, model, g'oyalar to'plami, g'oyalar.



**KASBIY TA'LIM METODIKASI**- ijtimoiy hayotning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog'idir.

**KASBGA YO'NALTIRISH** – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tarbiyalanuvchiga ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishning ma'rifiy jarayoni.

**ETNOPELAGOGIKA** - bu ommaning pedagogik qarashlari, ularning yosh avlodni tarbiyalash tajribasi haqidagi fan.

**QOBILIYAT** – kishiga tabiatdan berilgan iqtidor layoqat.

**OG'ZAKI (RITORIKA)** - so'z san'ati sifatida notiqlik ilmi

**METOD** – iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatib) voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuasidir. Metod aslida insonning amaliy faoliyati negizida vujudga kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o'qish, o'rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko'rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

**METODOLOGIYA** – metod va logiya iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi. Demak, metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponentidir.

Metodologik bilimlar, eng avvalo, muayyan faoliyat turlarining mazmuni va izchilligini o'ziga qamrab olib, odat hamda me'yorlar shaklida, ikkinchidan, amalda bajariladigan faoliyatning ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. Har ikkala holda ham bilimning asosiy vazifasi bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish yoki biror ob'ektni amaliy o'zgartirishdan iborat.

**MA'LUMOT** - u ikki ma'noda ishlatilib, ikkisi xam pedagogikaga tegishli.

1. Xabar – o'qish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishining unga talabgor bo'lganlarga bilim berishi, etkazishi. Ma'lum qilish deb, til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir.2. Bilim darajasi. O'qish, bilish, ya'ni borliqdagi ob'ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig'indisi – past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va xokazo.

**PORTFEL** - mutaxassis o'z faoliyatining barcha yo'nalishlarini va yutuqlarini namoyish etadigan usullar yoki vositalar to'plami; harakatlar, taraqqiyot, yutuqlarni namoyish etadigan asarlar to'plami; o'quv faoliyatini nazorat qilish uchun ishlatiladigan dalillarni muntazam va maxsus tashkil etilgan joy.

**MA'RUZA** – bilimni so‘z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og‘zaki bayon qilishni ko‘zda tutib, o‘z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

**QIYOSIY PEDAGOGIKA** - Qiyosiy pedagogika ma'lum ijtimoiy tizimlarda ta'lim, tarbiya va ta'limning xususiyatlarini o'rganadigan pedagogikaning bir sohasi.

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA** - ta'lim va tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnikaviy tafakkur asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq tushunchadir.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YuNESKOning ta'rifi bo'yicha, «**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA** – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib, butun ta‘lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda majmuli yondashuv usulidan foydalanishdir».

**PEDAGOGIK TAMOYIL (PRINSIP)lar** – o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabatda beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek o‘quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari va shular oralaridagi zaruriy bog‘liqlik (qonuniyat)lardan kelib chiqqan qoidalar.

**PEDAGOGIK TAJRIBA** - ta'lim-tarbiya beruvchi tomonidan ma'rifatning tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirish hamda ularni amalda qo'llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etishdir.

**PEDAGOGIK MUXIT** – ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo munosabatlar majmui.

**PEDAGOGIK MULOQOT** – bevosita ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muloqot turi.

**ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBA** – o‘qituvchi tomonidan ma'rifat fanining tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning usul va

uslublarini yaxshi o'zlashtirib ularga ijodiy yondashgan xolda, nisbatan samaraliroq usul yoki uslub yaratish tushuniladi.

**TA'LIMYIY KENGLIK** – ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya'ni tashqi atrof – muhit bilan o'zaro harakat anglanadigan va amalga oshiriladigan kenglik. Pedagogik jarayonda ta'limiy kenglikning son va sifat jihatdan tavsifi asosan pedagogga, uning ichki madaniyati, dunyoqarashi, qarashlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat aniq mazmunni egallashga, balki, ekologik madaniyat, ma'naviyat, umumiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashqi va ichki ta'limiy kenglik kasbiy faoliyatning ahamiyati bugungi kun ta'limining eng dolzarb muammolaridandir.

Muayyan ilm soxasi yoki tarmoq ilmi tadqiqotlarni aniq bir majmuiga qaratishi shu ilmning **TADQIQOT OB'EKTI** deyiladi.

Majmuni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi funksional aloqadorlik ma'lum narsa yoki hodisaning alohida jabhasi xisoblanib, ilm uchun **TADQIQOT PREDMETI** vazifasini o'taydi.

**USLUBIYOT** – pedagogika soxasidagi tarixan tarkib topgan va aniqlangan atama, tushuncha va qonuniyatlardan foydalanib, didaktika tamoyillariga asoslangan holda ta'lim va tarbiya berishning usul va uslubiyotini yaratuvchi va ularni boshqalarga o'rgatuvchi ilm-fan tarmog'idir.

**BILIM-** bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o'zi mavjud. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot (axborot) orqali o'tadi.

**O'Z-O'ZINI TARBIYALASH** - bu shaxsning o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi tarbiyalash, ijobiy va salbiy shaxsiy fazilatlarni engishga qaratilgan ongli, maqsadli faoliyati.

**KO'NIKMA** deganda odamning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi.

**MALAKA-** kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o'tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi.

Ko'nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

**MAHORAT-** o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

**BAHOLASH-** ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat bo'lgan jarayondir.

**MILLIY PEDAGOGIKA** - Davlat konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" hamda istiqbol rejalanih dasturlari, jamiyatning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari va jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan ta'lim tarbiya nazariyasi, usul va uslublari majmui tushuniladi.

**MA'NAVIYAT** – bu shaxsning egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat'iy nazar) uning hayotida bir necha bor takrorlanishi natijasida ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tib, ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan ijobiy ijtimoiy sifatlaridir.

**ILMNING TADQIQOT OB'EKTI** – muayyan ilm sohasi yoki tarmoq ilmi tadqiqotlarini bir majmuaga qaratish.

**ILMNING TADQIQOT PREDMETI** – majmuani tashkil qiluvchi qismlar orasidagi funksional aloqadorlik ma'lum narsa yoki hodisaning alohida jabhasi hisoblanadi.

Narsa yoki hodisaga etishish bo'yicha inson tomomidan maqsad qilib qo'yilgan, ammo ilmiy asoslanmagan bo'lsada, mantiqan bog'liq tadbirlar majmuiga **TAXMIN (GIPOTEZA)** deyiladi.

Maqsadga etishish taxmini mavjud qonuniyatlarda asoslab berilgan bosqichni konsepsiya yoki ilmiy asoslangan **TAXMIN** deyiladi.

Maqsadga etishish taxmini mavjud qonuniyatlarda asoslab berilgan bosqichni **KONSEPSIYA** yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.

Ilmiy aslanib, maromiga etkazilgan taxmin konsepsiyaga aylanadi. Har qanday ilmiy asoslangan loyihani amalda sinab ko'rish talab qilinadi. Maqsadga etishishning ilmiy asoslangan loyahasini amalda sinab ko'rishni **TAJRIBA** deyiladi.

**NAZARIYA** deb tafakkurning barcha bosqichlaridan o'tgan va amaliyotda sinab ko'rib maromiga etkazilgan bilimlar majmuiga aytiladi.

**EVOLYUTSION PEDAGOGIKA** - (V.P. Vaxterov) ta'limni bola rivojlanishining tabiiy qonuniyatlariga mos keladigan kognitiv faoliyat jarayoni sifatida tushunish.

**ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARI** - zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba hisoblanadi.

**ELEKTRON O'QUV NASHRI** - ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

**ELEKTRON KUTUBXONA** - o'quvchi hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta'minlangan, to'liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va etkazish imkoniyatini ta'minlovchi dasturli majmuadir.

**ELEKTRON O'QUV QO'LLANMASI** - darslikni qisman yoki to'liq almashtira oladigan yoki to'ldiradigan rasmiy tasdiqlangan elektron o'quv nashri.

**ELEKTRON DARSLIK (ED)**-kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan.

**EKSPERT BAHOSI** - tekshirish (ekspert bahosi) natijalari bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan o'tkazilgan baholash, masalan, ta'lim muassasasini litsenziyalash paytida.

**EKSPERIMENTAL PEDAGOGIKA** - XIX-XX asr oxirlarida G'arb pedagogikasida vujudga kelgan yo'nalishlardan biri. Uning eng mashhur vakillari: nemis o'qituvchilari va psixologlari A. Lai, E. Meyman, Amerikalik S. Xoll, E.Torndike va rus psixologi A.P. Nechaev.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMINI  
2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI  
TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

b) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan «Yo'l xaritasi» orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini (keyingi o'rinlarda - Kengash) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish,



o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta'lim berishda qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligiga xolisona baho berish;

ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

oliy ta'lim muassasalarida shaffoflik, xolislik va ob'ektivlikni ta'minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

#### 4. Belgilab qo'yilsinki:

Kengashning faoliyati natijalari, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hay'at majlisida yiliga kamida ikki marta Kengash a'zolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi, natijasi yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinadi;

Kengash tomonidan tayyorlangan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, tarkibida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar hamda oliy ta‘lim muassasalari tomonidan majburiy tartibda ko‘rib chiqiladi, ular Kengashga vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko‘mak beradilar, so‘ralgan zarur ma‘lumotlarni taqdim etib boradilar;

Kengash faoliyati natijalari, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda Kengash faoliyatini tashkil etish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilsin.

5. Ta‘lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida davlat oliy ta‘lim muassasalari (O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi tizimidagi oliy ta‘lim muassasalari bundan mustasno) rahbar xodimlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishini bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idorani xabardor qilgan holda amalga oshirish tartibi joriy qilinsin.

Bunda oliy ta‘lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma‘lumotlar, jumladan mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa oliy ta‘lim muassasasi kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to‘g‘risida taqdim etilgan hisobot oliy ta‘lim muassasasi veb-saytiga joylashtiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi:

2019 yil 1 dekabr kuniga qadar 2030 yilga qadar respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings,

Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritishni, bunda mazkur oliy ta‘lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

har yili 1 dekabrga qadar o‘tayotgan yil bo‘yicha tasdiqlangan «Yo‘l xaritasi» bajarishi yakunlarini puxta o‘rganish asosida Konsepsiyani kelgusi yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

«Yo‘l xaritalari»ning bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring yuritsin va uning natijalarini har chorakda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borsin.

7. Quyidagilar mazkur Farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Oliy ta‘lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

oliy ta‘lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzar), grantlari mablag‘lari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

8. Quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimovga - mas‘ul vazirliklar va idoralarning Konsepsiya hamda «Yo‘l xaritalari» ni bajarish bo‘yicha faoliyati va o‘zaro hamkorligini samarali tashkil etish, «Yo‘l xaritalari» bajarilishini

monitoring qilish davomida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, mas'ul vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlariga - Konsepsiya va «Yo'l xaritalari» da nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarish;

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidovga - Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

9. O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida mazkur Farmonning maqsad va vazifalarini keng yoritish bo'yicha chiqishlar va tematik ko'rsatuvlar tashkil etsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abduhakimov zimmasiga yuklansin.

# **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV**

Toshkent sh.,

2019 yil 8 oktabr,

PF-5847-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi

PF-5847-son Farmoniga

1-ILOVA

## **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish**

### **KONSEPSIYASI**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

#### **2-bob. Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar**

Bugungi kunda respublikada 114 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

2019/2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 4,5 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 84 tani tashkil qilmoqda (2017 yilda

48 ta). So‘nggi 3 yilda 1 693 nafar professor-o‘qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga yetdi (shundan 2 130 nafari fan doktori (DSc), 7 506 nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy salohiyati 5,1 foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta‘lim muassasalarining 1 611 nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta‘minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta‘lim olishga qabul qilindi.

«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali 46 nafar professor-o‘qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi ta‘minlandi.

2017 — 2019 yillarda ta‘lim jarayoniga 1 154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar).

Oliy ta‘lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirildi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta‘lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

a) oliy ta‘lim bilan qamrov va ta‘lim sifatini ta‘minlash sohasida:

oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda;

amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan, o‘quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda;

oliy ta‘lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o‘zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga

qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas;

talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;

ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi;

professor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda;

o'quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;

oliy ta'lim muassasalarida fan olimpiadalarini o'tkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g'oliblari bilan ishlash tizimli ravishda yo'lga qo'yilmagan;

iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas;

pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o'quv mashg'ulotlari o'tkazish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilinmagan, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;

oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;

b) ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:



oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollardan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo'lga qo'yilmagan;

innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmagan;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etmoqda;

ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi 49 bo'lib (fan doktorlari — 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari — 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqda, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etmoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilmagan;

so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamaymoqda;

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmagan;

v) oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash sohasida:

talabalar turar joylari, kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan;

oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlanish darajasi yetarli emas, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv laboratoriya uskunalarning salmog'i atigi 10 foizni tashkil etadi, shu bilan birga o'quv jarayoni laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi,

biologik materiallar va boshqa ob'ektlar) bilan yetarlicha ta'minlanmaydi;

oliy ta'lim muassasalari moliyaviy xarajatlarining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni yangilashga, bino va inshootlarni ta'mirlashga yetarlicha mablag' yo'naltirilmayapti;

g) oliy ta'limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash sohasida:

respublika oliy ta'lim muassasalari xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, ularning rasmiy veb-saytlari Webometrics xalqaro reytingining 1 000 talik ro'yxatiga kirmagan;

ta'lim dasturlari va talabalar bilimni baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan;

mavjud talabalar turar joylari hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari xorijiy talabalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;

xorijiy fuqarolarni mamlakatimizda ta'lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ'ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar (O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari kunlarini tashkil qilish, taqdimotlar o'tkazish va boshqalar) yetarli darajada tashkil qilinmagan, bu borada interaktiv virtual platforma mavjud emas.

### **3-bob. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari**

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi mazkur Konsepsiya ilovasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual

qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish; yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

### **1-§. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish**

Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek

investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish;

xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta'lim va ilm-fan markazi — Prezident universitetini tashkil etish;

oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

oliy ta'lim muassasalarining quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to'lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat granti asosida kadrlar tayyorlash parametrlarini bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tanlov o'tkazish yo'li bilan taqsimlash mexanizmlarini joriy etish;

xotin-qizlarning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, ta'lim olishda gender tengligi tamoyillari ustuvorligini ta'minlash, mahallalar, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida muntazam ravishda xotin-qizlarni oliy ta'limga keng jalb qilishga yo'naltirilgan keng targ'ibot ishlarini olib borish;

ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish;

individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;

mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

talabalar bilimni baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisligini ta'minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;

fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish;

gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tillarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog'ini oshirib borish;

magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish;

o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish;

tanlov asosida aniqlangan va o'quv adabiyotlariga mualliflik qilayotgan professor-o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasini taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, bunda ularning umumiy yillik yuklamalarida o'quv adabiyotlarini yaratish uchun ajratilgan vaqtni dars o'tish yuklamasi vaqti hisobidan oshirishni nazarda tutish;

imkoniyati cheklangan talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta'limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish;

fan sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash

jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda «tyutorlik» tashkiliy-  
metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil  
ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish;

xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, talaba-  
yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi,  
o'quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar bo'yicha talabalar fikr-  
mulohazalarini o'rganish maqsadida ular o'rtasida har yili  
respublika miqyosida milliy so'rov o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish  
kurslarida o'quv-pedagogik va ilmiy faoliyat yuritish uchun xorijlik  
yuqori malakali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar, ta'lim va  
ilm-fan sohasida faoliyat yuritib, salmoqli yutuqlarga erishgan, yurt  
rivojiga hissa qo'shish istagida bo'lgan xorijdagi vatandoshlarni jalb  
etish, bu borada ularga akademik va infratuzilmaga oid qulayliklar  
yaratib berish;

yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlarni ta'lim  
jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish,  
muayyan ko'rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash  
tizimini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash  
tizimlari sertifikatlariga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal  
o'zlashtirgan professor-o'qituvchilar va talabalar ulushini tizimli  
ravishda oshirib borish;

«El-yurt umidi» jamg'armasi ko'magida professor-  
o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka  
o'tash, magistratura va doktoranturada o'qitish orqali ularning  
kasbiy mahoratini oshirib borish;

ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lgan amaliyotchi  
mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb qilish, professor-  
o'qituvchilarning tegishli soha korxonasi va tashkilotlarida stajirovka  
o'tashini tizimli tashkil etish;

ijtimoiy soha va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari  
mutaxassislari uchun uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash  
tizimlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik

asoslarini takomillashtirib borish, bu borada masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ishdan ajralmagan holda o'qishini ta'minlash maqsadida sirtqi va kechki ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish;

iqtisodiyotning zamonaviy talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlarini takomillashtirib borish;

talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish;

respublika oliy ta'lim muassasalaridaro ichki akademik mobillik dasturlarini, o'zaro tajriba almashish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida professor-o'qituvchilar va doktorantlar akademik mobilligi dasturlarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida bitiruvchilarning attestatidagi o'rtacha bahoni inobatga olgan holda, ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lgan fanlardan milliy va xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish;

milliy baholash tizimi sertifikatlari taqdim etiladigan fanlar ro'yxatini kengaytirish, bunday xizmatlar ko'rsatadigan davlat va nodavlat muassasalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

oliy ta'lim muassasalari fan olimpiadalarini o'tkazish tartibini takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash, baholash mexanizmlarini xalqaro olimpiada va tanlovlar mezonlariga moslashtirish.



## **2-§. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish**

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta'minlovchi «Elektron universitet» platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish asosida uning milliy tizimini yaratish;

xalqaro moliya tashkilotlari ko'magida oliy ta'lim sohasidagi o'quv-uslubiy, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatishga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan va muntazam yangilanib turadigan oliy ta'limning yagona axborot platformasi — «Oliy ta'lim boshqaruvi axborot tizimi» ni ishga tushirish, unda vakant o'rinlarga o'tkazilayotgan tanlovlarga oid e'lonlarni hamda arizalarni onlayn qabul qilish imkoniyatlarini nazarda tutish.

### **3-§. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish**

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalari tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi «spin-off» va «spin-out» korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirkorlikni rivojlantirish;

xalqaro SsiVal axborot-tahlil tizimi yordamida jahondagi ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilib borish asosida ilm-fanning ilg'or yutuqlari bilan uyg'un rivojlanishini ta'minlash;

nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish;

xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e'lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich «Xirsh» indeksi (h-indeks) yuqori bo'lgan olimlar, professor-o'qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borish tizimini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko'tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish;

ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;

jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish;

Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O'quv-amaliy to'qimachilik

texnoparki hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi «Xorazm» innovatsion texnoparkining faoliyati samaradorligini oshirish;

xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish orqali innovatsion faoliyat infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida «Hujayra va molekular biotexnologiya», «Tibbiy genetika», «Ekofiziologiya», «Materialshunoslik», «Energiya tejovchi texnologiyalar, nazorat-o‘lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar», «Qurilish materiallari» hamda «Oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyasi» yo‘nalishlari bo‘yicha 7 ta oliy ta‘lim muassasalariaro ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini ta‘minlash va rivojlantirib borish;

ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta‘lim muassasalarining faol hamkorligini yo‘lga qo‘yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

professor-o‘qituvchilar tomonidan yuritilishi lozim bo‘lgan turli jurnal va o‘quv-uslubiy hujjatlar sonini qat’iy qisqartirish orqali ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta‘lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta‘lim dasturlari asosida o‘qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, «ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan

malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma'lumotlar elektron bazasini yaratish;

oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirib borish;

oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish;

ilmiy darajalar va unvonlar berish vakolatini bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalariga berish;

doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilashda oliy ta'lim muassasalariga erkinlik berish, talabgorlarni saralab olishda ularning ilmiy yutuqlariga alohida e'tibor qaratish;

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar majlislarini hududlardagi oliy ta'lim muassasalaridan turib onlayn kuzatish platformasini yaratish.

#### **4-§. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish**

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

oliy ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi,

barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatları va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

imkoniyati cheklangan talabalarning ijtimoiy moslashuvi uchun keng sharoitlar yaratish, inklyuzivlik g'oyalarini targ'ib qilish;

yoshlar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarida sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhlari ishini takomillashtirib borish, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash borasidagi targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

talaba-yoshlarni hunar o'rganish, yangi bilim egallash, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalanish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga undash orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ta'lim muassasalarida shart-sharoitlar yaratish;

talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

«Maktab — ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i» konsepsiyasi doirasida oliy ta'lim muassasalarining umumta'lim maktablari bilan o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish.



## **5-§. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish**

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish borasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, o'quv rejalari va dasturlari mazmuni hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha soatlar taqsimotini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari asosida shakllantirish;

bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari mavzularini iqtisodiyotning real sektori, shuningdek hududiy (viloyat, tuman, shahar, mahalla, hududiy ob'ekt) muammolardan kelib chiqib shakllantirish hamda mavzularni tor qamrovda chuqur tadqiq qilishga o'tish;

oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonolari aloqalarini mustahkamlash hamda klaster usulida faoliyat yuritishini tashkil etish;

ishlab chiqarish rivojlangan hududlar va iqtisodiy zonalarda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish;

talabalarning tegishli soha bo'yicha ishlab chiqarish korxonolari va tashkilotlarda ta'lim jarayonidan tashqari vaqtda mehnat faoliyati olib borishlariga shart-sharoit yaratish;

ilmiy-texnik buyurtma va grantlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishda mavjud muammolarga yangicha yechim topish, tajribali amaliyotchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ta'limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo'nalishlarda oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonolari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash;

ishlab chiqarish korxonalarida mutaxassislik kafedralari filiallari, oliy ta'lim muassasalari huzurida ishlab chiqarish korxonolari tarkibiy bo'linmalarini, texnoparklar, biznes inkubatorlar, kovorking markazlari faoliyatini tashkil etish,

texnologiyalar transferini amalga oshirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan samarali hamkorligini rag'batlantirish;

pedagog xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida malaka oshirish tizimini joriy etish, shuningdek ishlab chiqarishda katta tajribaga ega, biroq ilmiy darajasi bo'lmagan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga, jumladan taklif etilgan va faxriy o'qituvchi sifatida jalb etishning ta'sirchan mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish, bunda ushbu mutaxassislarni muayyan sohadagi stajiga muvofiq tegishli lavozimlarga ishga qabul qilish;

ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish tartibini takomillashtirish, bunda amaliy ko'nikmalarni tasdiqlovchi sertifikatlar berish tizimini joriy etish;

kadrlar buyurtmachilari murojaati asosida oliy ta'lim muassasalari bazasida ishlab chiqarishdan tajribali amaliyotchilarni jalb etish yo'li bilan maqsadli ta'lim dasturlari, professional malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar tashkil etish mexanizmlarini yaratish;

oliy ta'lim muassasalari tuzilmasini isloh qilish asosida faoliyati talabalar amaliyoti va ishga joylashishiga har tomonlama ko'maklashish, potensial ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirib borish va hamkorlik qilish, shuningdek avvalgi bitiruvchilar salohiyatidan unumli foydalanishga qaratilgan «Karera markazlari»ni tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bilim hamda ko'nikmalarini baholovchi markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirish kabi masalalarda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, biznes inkubatorlar va venchur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish, mazkur masalalarda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish;

doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarining amaliyotga tezkor joriy etilishini ta'minlash, yoshlarning ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish va rag'batlantirish, ilmiy faoliyat nufuzini ko'tarish maqsadida doktorlik (tayanch doktorlik) ilmiy darajasini beradigan binar (ikkitalik) himoyalar tizimini joriy etish;

fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar tanlovlarida ilmiy natijalarning tijoratlashirilishi, ularning amaliyotga joriy etilishi muddatidan kelib chiqqan holda grantlar miqdori va davomiyligini belgilash;

vasiylik kengashlari tarkibini kadrlar buyurtmachilari, yirik ish beruvchilar, jamoat arboblari va tegishli sohada katta yutuqlarga erishgan tadbirkorlar hisobidan shakllantirish;

bitiruvchilar malakasining ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash, kadrlar tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf qilish maqsadida har yili respublika miqyosida kadrlar buyurtmachilari o'rtasida milliy so'rovlar o'tkazish an'anasini yo'lga qo'yish.

## **6-§. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash**

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish;

iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shuningdek istiqbolda oliy ta'lim muassasalarining reytingi va o'z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha to'lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari eksporti va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish;

qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, resurstejamkor va tez barpo etiladigan konstruksiya va materiallardan foydalanish bo'yicha ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo'llash;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlash, o'quv va ilmiy jarayonlarni o'quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob'ektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta'minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;

talabalar turar joylari, kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriyalar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojni o'z vaqtida ta'minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

imkoniyati cheklangan talabalarga oliy ta'lim muassasalari va talabalar turar joylari binolarida qo'shimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

oliy ta'lim muassasalarida xorijiy fuqarolarning istiqomat qilishi va ta'lim olishi bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish;

innovatsion kutubxonalarni tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

oliy ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzluksiz ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

oliy ta'lim muassasalarida homiylik va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishdan tushgan, maqsadli kapital va boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladigan endowment jamg'armalarini (endowment fund) tashkil etish.

### **7-§. Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish**

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko'lamini inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa — flagman universitetlar (O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa — ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta'lim muassasalari;

uchinchi toifa — sohalar uchun ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta'lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati ko'lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

v) oliy ta'lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha hujjat loyihalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta'lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas'uliyatini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

ye) oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko'lamini kengaytirish;

j) oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish;

z) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o'rtasida o'tkazilgan milliy so'rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo'yicha ishga joylashish masalalariga e'tibor qaratish;

i) ta'lim sifatini nazorat qilish va oliy ta'lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta'lim muassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta'lim tizimi rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shuvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo'llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

k) oliy ta'lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o'qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

1) oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.

### **8-§. Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish**

Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

oliy ta'lim sohasida «Korrupsiyasiz soha» loyihasini izchil davom ettirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga barham berish;

oliy ta'lim muassasalarini tajribali, halol, pok vijdonli, mas'uliyatli professor-o'qituvchi va xodimlardan shakllantirib, ularning vazifalarini aniq belgilab berish;

oliy ta'lim muassasalarining jamiyat oldidagi hisobdorligi va ta'lim sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirish, keng jamoatchilikni shaffoflik va xolislik tamoyillari asosida ta'lim xizmatlari sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilib borish;

professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi byurokratik omillarni bartaraf etish, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirish, talabalar bilimni baholashda adolatni ta'minlash;

abiturientlar va magistraturada ta'lim olish uchun talabgorlar hujjatlarini qabul qilish, barcha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish, ularning bilimni baholash, o'qishni ko'chirish yoki qayta tiklash jarayonlarida suiiste'molchilik holatlarining oldini olish, bu borada jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish, shaffoflikni ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ushbu kasb jozibadorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarini mustahkamlash,

jamoatchilikka axborot taqdim etishning tezkor va zamonaviy shakllarini joriy etish;

malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish, nazorat-monitoring, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va tizimdagi boshqa jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini optimallashtirish, kasbiy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida oliy ta'lim tizimi xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish;

oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tanlov o'tkazishda adolat va ochiqlikni ta'minlash, o'quv yili yakunlari bo'yicha pedagog kadrlar faoliyatiga baho berish, bu borada jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya qilinishi, xarajatlar smetalarini shakllantirish tartibiga amal qilish va ichki moliyaviy taftish ishlarini takomillashtirish, ushbu jarayonda korrupsiyaga oid holatlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etilishini ta'minlash;

oliy ta'lim tizimida kadrlar zaxirasini shakllantirish, odob-axloq normalariga rioya etilishini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish.

### **9-§. Oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash**

Oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha qo'yidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy



universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarining O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti oshishidagi ishtirokini va mamlakat ijobiy xalqaro imidjini shakllantirishdagi rolini oshirish;

respublika oliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta’lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

ta’lim to‘liq xorijiy tillarda olib boriladigan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, fakultetlar salmog‘ini oshirib borish;

xorijiy fuqarolarni oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadigan tartibda o‘tkaziladigan suhbat asosida magistratura va doktoranturaga qabul qilish bo‘yicha tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilish;

ta’lim xizmatlari eksportini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar bilan ta’lim sohasida hamkorlikni kengaytirish va ularning me‘yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirib borish;

«Study in Uzbekistan» («O‘zbekistonda tahsil ol») loyahasini amalga oshirish, mamlakat ta’lim jozibadorligini targ‘ib qiluvchi maxsus veb-portal yaratish va uni barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha batafsil va ishonchli ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish;

ta’limda brendlar, ilmiy an’analar tizimini yaratish asosida oliy ta’lim va oliy ta’lim muassasalari imijini shakllantirish strategiyasi bo‘yicha dastur qabul qilish;

oliy ta’lim muassasalariaro xalqaro fan olimpiadalarini tashkil etish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish, hamkorlikda o‘tkaziladigan ilmiy konferensiyalar va seminarlar

sonini ko'paytirish, xalqaro ilmiy va ta'lim loyihalarini amalga oshirish;

rivojlangan xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda xalqaro qo'shma ilmiy jurnallar, shuningdek ta'lim forumlari, rektorlar konferensiyalari va boshqa anjumanlar tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalari rasmiy veb-saytlarini Webometrics tashkiloti reyting tizimida egallagan o'rinlarini yaxshilab borish, shu jumladan oliy ta'lim muassasalari tomonidan yetakchi tashkilotlar va korxonalarda bitiruvchilarning ishga joylashishi haqidagi ma'lumotlar, ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ilmiy-texnik salohiyati, professor-o'qituvchilar, infratuzilmasi, erishgan yutuqlari kabi asosiy ma'lumotlarni veb-saytlarda muntazam ravishda e'lon qilib borish;

xorijiy mamlakatlarda mahalliy oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish, qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida ta'lim olish uchun xorijiy fuqarolarni jalb etish bo'yicha mahalliy va xorijiy agentliklar tomonidan konsalting xizmatlari ko'rsatilishining me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

respublika oliy ta'lim tizimining xalqaro imijini yaratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, xorijiy mamlakatlardagi elchixonalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy PR-loyihalarni amalga oshirish;

oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida xalqaro moliya institutlari, yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash, bu borada mamlakat ta'lim tizimi manfaatlariga mos keluvchi innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

#### **4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo‘lishi ta’minlanadi, sohada raqobat muhiti yaratiladi;

O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantiriladi;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasi xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kirishiga erishiladi;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkaziladi;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlari joriy etiladi, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tiladi;

oliy ta’lim mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligi ta’minlanadi;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etiladi;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlari tashkil etiladi hamda ular tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etuvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqiladi;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallari xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishi ta'minlanadi;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantiriladi;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etiladi;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus asosida rivojlantiriladi;

oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilanadi, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkaziladi va moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yo'lga qo'yiladi;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov

darajasi oshiriladi, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlar yaxshilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga

ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI**

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Yillar kesimida					Mas’ul ijrochilar
			2019	2020	2023	2025	2030	
1.	Oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi	foizda (jami bitiruvchilar soniga nisbatan)	20	25	30	35	50	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi
2.	Nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida	nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni	5	10	20	28	35	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi
3.	Xorijiy oliy ta’lim muassasalari dasturlari asosida o‘qitishni tashkil qilish (qo‘shma ta’lim dasturlari bundan mustasno)	xorijiy dasturlar asosida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari soni	23	26	31	36	45	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
4.	Muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi	foizda (jami talabalar soniga nisbatan)	25	28	35	40	50	Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligi
5.	Bakalavriat ta’lim	foizda	7	10	15	17	22	Oliy va o‘rta maxsus

	yoʻnalishlari bitiruvchilaridan magistratura mutaxassisliklariga qabul qilingan talabalar	(bakalavriat taʼlim yoʻnalishi bitiruvchilariga nisbatan)							taʼlim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi
6.	Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka oʻtagan professor-oʻqituvchilar ulushi	foizda (professor-oʻqituvchilar soniga nisbatan)	2	4	10	15	20		Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, «El-yurt umidi» jamgʻarmasi
7.	Respublika oliy taʼlim muassasalariga jalb qilingan xorijiy professor-oʻqituvchilar ulushi (xorijiy oliy taʼlim muassasalari bundan mustasno)	foizda (professor-oʻqituvchilar soniga nisbatan)	1	2	5	8	12		Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, «El-yurt umidi» jamgʻarmasi
8.	Malaka oshirish kurslarida dars beruvchi xorijda malaka oshirgan professor-oʻqituvchilar ulushi	foizda (malaka oshirish kurslari professor-oʻqituvchilari soniga nisbatan)	5	15	40	60	80		Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, «El-yurt umidi» jamgʻarmasi
9.	Kredit-modul tizimi joriy etiladigan oliy taʼlim muassasalari	foizda (oliy taʼlim muassasalari soniga nisbatan)	2	5	16	57	85		Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
10.	Oʻquv rejalarida amaliy koʻnikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari boʻyicha amaliy mashgʻulotlar ulushi	foizda (mashgʻulotlar soniga nisbatan)	35	45	55	70	80		Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

11.	O'quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklda mavjudligi	foizda (o'quv va ilmiy adabiyotlar soniga nisbatan)	20	30	50	70	90	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi
12.	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimining joriy etilishi	foizda (oliy ta'lim muassasalari soniga nisbatan)	20	30	80	100	100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi
13.	Ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarini elektron ta'lim boshqaruv tizimi orqali nazorat qilish	foizda (oliy ta'lim muassasalari soniga nisbatan)	mavjud emas	20	50	100	100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
14.	O'qitishda raqamli texnologiyalar, shu jumladan «E-MINBAR» elektron platformasi, onlayn, vebinar texnologiyalar joriy etilgan oliy ta'lim muassasalari	foizda (oliy ta'lim muassasalari soniga nisbatan)	mavjud emas	10	40	80	100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi
15.	Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati (ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushi)	foizda (professor-o'qituvchilar soniga nisbatan)	36	38	40	60	70	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi
16.	Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish	foizda (magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari soniga nisbatan)	15	29	32	38	45	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Moliya vazirligi

17.	«Scopus», «ScienceDirect», «Web of Science» va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jurnallardagi maqolalar	indekslanuvchi jurnallardagi maqolalar soni	750	1 200	2 500	4 000	7 000	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi
18.	«Scopus», «ScienceDirect», «Web of Science» va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallari	ilmiy jurnallar soni	mavjud emas	2	10	25	35	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi
19.	Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan «Xirsh» indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori bo'lgan professor- o'qituvchilar	professor- o'qituvchilar soni	142	171	295	460	900	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi
20.	Xorijiy talabalarning ulushi	foizda (jami talabalar soniga nisbatan)	1	3	6	10	15	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi

Izoh: yuqoridagi ko'rsatkichlarga erishish uchun tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar ham mas'ul hisoblanadilar, shuningdek boshqa manfaatdor davlat organlari o'zlarining vakolatlari doirasida amaliy yordam ko'rsatadilar.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi  
PF-5847-son Farmoniga 2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha  
rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish  
bo‘yicha  
«YO‘L XARITASI»**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Mas’ul ijrochilar</b>
1.	Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini tashkil etish tartibini takomillashtirish.	1. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini tashkil etish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish. 2. Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2019 yil noyabr 2019 yil dekabr	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar
2.	Nodavlat oliy ta’lim muassasalari tomonidan, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini kengaytirish.	1. Nodavlat, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish istagida bo‘lgan shaxslarga huquqiy va uslubiy yordam ko‘rsatish. 2. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.	2019 yil davomida	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar

3.	O'zgaruvchan o'quv rejalari va dasturlarini joriy etish, o'quvchilarning qiziqishlari inobatga olgan holda maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.	<p>1. O'zgaruvchan o'quv rejalari va dasturlari, maxsus ta'lim dasturlari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish.</p> <p>2. Xorijiy tajribalar asosida o'zgaruvchan o'quv rejalari va ta'lim dasturlari, maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlarini sinovdan o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasalari va ta'lim yo'nalishlarini belgilash.</p>	2019 yil oktabr 2019 yil noyabr 2019 yil dekabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar
4.	Tabiiy va muhandis-texnik sohalarda kadrlar tayyorlashni kengaytirish.	<p>1. Tabiiy va muhandis-texnik sohalari bo'yicha kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.</p> <p>2. Tabiiy va muhandis-texnik sohalari bo'yicha 2020/2021 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirish.</p>	2019 yil dekabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xodjaev</i> ), Fanlar akademiyasi ( <i>B. Yuldashev</i> )
5.	Kunduzgi o'qish shakli bo'yicha bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini qayta	1. O'quv rejalari va ta'lim dasturlarini xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish orqali kunduzgi o'qish shakli bo'yicha oliy ta'lim yo'nalishlari va	2019 yil oktabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Moliya

	ko'rib chiqish.	mutaxassisliklari xususiyatidan kelib chiqib 2019/2020 o'quv yilidan boshlab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:12 nisbatda belgilash va kelgusida 1:16 nisbatga bosqichma-bosqich oshirib borish hamda oliy ta'lim muassasasi kengashlariga zarur holatda mazkur nisbatni 50 foizgacha o'zgartirish huquqini beruvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish. 2. Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xodjaev</i> )
6.	Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.	1. «E-MINBAR» elektron platformasi, onlayn, vebinar texnologiyalarni tatbiq etish sohasida xorijiy ta'lim muassasalarining ilg'or tajribalarini o'rganish. 2. Oliy ta'lim muassasalarida «E-MINBAR» elektron platformasini yaratish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqish.	2019 yil oktabr  2019 yil dekabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), Loyiha boshqaruvi milliy agentligi ( <i>D. Li</i> ), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan

				vazirlik va idoralar
7.	Respublika oliy ta'lim muassasalarida vasiylik kengashlari faoliyatini tashkil etish va ularning rolini oshirish.	1. Respublika oliy ta'lim muassasalari vasiylik kengashlarini xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari vasiylik kengashlari bo'yicha takliflarni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2019 yil oktabr 2019 yil noyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar
8.	Oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish, rahbarlik lavozimlariga munosib nomzodlarni tayyorlash hamda ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib borish tizimini takomillashtirish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish: oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kadrlari zaxirasiga kiritiladigan nomzodlarga qo'yiladigan professional kompetensiyalarga oid talablar; nomzodlarning intellektual, psixologik barqarorlik, tashkilotchilik mahorati va boshqaruv salohiyati darajasini aniqlash, ularni sotsiometrik so'rov elementlaridan foydalangan holda baholash tartibi;	2019 yil dekabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov), Davlat boshqaruv akademiyasi (X. Azizov), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar

		rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlarni maqsadli o‘qitish, ularning professional kompetensiyalarini rivojlantirish va tegishli sohalardagi bilimlarini oshirish mexanizmlari.		
9.	Samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari — KPI asosida oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlari faoliyatini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish.	1. Samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari — KPI asosida oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlari faoliyatini baholash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish. 2. Respublika oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlari faoliyati samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash tartibini ishlab chiqish.	2019 yil oktabr  2019 yil noyabr	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar
10.	Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalarida oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish choralarini ko‘rish.	1. Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalariga kirishga salohiyati yuqori bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish. 2. Nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalarida oliy ta’lim	2019 yil davomida	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar

		<p>muassasalari va professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni xatlovdan o'tkazish, ro'yxatdan o'tmagan respublika oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumotlar kiritish, ularning resurslarini shakllantirish.</p> <p>3. Olimlar tomonidan chop etiladigan maqolalarning sohalarga taqsimlanishidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga kiritish uchun maqsadli yo'naltirish.</p>		
11.	<p>Oliy ta'lim muassasalari talabalari amaliyotini samarali tashkil etish.</p>	<p>1. Talabalar amaliyotini kadrlar buyurtmachilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda samarali tashkil etish, amaliyot o'tash uchun shart-sharoitlar yaratish va ushbu jarayonni takomillashtirishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2019 yil noyabr	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Madjidov), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar</p>

12.	<p>Oliy ta'lim muassasalari faoliyati to'g'risida fuqarolar xabardorligini oshirish, jumladan yoshlarni qiziqishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishga jalb qilish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ilmiy-texnik salohiyati, professor-o'qituvchilar, infratuzilmasi, erishgan yutuqlari kabi doimiy ravishda yangilanib boriladigan ma'lumotlarni mujassam etgan veb-portal yaratish.</p> <p>2. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari o'rtasida ta'lim yo'nalishlari, o'quv-laboratoriya bazalari va boshqa sharoitlar to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borish, oliy ta'lim muassasalari huzurida «Yozgi maktab»lar faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlarini tasdiqlash.</p>	<p>2019 yil noyabr</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>I. Madjidov</i>), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar</p>
13.	<p>Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashishi holatini tahlil qilish.</p> <p>2. Kadrlar</p>	<p>2019 yil oktabr  2019 yil dekabr</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (<i>I. Madjidov</i>), tarkibida oliy</p>

		buyurtmachilari bilan hamkorlikda bitiruvchilarni mutaxassisligi bo'yicha ishga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.		ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar
14.	Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish faoliyatini takomillashtirish.	1. Talabalarni adabiyot, san'at va sportga, sog'lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta'lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash. 2. Talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni amaliy kasb egasi sifatida tayyorlash ishlarini tashkil qilish va tizimli ravishda olib borish.	2019 yil davomida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Madjidov</i> ), tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar

(*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,*  
*09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son*)



## MUNDARIJA

	<b>SO`Z BOSHI</b>	4
<b>1- bob.</b>	<b>QIYOSIY TA`LIM VA QIYOSIY PEDAGOGIKANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI</b>	6
1.1.	Qiyosiy ta`lim tushunchalari va ularning zamonaviy ta`lim amaliyotiga ta`siri	6
1.2.	Qiyosiy ta`limning tarixiy rivojlanishi va qiyosiy tahlili	12
1.3.	Qiyosiy ta`limni o`rganishga qiziqishning ortishi uchun sabab bo`lgan omillar	20
1.4.	Qiyosiy ta`lim fanining rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati	25
1.5.	Ta`lim sohasini isloh qilishda xalqaro tajribalarning ahamiyati	31
1.6.	Jahon mamlakatlarida O`quvchilar bilimni baholash mezonlari	52
<b>2- bob.</b>	<b>ZAMONAVIY DUNYODA TA`LIM MUAMMOLARI VA TA`LIM TIZIMINI BOSHQARISH</b>	60
2.1.	Bolonya jarayoni mamlakatlari va O`zbekiston oliy ta`lim tizimi qiyosiy tahlili	60
2.2.	Qiyosiy ta`limda milliy ta`lim tizimini aniqlash vositalari	68
2.3.	Rivojlangan davlatlar ta`lim tizimi	74
2.3.1.	Yaponiyaning ta`lim amaliyoti	74
2.3.2.	Braziliyada ta`lim tizimi	78
2.3.3.	Amerika Qo`shma Shtatlarida ta`lim	80
2.3.4.	Frantsiyada ta`lim tizimi	85
2.3.5.	Yamayka ta`lim tizimi	88
2.4.	Evropa mamlakatlarida oliy ta`limning xususiyatlari va tarkibi	91
<b>3- bob.</b>	<b>XXI – ASR QIYOSIY TA`LIMI</b>	106
3.1.	XX-XXI asrlarda xorijda xalqaro ta`lim makoni	106
3.2.	Xorijiy mamlakatlarda maktab ta`limi tizimlari	118
3.3.	Ta`limi tizimi dasturlari va texnologiyalari	135
3.4.	Ikki tilli ta`lim tizimlari	144
3.5.	Ta`lim tizimini boshqarish: zamonaviy yondashuvlar	152
3.6.	Jahon mamlakatlarida pedagog kadrlarga bo`lgan ehtiyoj va ularni tayyorlash masalalari	159
	<b>XULOSA</b>	169
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	170
	<b>GLOSSARIY</b>	173

Ziyadullaev Davron Shamsiyevich

# QIYOSIY TA'LIM

(O`quv qo`llanma)

**Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2021**

Muharrir: A.Tog'ayev  
Tex. muharrir: F.Tog'ayeva  
Musavvir: B.Esanov  
Musahhiha: O.Muxammadiyeva  
Kompyuterda  
sahifalovchi: G.Tog'ayeva

9323



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.  
Bosishga ruxsat etildi: 10.07.2020. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Shartli bosma tabog'i 15,0. Nashr bosma tabog'i 14,75.  
Adadi 100. Buyurtma № 23.